

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**“Arxitektura va qurilish” fakulteti**

**“BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI” kafedrasi**

**“Injenerlik geodeziyasi” fanidan  
MA'RUZA MATNLARI**

- |         |   |
|---------|---|
| 5340100 | –Arxitektura (turlari bo'yicha)   |
| 5340200 | –Bino va inshootlar qurilishi   |
| 5340400 | –Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo'yicha) |

**JIZZAX- 2019**

Mazkur ma'ruza mantni – O'zbekiston Respublikasida amaldagi ta'lif va DTS, "Injenerlik geodeziyasi" fanining namunaviy o'quv rejasi, namunaviy o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturlari hamda "Geodeziya" sohasining me'yoriy qoidalari talablari asosida tayyorlandi.

Ma'ruza mantnida bugungi kundagi amalda bajariladigan zamonaviy geodezik asboblar hamda yangi usullar bilan qurilayotgan va barpo etilayotgan uzlusiz inshootlarga oid loyihaviy echimlariga alohida e'tibor berilgan.

"Injenerlik geodeziyasi" fanidan ma'ruzalar matni 5340100 – Arxitektura (turlari bo'yicha), 5340200 – "Bino va inshootlar qurilishi" (turlari bo'yicha), 5340400 – "Muxandislik kommunikatsiyalarini qurilishi va montaji" (turlari bo'yicha)

"Arxitektura va qurilish" fakultetining ilmiy-uslubiy kengash yig'ilishida (2019 yil "27" avgust № 1 bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Fakultet dekanı:

A.Berdiqulov

"Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasи majlisida (2019 yil "26" avgust № 1 bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

N.Asatov

**Tuzuvchilar:** JizPI "Bino va inshotlar qurilishi" kafedrasи katta o'qituvchisi Nuriddin Janizakovich Xudaykulov  
JizPI "Bino va inshotlar qurilishi" kafedrasи assistenti Ulug'bek Abdurakovich Karabekov

**Takrizchilar:** A.Ganiev "Qurilish materiallari buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqish" kafedrasи dotsenti

**"INJENERLIK GEODEZIYASI"** fanidan (Ma'ruzalar matni). – Jizzax:  
JizPI, 2019 yil

## KIRISH

Ushbu ma’ruzalar matni “Injenerlik geodeziyasi” fanining namunaviy o‘quv rejasi, namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv rejalarini asosida oliy ta’lim muassasalarining 5340100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha), 5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi” (turlari bo‘yicha), 5340400 – “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari talabalariga “Injenerlik geodeziyasi” fanidan o‘tiladigan ma’ruza darslari uchun yozildi.

Mazkur ma’ruzalar matnini tayyorlashda oliy o‘quv yurtlarining 5340100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha), 5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi” (turlari bo‘yicha), 5340400 – “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalari uchun yozilgan darsliklar va o‘quv adabiyotlaridan foydalanildi.

Ushbu ma’ruzalar matni DTS lariga to‘liq mos keladi, “Injenerlik geodeziyasi” fanining namunaviy o‘quv rejasi, namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv rejalarini yozilgan.

Ma’ruzalar matnni yozishda “Injenerlik geodeziyasi” fanining ishchi o‘quv rejasiga ko‘ra, 5340100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha), 5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi” (turlari bo‘yicha), 5340400 – “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlarining II-bosqich talabalariga III–IV semestrlarida o‘qitiladigan dastlabki umumkasbiy fani ekanligi, talabalarning bu fanni o‘rganishga hali etarli tayyor emasliklarini hisobga olib, uni soddalashtirishga harakat qilindi.

Ma’ruzalar matni boshqa ma’ruzalar matnidan farqi shuki xar bir ma’ruzadan keyin nazorat savollari va adabiyotlarda mavzuga oid betlari keltirilgan 5340100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha), 5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi” (turlari bo‘yicha), 5340400 – “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlariga ta’luqli mavzular yoritilgan.

“Injenerlik geodeziyasi” fanining namunaviy o‘quv rejasi, namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv rejalarida ko‘zda tutilgan hajmda berilgan. Shuningdek, ma’ruzalar matnida geodezik o‘lchashlarda qo‘llanadigan geodezik asbob-uskunalar bilan ishslash tartiblari to‘g‘risida umumiyligi ma’lumotlar keltirilgan.

Ma’ruzalar matnnini nashrga tayyorlash, foydalanishda sezilgan kamchiliklar, ma’ruzalar matni to‘g‘risidagi taqriz va muhokamalar e’tiborga olindi.

## UMUMIY MA'LUMOTLAR

### 1. “Injenerlik geodeziyasi” fani va uning vazifalari So‘z boshi o‘rnida

Respublikamizda xalq xo‘jaligida hozirgi zamon qurilishi xalq xujaligining kompleks tarmog‘i bo‘lib, u qurilish materiallari ishlab chiqaradigan minglab korxona, yirik uy qurish kombinatlari hamda temir-beton buyumlari va po‘lat konstruksiyalar zavodlariga ega. Unlab ilmiy tadqiqot va yuzlab loyihalash institutlari qurilishning ilmiy markazini tashkil etadi.

Geodeziya Yerning shakli va o‘lchamini o‘rganuvchi fan bo‘lib, undan turli inshootlarni loyihalash va qurish ishlarida ham keng qo‘lamda foydalilanadi.

Mamlakatimiz bo‘ylab olib borilayotgan barcha qurilish ishlarida turli geodezik o‘lhash ishlari bajariladi. “Injenerlik geodeziyasi” fanidan laboratoriya ishlari uchun uslubiy ko‘rsatmada inshoot loyihasini joyga ko‘chirish, qurish va ishlatish davridagi geodezik ishlarni bajarish usullari ham o‘rganiladi. Shunday qilib, yer yuzining shakli va kattaligini aniqlab, uni qog‘ozda plan, karta va profil holida tasvirlash hamda inshootlarni barpo qilishda turli geodezik o‘lhash ishlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

“Injenerlik geodeziyasi” fani halq xo‘jaligidagi turli qurilish ishlarida, shuningdek, mudofaa ishlarida ham muhim o‘rinni egallaydi. Masalan, biror yo‘l qurish yoki kanal qazishdan oldin ularning puxta, arzon bo‘lishi va tez bitishi e’tiborga olinib, shu yo‘l yoki kanal trassasi (o‘q chiziq) uchun qulay joy taxminan belgilanadi. Bu ishrekognossirovkadeyiladi. So‘ngra, tanlangan trassa bo‘ylab geodezik tayanch shoxobchalar barpo qilinadi va gorizontal hamda vertikal s’yomka (plan olish) ishlari bajariladi. S’yomka materiallariga ko‘ra, shu joyning topografik plani, nivelirlash natijalariga ko‘ra esa trassaning bo‘ylama va ko‘ndalang profillari chiziladi. Plan va profillarga qarab, unda quriladigan turli inshootlar o‘rni aniqlanadi va loyihalanadi, keyin yer qazish ishlari hajmi topiladi. Qurilishga sarf bo‘ladigan mablag‘ aniqlanadi.

Qurilish ishlarini boshlashdan oldin loyihadagi asosiy nuqtalarni, ya’ni qurilish o‘rnini joyda ko‘rsatish kerak. Bu ishloyihani joyga ko‘chirish deyiladi. Loyihani joyga ko‘chirish ishi ham geodezik o‘lhash ishlari orqali bajariladi. Qurilish jarayonida inshootning to‘g‘ri qurilayotganligi ham geodezik kuzatishlar yordamida tekshirib boriladi.

Hozirgi zamon qurilishining o‘ziga xos xususiyati uning mujassamligi, ob’ektlarning yirikligi, ularning qurilish konstruksiyalari va injenerlik jihozlarining murakkabligi, shuningdek, qurilish konstruksiyalari elementlarining tutashmalari va uzellarining aniqligiga nisbatan quyilayotgan talabning orta borishidir.

Yuqorida kursatilgan xususiyatlar bilan birga, qurilishning nixoyatda industrlashtirilishi va mexanizatsiyalashtirilishi natijasida uning texnologiyasi tubdan uzarib ketdi, unumsiz qo‘l mehnati juda kamaydi, qurilish maydonchasi serunum mashinalar va mexanizmlarga boy montaj qilish maydonchasiga aylandi.

Hozirgi zamon qurilishi inshootlar konstruktiv sxemasini va ularning injenerlik asbob-uskunalari texnologik sxemalarini yig‘ishda juda katta anqlik talab qiladi, bunda O‘qlar va gorizontlar o‘tkazishda millimetrik va uning ulushlaricha chetga chiqishga yul quyiladi. SHu sababli aniq geodezik ulchashlar va yasashlar qurilishmontaj ishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. SHu sababli ham quruvchi uchun geodeziyani bilish shart. Qurilishda geodeziya kursini o‘rtalashtirishni maxsus yurtlarining

5340100 – Arxitektura (turlari bo‘yicha), 5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi” (turlari bo‘yicha), 5340400 – “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

## **GEODEZIYA TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOT**

### **Reja**

1. Geodeziya fani va uning vazifalari.
2. Geodeziyaning mamlakatimiz xalk xujaligi va mudofasidagi axamiyati.
3. Geodeziyaning rivojlanishining kiskacha ta’rifi.
4. Yerning shakli va o‘lchamlari to‘g‘risida tushuncha.
5. Geoedziyada proeksiyalash usullari.
6. Geografik, to‘g‘ri burchakli va qutbiy koordinatalar to‘g‘risida tushuncha.
7. Yer yuzaisdagi nuqtalarning absolyut va nisbiy balandliklari.
8. Yerning egriligini gorizontal va vertikal masofalarni aniqlashga ta’siri.
9. S’jomka va nivelirlash.

**Tayanch so‘zlar:** ellipsoid, qo‘sish qutbiy koordinata, qutbiy koordinata, Grinvich, Grinvich meridiani, Gauss-Kryugyerning to‘g‘ri burchakli koordinata sistemasi, geografik koordinata, astronomik uzunlik, parallel, meridian tekislik, kenglik, geodezik uzunlik, Krasovskiy referens-ellipsoidi, qutblari siqiqlig, geoid.

#### **1.1. Geodeziya fani va uning vazifalari.**

Geodeziya - Yerning shakli va kattaligini o‘rganishda, yer yuzidagi nuqtalarning bir-biriga nisbatan o‘rnini aniqlashda, yer yuzining karta, plan va profillarini tuzishda, hamda injenerlik inshootlarini barpo etishda bajariladigan o‘lchashlar nazariyasi va praktikasi haqidagi fandir.

**"Geodeziya"** - grekcha so‘z bo‘lib, "geo" - er, "deziya" - bo‘lish demakdir.

Geodeziyaning asosiy vazifasi:

Yerning shakli va kattaligini, hamda gravitatsion maydonini aniqlash.

Geodeziyaning ilmiy vazifasi:

1. Yer yuzasining gorizontal va vertikal harakati, qit’alar siljishi, okean, dengiz suv satxining bir-biridan farqi, "Yer qutbini" o‘zgarishini aniqlash.

2. Quyosh sistemasidagi planetalarning karta va planlarini tuzish.

3. Quyosh sistemasidagi planetalarni shakli va kattaligini aniqlash.

4. Yer va quyosh sistemasini boshqa sistemalarda nuqtalarni yagona koordinatalarini aniqlash.

5. Tabiiy resurslarni o‘zlashtirishda geodezik ishlarni bajarish.

Mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirishda geodezik ishlarni bajarish.

Geodezik ishlarda - asosan geodezik o‘lchashlar ishlataladi. Bunda xilma xil geodezik asboblar ishlataladi.

Umuman, o‘lchash ishlarini tashkil qilish, o‘lchashlarda ishlataladigan asboblarni o‘rganish va ular bilan ishlash geodeziyaning vazifasiga kiradi.

Geodeziyani boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Yerning sun’iy yo‘ldoshlari-ni geodezik maqsadlarda kuzatishda, geodezik tayanch shaxobchalarni barpo etishda, yer yuzidagi nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlashda astronomiyafaniga tayanadi. Yerning shaklini o‘rganishda va kattaligini aniqlashda geodeziya gravimetriya, geologiya, geofizika va boshqa fanlar ma’lumotidan foydalilanadi. Territoriyalarni topografik kartalarda to‘g‘ri tasvirlash uchun geografiya, geomorfologiya fanlaridan foydalilanadi. Geodezik o‘lchash ishlarida va ularni grafik jixatdan rasmiylashtirishda matematikaga tayanadi.

#### **1.1. Geodeziyani tarmoqlarga bo‘linishi.**

Geodeziya quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi:

1) **Oliy geodeziya** - Yerni shakli va kattaligi, gravitatsion maydonini, yer yuzasidagi nuqtalarni yagona koordinata sistemasida aniqlash bilan shug‘ullanadigan fan. Yerni shakli va kattaligini aniqlash, geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilish oliy geodeziya vazifasidir.

2) **Kosmik geodeziya** - yerni shaklini aniqlash, materiklardan dunyo okeanidagi orollarga nuqta koordinatalarini uzatish, yer yuzasida o'tkazilgan asosiy geodezik ishlarni yagona sistemasiga birlashtirish, materiklardagi geodezik tayanch shaxobchalarini tekshirish bilan shug'ullanadigan fandir.

3) **Selenogeodeziya** - oyni shakl va kattaligini, oy yuzasini kartada tuzishni o'rghanadi.

4) **Planegeodeziya** - quyosh sistemasidagi planetalarni shakl va kattaligini xamda ularni yuzasining kartasini tuzish bilan shug'ullanadigan fandir.

5) **Radiogeodeziya** - radiolakatsiya metodi; yer yuzasidagi nuqtalarni koordinatalarini aniqlash, radiogeodezik asboblar yordamida masofalarni o'lhashni o'rgatadi (svetodalnomer, radiodalnomer).

6) **Topografiya** - geodeziyani topografik plan olish nazariyasi va praktikasi bilan shug'ullanadigan tarmog'idir. Topografik karta va planlar tuzishda aviatsiya va fotografiyani keng ishlatilishi tufayli fotografiya va aerofototopografiya soxalari vujudga keldi.

7) **Fototopografiya** - joyni erda turib olingen suratlariga asoslanib topografik karta va planlar tuzish ishi bilan shug'ullanadigan tarmog'idir. Aerofototopografiya esa joyni samolyotda o'rnatilgan maxsus asboblar yordamida olingen suratlariga asoslanib karta va plan tuzish ishi bilan shug'ullanadi.

8) **Kartografiya** - yer yuzasini geografik kartalarini tuzish, o'rganish, foydalanish metodlarini o'rganadigan fan.

9) **Amaliy geodeziya** - xalq xo'jaligini turli tarmoqlarida geodezik ishlarni bajarish bilan shug'ullanadi. Amaliy geodeziya o'z navbatida injenerlik geodeziya va qurilish geodeziya tarmoqlariga bo'linadi.

10) **Injenerlik geodeziyasi** - turli injenerlik qidiruv ishlarida, injenerlik inshootlarini loyihalash va qurishda, ulardan foydalanishda geodezik ishlarni tashkil qilish va bajarish bilan shug'ullanadi.

11) **Marksheyderiya** - geodeziyani shaxta, tonnel, metro va boshqa yer osti inshootlarini qurishda yer bag'rida o'lhash ishlarini bajarish bilan shug'ullanadigan soxasidir.

## 1.2. Geodeziyaning mamlakatimiz xalk xujaligi va mudofasidagi axamiyati.

Yerni shakli va kattaligi haqidagi ma'lumotlar insoniyat uchun zarurdir. Bu ma'lumot ESY/ini o'chirish, televidenie, geologiya, radio, geografiya, geofizika uchun zarurdir.

Yer yuzasini o'rganish, o'zlashtirish, xamda yer yuzasini injenyer inshootlarini barpo qilish bilan shug'ullanadigan barcha mutaxassislar uchun topografik karta ko'z bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun undan foydalanishni yaxshi bilish kerak.

Geodezik ishlar sanoat va grajdan qurilishi, yo'l qurilishida ham muhim ahamiyatga ega yangi shaxar va qishloqlarni buniyod etish, axoli yashaydigan punktlarini planlashtirish kabi muxim ishlarni geodezik ishlarsiz va topografik kartalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Har qanday bino, uy va yo'l qurilishining samaradorligi, qurilish narxi, ulardan foydalanish iqtisodiy ko'rsatkichlariga asosan geodezik ishlarning qanchalik aniq bajarilganligiga va geodezik ma'lumotlardan qanchalik to'g'ri foydalanilganligiga bog'liq.

Yangi shaxar va qishloqlarni barpo etish, aholi yashaydigan punktlarni planlashtirish, ularni obodonlashtirish va qayta qurish loyihalarini tuzish kabi muxim masalalarni geodezik ishlarsiz amalga oshirib bo'lmasligi turgan gap.

Geodezik o'lhash ishlari, topografik kartalar va aerofotos'yomka materiallari mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini oshirish vositalaridan biridir.

Topografik karta va aerosuratlardan taktik, strategik masalalarni hal qilishda, hamda boshqa harbiy ishlarda keng foydalaniladi.

Umuman, geodeziya mamlakatimiz xo'jaligini barcha tarmoqlarini rivojlantirishda va mudofaa qibiliyatini oshirishda juda katta axamiyatga ega.

## 1.3. Geodeziyaning rivojlanishining kiskacha ta'rifi.

Geodeziya qadimiy fanlardan birdir. U kishilik jamiyatni hayotiy talablari asosida vujudga kelgan va ishlab chiqarish kuchlarini taraqqiy etishi bilan rivojlnana borgan. Geodeziya fani

Arabiston, Xitoy, Xindiston, O‘rtal Osiyoda taraqqiy etgan. Masalan IX asrning boshlarida arab xalifasi Mamun topshirig‘i bilan Mesopotomiya tekisligida yer sharining kattaligini aniqlash maqsadida gradus o‘lhash ishi olib borilgan. Olimlar yer shari meridianini  $1^{\circ}$  yoy uzunligini 111,8 km ekanligini aniqlaganlar.

1680 yilda I. Nyuton o‘zini dunyo tortilish qonuniga asoslanib, yer - ellipsoid shaklida degan fikrni olg‘a surdi.

XIX asr boshlarida turli mamlakatlarda astronomiya, geodeziya soxasida olib borilgan ishlar yerni shakli ellipsoiddan bir oz farq qilishini ko‘rsatdi. Masalan ulug‘ olim Laplas Fransiya va boshqa davlatlarda olib borilgan gradus o‘lhashlar natijasini analiz qilib, meridian  $1^{\circ}$  sining uzunligi ekvatoridan qutblarga tomon bir xilda kamaymasligini aniqladi. SHunga asoslanib yer o‘ziga xos noaniq shaklga ega ekan, degan xulosaga kelindi. 1873 yilda nemis fizigi I. V. Listing yerning bunday shaklini geoid deb atalishini taklif etdi.

Yerning kattaligini aniqlashda Rossiyada bajarilgan gradus o‘lhashning axamiyati juda katta.

Masalan 1816 yildan boshlab geodezist K. I. Tennyer raxbarligida Rossiyaning g‘arbiy chegarasidagi gubyerniyalarda astronom V. YA. Struve raxbarligida Boltiq bo‘yi gubyerniyalarida gradus o‘lhash ishlari olib borilib, bu ishlar 1850 yilgacha davom etgan va Dunay daryosining quyilish joyidan to Skandinaviya yarim orolining shimoliy qirg‘og‘igacha bo‘lgan  $25^{\circ}20'$  meridian yoyining uzunligi xisoblab chiqarilgan.

Geodeziya fanini nazariy jihatdan rivojlantirishda rus olimlari P. L. CHebo‘shev, A. P. Bolotov, N. YA. Singer, A. A. Tillo va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar.

XIX asr boshida Rossiyada olib borilgan geodezik ishlar natijasida Rossiyanı 10% gina topografik jixatdan o‘rganilgan edi.

Sovet hokimiyyati dastlabki yillaridayoq mamlakatimiz territoriyasini geodezik va topografik jixatdan o‘rganishga katta axamiyat berildi. 1928 yilda mashxur rus geodezisti F. N. Krasovskiy davlat territoriyasida geodezik tayanch shaxobchalarini barpo etish va topografik plan olish ishlarini programmasini tuzib chiqdi.

1933 yilda davlat territoriyasini gravimetrik planini olish ishlari olib borildi. 1945 yilda mamlakatimiz territoriyasini 1:1000000 mashtabli kartalari tuzildi. Aerofotopografik plan olish ishlariga Drobishev, Konshin, Lobanov va boshqa olimlar turli injenerlik inshootlarni barpo etishda geodezik ishlarini bajarish metodlarini yaratishga olimlar N.G.Viduev, G.F.Glotov, N.N.Lebedev va boshqalar katta hissa qo‘shdilar.


Sovet hokimiyyati davrida yangidan-yangi, mukammal optik va avtomatik asboblar, aerofotos‘yomka apparatlari, fotogrammetrik asboblar, hamda svetodalnomer, radiodalnomer, lazerodalnomerlar yaratildi va o‘zlashtirildi.

Kartografiya soxasida ham katta yutuqlarga erishildi va yirik kartografik asarlar yaratildi.

Geodeziya fani xalq manfaatini ko‘zlab, xalq xo‘jaligini rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

#### **1.4. Yerning shakli va o‘lchamlari to‘g‘risida tushuncha.**

Yerning shakli juda murakkab va o‘ziga xos xususiyatga ega. Yerning tabiiy yuzasi balandlik va chuqurlik, tog‘lik va tekislik, tizma tog‘ va vodiylardan iborat. Yerning tabiiy shaklini aniqlash juda qiyin. Yerning shakli deganda, uning tabiiy shakli e’tiborga olinmaydi, faqat uni matematik shakli tushuniladi. Ana shu matematik shakllardan yerning tabiiy shakliga eng yaqini geoiddir.



SHakl 1.4.1

*Geoid* - okean suvi tinch turgan paytda satxi bo'yicha okeanni quruq ostidan satxiy yuza o'tkazilganda hosil bo'ladigan yumaloq shakldir. Yer yuzasidagi har bir nuqtadan satxiy yuza o'tkazish mumkin. Satxiy yuza o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning barcha nuqtalarida shovun chizig'i perpendikulyar yo'nalgan bo'ladi. Bu shakl yer shakli deb qabul qilingan. Yerning shakli deyilganda quruqlidagi past-balandoqliklar e'tiborga olinmaydi. CHunki yer yuzining ko'p qismi 71% okean va dengiz, oz qismi 29% quruqlilik tashkil etadi. Yerni geoid shakli tortish kuchi ta'siriga, tortish kuchi esa yer bag'ridagi jinslarni joylanishi va zichligiga bog'liq. Yerning ichki tuzilishi bir xil bo'lsa, yer yuzasi silliq bo'lardi. Yerning ichki qismi har xil jinslardan tashkil topganligi uchun *geoid yuzasi to 'lginsimon* bo'ladi.

Hozirgacha geoid shakli matematik formula bilan ifodalangan emas. Lyokin olib borilgan geodezik ishlardan geoidni aylanma ellipsoidga yaqinligini ko'rsatdi. Geoid bilan ellipsoidni bir-biridan farqi (yer yuzining ba'zi nuqtalarida) 150 m dan oshmaydi. Bu farq yerning umumiy kattaligiga nisbatan juda kichikdir. SHuning uchun geodeziyada yer shakli aylanma ellipsoid shaklida deb qabul qilingan. Yer ellipsoidini o'lchamlari quyidagicha:


$$l = \frac{a \times b}{Q}, \text{ bu yerda}$$

a - katta yoki ekvatorial yarim o'q (radius).

b - kichik yoki qutbiy radius

l - qutblar ortiqligi.

Yer ellipsoidi kichik va katta radiuslari bir-biridan farqi juda kichikdir. SHuning uchun katta aniqlik talab qilinmaydigan geodezik va kartografik ishlarda yer shar shaklida deb qabul qilingan.



SHakl 1.4.2.

Yer sharini kattaligini aniqlash bilan juda qadimdan shug'ullanganlar. Eramizdan avval yashagan Pifagor asarlarida yer shar shaklida bo'lsa kerak degan fikrni uchratish mumkin. Aristotel asarlarida esa yerni shar shaklida ekanligi haqida dalillar keltirilgan. Yerni kattaligini aniqlash metodini eramizdan oldingi Eetrosfyer asarlarida uchratish mumkin. Yer shari kattaligini aniqlashni geodezik metodi *gradus o'lhash metodidir*.

$$R = \frac{360^\circ}{2\pi} S, \text{ } S - \text{meridianni } 1^\circ \text{ yoyi uzunligi}$$

$$S = \frac{D}{\Delta\varphi}, \text{ } R - \text{meridian aylanmasining radiusi.}$$

Gradus o'lhash metodi ikki qismdan:

1. Meridianda joylashgan 2 nuqtani oralig'idagi masofani geodezik usulda o'lhash.
2. SHu nuqtalarni geografik kengligini o'lhash natijasida 2 nuqta orasidagi joyni grafik nuqtasini o'lhashdan iborat.

Yer ellipsoidini elementlari gradus o'lhash natijalariga asoslanib hisoblab chiqariladi. Fransuz olimi Delambyer (1800 y) hisoblab chiqargan yer ellipsoidi hozir faqat tarixiy ahamiyatga ega.

MDHda 1946 yilgacha geodezik ishlarda nemis astronomi F. V. Bessel (1841 y) hisoblab chiqargan yer ellipsoidi elementlaridan foydalanilar edi. Keyingi yillarda Rossiya olimi Bessel ellipsoidi MDH territoriyasida geoid shakldan ancha farq qilishini aniqlashdi.

Amerikalik olim Xeyford yer ellipsoidini elementlarini hisoblashda AQSHda o'tkazilgan gradus o'lhash natijasiga asoslandi. 1924 yilda Xalqaro geodeziya va geofizika jamiyatasi bu ellipsoidni xalqaro ellipsoid deb qabul qilishni taklif etdi.

1940 yilda Krasovskiy yer ellipsoidini elementlarini hisoblab chiqdi. Bu ellipsoidga *Krasovskiy referens-ellipsoidi* deb nom berildi. Krasovskiy ellipsoidi yerni haqiqiy shakli geoidga yaqin.

1946 yildan MDHda hamma geodezik ishlar uchun katta yarim o'qi  $a = 6378245$  m, kichik yarim o'qi  $b = 6356863$  m va yer ellipsoidi *qutblari siqiqligi*: 1:298,3 bo'lgan F.krasovskiy ellipsoidi qabul qilingan. Yer shakli radiusi 6371,11 km bo'lgan shar sirtiga teng deb olinadi.

## 1.5. Geoedziyada proeksiyalash usullari.

Yerning tabiiy yuzasi juda murakkab bo'lganligidan, geodezik o'lhash natijalarini matematik jixatdan qayta ishslashda ular ma'lum metoddaga ellipsoid yuziga proeksiyalanadi.

Yer yuzidagi nuqtalar shartli qabul qilingan ellipsoid yuziga shovun chiziqlar yordamida proeksiyalanadi. Yer yuzidagi biror nuqtaning planli koordinatasi deyilganda , bu nuqtaning Yer yuzidagi o‘rni emas , balki Yer ellipsoidi yuzidagi o‘rni tushuniladi. Yer ellipsoidining ma’lum qismini yassi qabul qilish mumkin. Bunda Yerning sferikligi e’tiborga olinmay, joydagi konturlar tik chiziqlar vositasida tekislik deb qabul qilingan satxiy yuzaga tushuriladi. Demak , Yerning tabiiy yuzasi kattaligiga qarab, ellipsoid yuziga yoki tekislikka proeksiyalanadi. SHunga qo‘ra Yer yuzidagi nuqtalarning bir biriga nisbatan o‘rni ellipsoid yuzida yoki tekislikda aniqlanadi. Nuqtaning ellipsoid yuzidagi yoki tekislikdagi o‘rnini aniqlash uchun ma’lum koordinata sistemalari qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqda eng aniq geodezik o‘lchashlarda ham 10 – 20 km masofa 1/1000000 xatolik bilan aniqlanadi. SHunga ko‘ra Yer sferik yuzasining 20 x 20 km kattalidagi qismini tekislik deb qabul qilish mumkin.

### **1.6. Geografik, to‘g‘ri burchakli va qutbiy koordinatalar to‘g‘risida tushuncha.**

Biror nuqtani, boshlang‘ich deb qabul qilingan nuqtaga nisbatan joylashgan o‘rnini ifodalovchi miqdorlar shu nuqtani koordinatasi deyiladi. Fan va texnikani turli sohalarida xilma-xil koordinata sistemalaridan foydalaniladi. Geodeziyada asosan geografik koordinata, to‘g‘ri burchakli koordinata, qutbiy koordinata sistemasidan foydalaniladi.

#### **1.6.1. Geografik koordinatalar.**

Geografik koordinata sistemasida yer yuzidagi nuqtaning o‘rni uning geografik kengligi va uzoqligi bilan aniqlanadi.

Yer yuzidagi nuqtaning geografik koordinatalari aniqlash usuliga qarab astronomik va geodezik koordinatalarga bo‘linadi.

#### **1.6.2. Geodezik koordinatalar.**

Geodezik koordinata sistemasida biron nuqtaning o‘rnini aniqlashda asosiy koordinata yuzasi qilib referens-ellipsoid yuzasi, asosiy koordinata chiziqlari sifatida esa geodezik meridian va parallellar qabul qilinadi. Yer yuzidagi biron nuqtaning o‘rnini aniqlashda shu nuqtadan o‘tkazilgan meridian va parallelning kesishgan nuqtasidan foydalilaniladi. Biron nuqtadan o‘tkazilgan meridian shu nuqtaning geodezik **uzunligi**, paralllel esa **kenglikni** bildiradi.


Yer ellipsoidining kichik o‘qi orqali bo‘ylamasiga o‘tkazilgan kesma - **meridian tekislik**, bu tekislikning ellipsoid yuzasi bilan kesishishidan hosil bo‘lgan chiziq esa **geodezik meridian** deyiladi. Yer ellipsoidining biror nuqtasidan uning o‘qiga  $\perp$  o‘tkazilgan kesma **parallel tekislik**, bu tekislikning ellipsoid yuzasi bilan kesishishdan hosil bo‘lgan chiziq **parallel** deb ataladi.

Yer ellipsoidi markazidan o‘tkazilgan parallel kesma **ekvator tekisligi**.

M nuqtaning geodezik **kengligi**V va ekvatordan qutblari tomon  $0^\circ$  dan  $90^\circ$  gachahisoblanadi, nuqta ekvatordan shimolda bo‘lsa, uning geodezik kengligi **himo-liy kenglik (+)**, janubda bo‘lsa **janubiy kenglik (-)** deb ataladi.**Geodezik uzun -lik** Lbilan belgilangan, geodezik meridian bilan bosh meridian orasidagi burchak geodezik uzunlik bosh meridiandan boshlab g‘arbg(+ ) va sharqqa (-) tomon  $0^\circ$  dan  $180^\circ$  gacha o‘lchanadi.

#### **1.6.3. Astronomik koordinatalar.**

Yer yuzidagi nuqtalarning astronomik koordinatalarini aniqlashda asosiy yuza qilib geoid, koordinata chiziqlari qilib esa astronomik meridian va parallellar qabul qilinadi. Berilgan nuqtaning astronomik meridiani deganda, yerning aylanish o‘qiga parallel qilib o‘tkazilgan tekislikning mazkur nuqtadan tushirilgan shovun chizig‘i yo‘nalishida yer yuzasi bilan kesishishdan hosil bo‘lgan chiziq tushuniladi.




SHakl 1.6.1.

Yer yuzidagi biror nuqtaning astronomik meridiani bilan boshlangich deb qabul qilingan Grinvich meridiani tekisliklari orasida hosil bo'lgan burchak shu nuqtaning **astronomik uzunligi** deyilib  $\lambda$  bilan belgilanadi. Yer yuzidagi biror nuqtadan tushirilgan shovun chizig'i bilan ekvator tekisligi orasida hosil bo'lgan burchak shu nuqtaning astronomik kengligi bo'lib  $\varphi$  bilan belgilanadi.

Geodezik va astronomik koordinatalar sistemalari bitta umumiy nom bilan **geografik koordinata** deb yuritiladi. Bunda nuqta koordinatasi astronomik usulda aniqlangan deb faraz qilinadi. Geografik koordinatani afzalligi yer yuzidagi barcha nuqtalarning o'rni yagona sistemada aniqlanishidadir.

2. Gauss-Kryugyerning to'g'ri burchakli koordinata sistemasi katta terri-toriya uchun to'g'ri burchakli koordinatalarning zonal sistemasidan foydalilanadi. Bunda yer shari Grinvich meridianidan boshlab  $6^{\circ}$  li 60 meridional zonalarga bo'linadi. Har bir zona o'rtasida o'tgan meridian shu zonaning o'q meridiani bo'ladi.




SHakl 1.6.2.

Zonalar nomeri Grinvich meridianidan boshlab g'arbdan sharqqa tomon hisoblanadi. MDH territoriyasiga bu zonalarning 29 tasi (4 dan 32) to‘g‘ri keladi. Yer sharini tekislikda yaxlit tasvirlab bo‘limganligidan har bir meridional zona alohida-alohida silindr ichiga joylashtirilib, har zonaning o‘q meridiani silindrning ichki yuzasiga tegib turadi, deb faraz qilamiz. So‘ngra har bir zonadagi meridian va parallellar silindrning ichki yuzasiga proeksiyalanadi, biroq bunda burchaklar o‘zgarmasligi, ya’ni burchaklarning qiymati ularning silindr ichki yuzasiga proeksiyalanish qiymatiga teng bo‘lishi shart.

X - absissa o‘qi : Y - ordinata o‘qi: A<sub>1</sub> - nuqtaning koordinatalari X<sub>A</sub> va Y<sub>A</sub>

Meridian va parallellar proeksiyalangan silindrni biron yasovchi bo‘yicha qirqib, so‘ngra yoysak, har bir zonaning o‘q meridiani va ekvator bo‘lagi to‘g‘ri chiziq tarzida, boshqa barcha meridian va parallellar esa egri chiziq tarzida tasvirlanadi.




SHakl 1.6.3.

SHu hosil bo‘lgan proeksiya Gauss proeksiyasi deb yuritiladi.

#### 1.6.4. To‘g‘ri burchakli yassi koordinata.

Kichik territoriyalarning planini olishda va katta aniqlik talab qilinmaydigan hisoblarda to‘g‘ri burchakli yassi koordinata hamda qutbiy koordinata sistemalaridan foydalilanadi.



SHakl 1.6.4.

To‘g‘ri burchakli yassi koordinata sistemasida nuqtalarning bir-biriga nisbatan o‘rni o‘zaro perpendikulyar ikki chiziqning kesishgan nuqtasiga nisbatan aniqlanadi. O‘zaro perpendikulyar ikki chiziqcha koordinata o‘qlari, ularning kesishgan nuqtasiga esa koordinata boshi deyiladi. Bu koordinata sistemasi Dekart to‘g‘ri burchakli yassi koordinata sistemasi deyiladi.


Bu sistemada vertikal chiziq - ordinata (u), gorizontal chiziq - absissa (x). Geodeziyada esa aksincha vertikal chiziq - absissa **X**, gorizontal chiziq - ordinata **U** deb qabul qilingan. O - koordinata boshi, **x** - o‘qi absissa shimolga yo‘nalgan; **y** - o‘qi ordinata sharqqa yo‘nalgan (chizmaga qarang).

### 1.6.5.Qutbiy va qo'sh qutbli koordinatalar.

#### 1.6.5a. Qutbiy koordinata.

Agar to'g'ri burchakli koordinata sistemasidagi o'zaro perpendikulyar x va y o'qlar o'rniga faqat x o'qi va koordinata boshlanish nuqtasi O olinsa, qutbiy koordinata sistemasi hosil bo'ladi.

Biror S nuqtanining qutbiy nuqtaga nisbatan o'rnini aniqlash uchun bu nuqtani, qutbiy nuqta bilan tutashtiruvchi chiziqning uzunligi OS va qutbiy o'q OX bilan OS chiziq orasidagi burchak  $\alpha$  o'lchanadi




SHakl 1.6.5.

OS - chiziq radius vektori;  $\alpha$  - orientirlash burchagi.

#### 1.6.5b. Qo'sh qutbiy koordinata.

Qo'sh qutbiy koordinatada biror S nuqtanining A va V nuqtalarga nisbatan o'rni qutbiy nuqtalar A va V o'rni aniqlanayotgan nuqtagacha bo'lgan chiziqlar AS va VS uzunligi  $d_1$ ,  $d_2$  yoki AV chiziq bilan AS va VS orasidagi burchaklar  $\beta_1$ ,  $\beta_2$  qiymatlari yordamida aniqlanadi. Bundan tashqari S nuqtanining o'rmini AS va VS chiziqlar yo'naliشining orientirlash burchaklari  $\alpha_1$ ,  $\alpha_2$  bilan ham aniqlash mumkin.



SHakl 1.6.6.

### 1.7.Yer yuzaisdagi nuqtalarning absolyut va nisbiy balandliklari.


Geodezik balandlik deganda, Yerning tabiiy yuzidagi biror nuqtanining Yer ellipsoidi yuzasidan balandligi tushuniladi. Xaqiqatda nuqta Yer ellipsoidi yuzida emas, balki Yerning tabiiy yuzida joylashgan bo'ladi. SHunga ko'ra nuqtanining Yer yuzidagi o'rnnini aniqlashda uning ellipsoid yuzidan balandligi e'tiborga olinadi.

Yer yuzidagi nuqtanining (1.7.1 -shaklda M nuqta) geodezik balandligi ( $N_g$ ) bu nuqtadan ellipsoid yuzasigacha bulgan normal ( $M_m$ ) uzunligiga teng. Lekin shuni aytish kerakki, Yer yuzidagi nuqtanining balandligini aniqlashda ellipsoid yuzasi emas, balki geoid yuza boshlanhich deb qabul qilinadi. Geoid yuza dengiz satg'i deb ham yuritiladi. Yer yuzidagi nuqtanining balandligi dengiz sathiga nisbatan geodezik o'lhash (nivelerlash) yo'li bilan aniqlanadi.


Nuqtanining dengiz sathiga nisbatan balandligi absolyut balandlik bo'lib, N bilan belgilanadi. Yer yuzidagi har bir nuqtanining absolyut balandligi shu nuqtadan dengiz sathigacha bo'lgan shovun chizig'ining uzunligiga teng. Masalan, A nuqtanining absolyut balandligi  $N_A$  chizik bilan, V

nuqtaniki esa Nv chiziq uzunligi bilan ifodalangan (1.7.1- shaklga qaralsin). Odatda har bir mamlakat territoriyasidagi nuqtalarning absolyut balandligi shu mamlakat territoriyasida joylashgan biron-bir dengiz sathiga nisbatan aniklanadi. Masalan, MDX davlatlarida nuqtalarning absolyut balandligi Kronshtadt (Baltika dengizi) futshtogining noliga nisbatan hisoblanadi. Kronshtadt futshtogi—Kronshtadt aylanma kanalidagi

ko‘prikiig granit ustuniga mahkamlangan mis reykadir. Bu reykaga Fin qo‘ltig‘i suvining ko‘p yillar davomida kuzatish natijasida aniqlangan o‘rtacha sathi chizilgan. Ana shu chiziqa Kronshtadt futshtogi noli deyiladi. U nuqtaning balandligini boshlang‘ich deb qabul qilingan Baltika dengizi sathiga nisbatan aniqlashning iloji bo‘lмаган joylarda biror nuqta boshlang‘ich deb qabul qilinib, shu nuqtaning balandligi shartli balandlik hisoblanadi. Yer yuzidagi nuktalarning absolyut balandliklari o‘rtasidagi farq nisbiy balandlik deyilib, h bilan belgilanadi. Nuqta absolyut balandligining raqam bilan ifodalangan miqdori shu nuqtaning otmetkasi deyiladi. Nuqtaning geodezik balandligini aniqlashdageoid bilan ellipsoid yuzalari o‘rtasidagi farqni e’tiborga olish zarur. *Balandlik anomaliyasi* deb ataluvchi bu farqe bilan belgilanadi (1.7.1 -shakl). Balandlik anomaliyasi astronomik-gravimetrik nivelirlash natijasida topilib, undan geoid (kvazigeoid) shaklini aniqlashda foydalilanadi. Kichik territoriyada bajariladigan injenerlik-geodezik ishlarda geoid bilan ellipsoid yuzalari bir-biriga to‘g‘ri keladi deb qabul qilinadi.



SHakl 1.7.1



SHakl 1.7.2.

### 1.8. Yerning egriligini gorizontal va vertikal masofalarni aniqlashga ta’siri.

Yerning tabiiy yuzasi juda murrakkab bo‘lganligidan, geodezik o‘lchash natijalarini matematik jihatdan qayta ishlashtida ular ma’lum metodda ellipsoid yuziga proeksiyalanadi.

Yer sirtini o‘rganishda uning hamma nuqtalari oldindan qabul qilingan yagona geoid sirtidan deyarli farq qilmaydigan ellipsoid sirtiga normal bo‘l-gan chiziqlap bilan loyihalanishi va Yer tabiiy sirtining har bir nuqtasi yoki konturiga loyihalanash sirtida nuqta yoki kontur mos kelishi ko‘rsatilgan edi.

Endi Yer tabiiy sirtining qanday o‘lchamdagи uchastkasini ellipsoid sirtiga va gorizontal tekislikka proeksiyalaganda uni gorizontal deb qarash mumkin degan masala kelib chiqadi.

Bu masalani echish uchun 1.7.2- shakldagi AV -Schiziq markazi  $O$  nuqtada, ra-diusi  $R_g$  teng bo‘lgan Yer shari sirtining bir qismi bo‘lsin. AV yoyga  $A$  nuqta-dan o‘tgadigan  $AV_1$  urinmani  $OV$  radiusning davomi bilan kesishirib,  $V_1$  nuq-tani topamiz.  $AV_1$  yoyni uning  $V_{nuqtadagiurinmasi}$   $AV_1$  bilan almashtirishdan kelib chiqadigan fark

$$\Delta S = d - S_{VA} \quad \Delta h = VS - B_1 C.$$

$AV$  sfera sirti kesimini unga urinma  $AV_1$  bilan almashtirish mutlaq xato-ligiga teng bo‘ladi.  $d = R_{tg\alpha}$ ,  $S = R_{tg\alpha}$  bo‘lganligi va  $\alpha$  radianda ifodalangani uchun ularning qiymatini  $S = d - S$  formulaga qo‘ysak,  $\Delta S = R_{tg\alpha} - d$  bu erda tg $\alpha$  qatorga yoyib va  $\alpha$  ning kichikligi sababli yoyilmaningikki hadi bilan cheklanib, hosil bo‘lgan tg $\alpha$  -  $d + \frac{d^3}{3} + \dots$  ifodani oldingi  $\Delta S = R_{tg\alpha} - d$  formulaga qo‘yib, ayrim o‘zgartirishdan so‘ng  $\Delta S = \frac{R_{tg\alpha}^3}{3}$  ga ega bo‘lamiz va bu formulaga  $\alpha = d/R$  qiymati qo‘yilganda esa  $\Delta S = \frac{d^3}{3} R^2$

Bu erda  $R$ — Yer radiusi

Jadval 1.8.1.

S,km	$\Delta S = d - S, \text{ sm}$	$\Delta S/S$	d, km	$\Delta S = d - S, \text{ sm}$	$\Delta S/S$
10	1	1:1000000	50	103	1:49000
25	13	1:192000	100	820	1:12000

Yuqoridagi jadvaldan joy chiziqlarini eng yuqori aniqlikda o'lhash nisbiy xatoligi chyoki 1:1 000000 dan kam bo'lganligi uchun radiusi 10 km gacha bo'lgan uning uchastkalarida sferik sirtni tekislik bilan almashtirishdan kelib chiqadigan xatolik amaliy ahamiyatga ega bo'lmasligiga ishonch hosil qilish mumkin. SHu sababli bunday kattalikdagi maydonda ellipsoid sirti tekislikka shovun chizigiga perpendikulyar qilib proeksiyalanib, joy plani tuziladi. Ulhashlar aniqligi kamroq bo'lganda sferik sirt radiusini kattaroqqilib olish mumkin.

*Yer egrilagini uning nuqtalari balandliklariga ta'sirini hisoblash* formulasini keltirib chiqarish uchun Yer sathiy sirtining katta bo'limgan AV uchastkasini unga urinma bulgan AB, bilan almashtirilsa, V nuqta V<sub>1</sub> nuqtagacha siljiydi va uning balandligi  $\Delta h$  miqdorga o'zgaradi (1.8.1-shakl)  $\Delta h$  miqdor Yer egriliginin nuqtalar balandliklariga ta'sirini ifodalaydi, shu sababli *Yer egriliği uchun uni tuzatma deyiladi*. Buning miqdorini joydagি ssferik sirtga va unga urinma dtekislikka nisbatan ko'yidagicha aniqlash mumkin. Urinma va vatar orasidagi VAV<sub>1</sub> burchak 1/2α. Uning kichikligi uchun  $\Delta h$  ni S radiusli yoy deb qarash mumkin, ya'ni  $\Delta h = S/2\alpha$ , α ni – S/R bilan almashtirsak,  $\Delta h = S^2/2R + \Delta h$  ga ega bo'lamiz.  $\Delta h$  miqdor Rga nisbatan juda kichik bo'lgani uchun o'ng qismdan uni tashlab yuborish mumkin. U holda:

$\Delta h = S^2/2R$  bo'ladi, bu formuladagi Sga har xil qiymatlar berilsa, Δhning 1.8.2-jadnalda keltirilgan qiymatlarini hosil qilamiz:

Agar S = 1 km va R=6371 km bulsa  $k = 78,5$  mm, S = 100 m bulganda esa k = 0,8 mm. Yer belgilarini 1 mm gacha aniqlikda bilish zarur. SHu sababli kiska 50—100 m masofa- larda ham Yer egrilagini nuqtalar balandliklariga ta'siri bo'lishini va uni hisobga olishni bilish zarur.

Jadval 1.8.2.

Masofa S,m	100	1000	2000	3000	5000	10000
$\Delta h = k, \text{ sm}$	0,08	7,8	31	71	105	780

### 1.9.S'yomka va nivelerlash.

Biror joyning kartasi, plani va profilini tuzish uchun bajariladigan ishlar yig'indisi plan olish (s'yomka) deyiladi.

Planlar ( s'yomka) nima maqsadda, qanday usulda, qanday asboblar yordamida olinganligiga va boshqa xususiyatlariga qarab xilma – xil bo'ladi. Olinish maqsadiga qarab , planlar konturli, balandlik va topografik planlarga bo'linadi.

Plan ( s'yomka) da joyidagi tafsilotlar konturi tasvirlanadigan bo'lsa, bunga konturli plan olish deyiladi. Konturli plan olishda joydagи chiziqlarning yo'naliishlari orasidagi gorizontal burchaklar o'lchanadi; buning uchun burchak o'lchanadigan asbob – teodolit ishlatilsa , bu usulga teodolit bilan s'yomka qilish deyiladi.

Planda joyning relefi tasvirlanadigan bo'lsa, bunga vertikal plan olish yoki nivelerlash deyiladi. Niverillash natijasida yer yuzidagi nuqtalarning nisbiy va absolyut balandliklari aniqlanadi yoki joyning profili hamda relefi gorizontallar bilan tasvirlangan s'yomka hosil bo'ladi. Nivelerlash qanday metoddha bajaganligiga va ishlatilgan asboblarning xiliga qarab geometrik, trigonometrik, fizik, mexanik va boshqa turdagи nivelerlashlarga bo'linadi.

### Nazorat savollari:

1. Geodeziya fanini asosiy vazifalari;
2. Geodeziya fanni ilmiy vazifalari;
3. Geodeziyani tarmoqlarga bo‘linishi;
4. Geodeziyani boshqa fanlar bilan bog‘liqligi;
5. Geodeziyani qurilishdagi axamiyati.
6. Geoid nima?
7. Geoid bilan aylanma ellipsoid farqi?
8. Meridianni 1 gradus yoyi uzunligini aniqlash?
9. Yerning siqiligi, radiusi qiymatlari?
10. Geodezik meridian - ?
11. Bosh meridian?
12. Shimoliy kenglik?
13. Janubiy kenglik?
14. Astronomik kenglik, astronomik uzunlik?

### Adabiyotlar:

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O‘qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O‘quv qo‘llanma Samarkand. SamDAQI, 2006
4. Qo‘ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O‘qituvchi,1975 y.
5. Internetdan olingan ma’lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

## M A ‘ R U Z A №2 JOYLARDAGI CHIZIQLARNI ORIENTIRLASH. REJA:

1. Orientirlash haqida tushuncha.
2. Orientirlash burchaklari.
3. Azimutlar, direksion burchaklar va rumblar.
4. Xaqiqiy va magnit azimutlar orasidagi bog‘liklik.
5. To‘g‘ri va teskari azimutlar, direksion burchak va poligonning ichki burchaklari orasidagi bog‘liklik.


*Tayanch so‘zlar:chiziqni orientirlash, geografik meridian, haqiqiy azimut, magnit meridian , direksionburchak, magnit strelkasining og‘ish, meridianlar yaqinlashish, Rumb, Magnit strelkasining og‘ish burchagi.*

#### **2.1. Orientirlash haqida tushuncha.**

Joydagи biror chiziqning boshlang‘ich deb qabul qilingan chiziqqa nisbatan yo‘nalishini aniqlash - shu chiziqni orientirlash deyiladi (2.1.1 – shakl).

Har qanday chiziqning yo‘nalishi, shu chiziq bilan boshlang‘ich yo‘nalish deb qabul qilingan chiziq orasida hosil bo‘lgan burchak yordamida aniqlanadi.

Bu burchak orientirlash burchagi deb ataladi. Masalan: OX - boshlang‘ich yo‘nalish. OS chizig‘ining OX ga nisbatan yo‘nalishi α orientirlash burchagi yordamida aniqlanadi.




SHakl 2.1.1.

## 2.2. Orientirlash burchaklari.

Joydagi biror chiziq yo‘nalishini aniqlashda boshlang‘ich yo‘nalish deb **geografik meridian** qabul qilinsa, ular orasidagi orientirlash burchagiga - **haqiqiy azimut**, **magnit meridian** qabul qilinsa - **magnit azimut** o‘q yoki unga parallel bo‘lgan chiziq qabul qilinsa **direksionburchak** deyiladi(2.2.1.- shakl).

Haqiqiy azimut, magnit azimut va direksion burchak boshlang‘ich yo‘nalishning shimol tomonidan boshlab soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha  $0^\circ$  dan  $360^\circ$  gacha o‘lchanadi.



Shakl 2.2.1


$A_m$  - OS chizig‘i magnit azimuti.

$A$  - OS chizig‘ining haqiqiy azimuti.

$\alpha$  - OS chizig‘ining direksion burchagi.

Haqiqiy azimut bilan magnit azimut bir-biridan  $\delta$  ga farq qiladi. - Bu burchak **magnit strelkasining og‘ish** burchagi deyiladi(2.2.1.– shakl).

Haqiqiy azimut bilan direksion burchak bir-biridan  $\gamma$  burchakka farq qiladi. Bu burchak - **meridianlar yaqinlashish** burchagi deyiladi (2.2.2.– shakl).



SHakl 2.2.2.

### 2.3. Azimutlar, direksion burchaklar varumblari.

**Rumb** - boshlang'ich yo'nalishning shimoliy va janubiy tomoni bilan, chiziq yo'nalishi orasidagi burchakdir. Rumb  $0^\circ$  dan  $90^\circ$  gacha o'zgaradi.

Rumb burchakni qiymatini oldiga koordinata choragini nomi yoziladi. SHSHq, SHG $'$ , JSHq, JG $'$

Yer yuzidagi har bir chiziqning to'g'ri va teskari orientirlash burchagi bo'ladi.

MN chiziqning M nuqtadan boshlangan yo'nalishi direksion burchagi -  $\alpha$  - to'g'ri direksion burchak

N nuqtadan boshlangan yo'nalishning direksion burchagi  $\alpha'$  - teskari direksion burchak

To'g'ri direksion burchak bilan teskari direksion burchak bir-biridan  $180^\circ$  ga farq qiladi.  $\alpha' = \alpha \pm 180^\circ$ .

Xuddi shunday rumb burchaklari ham to'g'ri va teskari bo'ladi;  $r$  - to'g'ri rumb burchak;  $r'$  - teskari rumb burchak;  $r$  va  $r'$  larni qiymatlari teng, faqat nomlari o'zgaradi - SHSHq - JG $'$  bo'ladi. JG $'$  - SHSHq - bo'ladi

### 2.4. Meridianlar yaqinlashish burchagi.

Agar A va V nuqtalardan o'q meridianiga parallel chiziqlar o'tkazsak  $+\gamma$  va  $-\gamma$  burchaklar hosil bo'ladi. Bu burchaklar meridianlar yaqinlashish burchaklari bo'ladi(2.4.1.- shakl).

Geografik meridian bilan o'q meridianiga parallel bo'lgan chiziq orasidagi burchakka meridianlar yaqinlashish burchagi deyiladi.

$$\underline{\underline{\gamma = \Delta\lambda \times \sin \varphi}}$$


$\Delta\lambda$  - o'q meridian bilan berilgan nuqta meridiani geografik uzunliklarining ayirmasi.

$\varphi$  - berilgan nuqtaning geografik kengligi.


Absissa o'qi - meridianlar sharq tomonidan o'tsa - meridianlar yaqinlashishi burchagi sharqiy bo'ladi, ishorasi (+) bo'ladi;

Absisa o'qi meridiannining g'arb tomonidan o'tsa - g'arbiy bo'ladi va ishorasi (-) bo'ladi.

*Haqiqiy azimut bilan direksion burchak orasidagi munosabat.* Yo'nalishning haqiqiy azimutni va shu joydagi meridianlar yaqinlashish burchagi ma'lum bo'lganda uning direksion burchagini, direksion burchagi va meridianlar yaqinlashish burchagi ma'lum bo'lganda esa, haqiqiy azimutni aniqlash qo'ydag'i formulalar bilan aniqlanadi (2.4.1. – shakl).  $\alpha = A - \gamma_{shq}$ . va  $A = \alpha + \gamma_{shq}$ .




SHakl 2.4.1



SHakl 2.4.2.

Burchak  $\gamma$  - meridianlar yaqinlashish burchagi;  $A = \alpha - \gamma$ ,  $A = \alpha + \gamma$

*Magnit strelkasining og'ish burchagi.* Geografik qutublar bilan magnit qutublari bir nuqtada joylashmaganligidan geografik meridian bilan magnit meridianni orasida qandaydir burchak hosil bo'ladi. Bu burchak magnit strelkasining og'ish burchagi deyiladi (2.4.3. – shakl).



SHakl 2.4.3.

$A$  - Os chizig'inining haqiqiy azimuti.

$A_m$  - OS chizig'inining magnit azimuti.

$\delta$  - magnit strelkasining og'ish burchagi bo'ladi.

Magnit meridian geografik meridiandan sharqga og'sa - sharqiy deyiladi va ishorasi (+) bo'ladi.

Magnit meridian geografik meridiandan g'arbga og'sa - g'arbiy bo'ladi ishorasi (-);

sharqqa og'sa  $A = A_m + \delta$ ;

g'arbga og'sa  $A = A_m - \delta$

## 2.5. Direksion burchak bilan rumb orasidagi munosabat

Yo'nalişning direksion burchagi ma'lum bo'lganda rumbini, rumbi ma'lum bo'lganda esa direksion burchagini topish mumkin. Masalan 2.5.1. shaklda direksion burchak bilan rumbning biriga munosabati berilgan; yo'nalişlarning direksion burchaklari ma'lum bo'lganda bu shakldan foydalanib rumbni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin

I chorakda SHSHq  $r = \alpha$

II chorakda JSHq  $r = 180^\circ - \alpha$

III chorakda JG'  $r = \alpha - 180^\circ$

IV chorakda SHG'  $r = 360^\circ - \alpha$


Yo'nalishlarning rumbi ma'lum bo'lsa, direksion burchakni quyidagi formulalarda aniqlash mumkin:

I chorakda SHSHq  $\alpha = r$

II chorakda JSHq  $\alpha = 180^\circ - r$

III chorakda JG'  $\alpha = 180^\circ + r$

IV chorakda SHG'  $\alpha = 360^\circ - r$



SHakl 2.5.1.

Yo'nalishning azimuti ma'lum bo'lganda uning rumbini, rumbi ma'lum bo'lganda esa azimutini shu formulalar yordamida aniqlash mumkin. Bunda formulalardagi direksion burchak ( $\alpha$ ) o'rniiga azimut (A) qo'yiladi, xolos.

#### Nazorat savollari:

1. Meridianlar yakinlashish burchagini kiymatini aniqlash formularsi.
2. Magnit strelkasini og'ish burchagini kiymatini aniklash.
3. Azimut, rumb, direksion burchak qiymat o'zgarishi
4. Direksion burchak bilan rumb orasidagi munosabat.

#### Adabiyotlar:

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamDAQI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi, 1975 y.
5. Internetdan olingan ma'lumotlar www.colibri.ru, bolshe.ru.  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

**M A ‘ R U Z A №3**  
**O‘LCHASH XATOLAR NAZARIYASINING ELEMENTLARI.**  
**REJA**

- 1.O‘lhash xatolarining tasnifi
2. Tasodify xatolarning xususiyati.
3. Arifmetik o‘rta. O‘rta kvadratik xato. CHekli va nisbiy xato.
4. O‘lchangan miqdorlar funksiyasining o‘rta kvadratik xatosi.
5. Teng aniq bo‘lmajan o‘lhashlar to‘g‘risida tushuncha.

**Tayanch so‘zlar:** Bevosita, bavosita, qo‘pol xato, sistematik xato, tasodify xato, o‘rtacha xato, o‘rtacha kvadratik xato, chekli xato, nisbiy xato.

### **3.1.O‘lhash xatolarining tasnifi.**

Geodezik ishlarning asosiy qismi o‘lhashlardan iborat. Geodezik o‘lhash bevosita va bilvosita o‘lhashlarga bo‘linadi.

**Bevosita** o‘lhashda o‘lchov birligi hisoblanuvchi asbob o‘lchanayotgan ob’ektga taqqoslanadi. Masalan: joyda masofani po‘lat lenta bilan, burchakni teodolit bilan o‘lhash, qog‘ozda esa masofani chizg‘ich bilan, burchakni transportir bilan o‘lhash bevosita o‘lhash bilan hisoblanadi.

**Bavosita** o‘lhashda ob’ekt bevosta o‘lchanmasdan, uning kattaligi boshqa o‘lhash natijalaridan foydalanib aniqlanadi. Masalan, borib bo‘lmaydigan masofani aniqlash uchun uchburchakning bir tomoni va ikkita gorizontal burchak o‘lchanadi. So‘ngra masofa bevosita o‘lhash natijalaridan foydalanib sinuslar teoremasiga muvofiq hisoblab chiqariladi.

Geodezik o‘lhashlarni teng aniqlikda yoki teng emas aniqlikda bajarish mumkin. Bir xil malakali ishchilarning bir xil sharoitda, bir xildagi aniq asbob bilan teng marta o‘lhashda teng aniqlikda o‘lhash bo‘ladi. Bu sharoitlardan birontasi o‘zgarsa, teng emas aniqlikda o‘lhash bo‘ladi.

O‘lhash natijalaridan foydalanishdan oldin ob’ektning qanchalik aniq o‘lchanganligini bilish kerak. O‘lhash aniqligiga baxo berish uchun o‘lhash paytidagi xatoga nima sabab bo‘lishini bilish zarur. Bu masalalar bilan o‘lhash xatosi nazariyasi shug‘ullanadi. O‘lhash xatolari kelib chiqish sabablariga ko‘ra qo‘pol, sistematik va tasodify xatolarga bo‘linadi.

**Qo‘pol xato** asosan o‘lhash yoki hisoblash vaqtida yanglishish, bu ishni bajarayotgan kishining parishonxotirligi, charchaganligi, xamda ishga beparvolik bilan qarashi natijasida kelib chiqadi. Bir ob’ekt o‘rniga boshqani o‘lhab qo‘yish, hisoblash vaqtida yanglishish qo‘pol xatoga misol bo‘la oladi. Qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun odatda o‘lhash va hisoblash ishlari qayta bajariladi.

**Sistematik xato** biror ob’ektni bir necha marta o‘lchaganda doimo bir xil ishora bilan bir xil miqdorda takrorlanaveradigan xatodir. Sistematik xatoning kelib chiqishiga o‘lhash asbobining etarli darajada aniq va to‘g‘ri bo‘lmasligi, o‘lchayotgan kishini shaxsiy xususiyatlari, tashqi muxitning ta’siri va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. Bunday xatoni kamaytirish uchun har gal o‘lhash asbobi sinchiklab tekshiriladi va ma’lum o‘lhash metodi qo‘llaniladi. Agar asbob xamisha bir xil xato ko‘rsatadigan bo‘lsa, o‘lhash hamda hisoblash paytida asbobning xatosini e’tiborga olish va olingan natjalarga tegishlicha tuzatish kiritish, shu yo‘l bilan o‘lhash xatolarini sistematik xatodan iloji boricha xoli qilish zarur.

### **3.2. Tasodify xatolarning xususiyati.**

**Tasodify xato** o‘lhash natijalaridagi qo‘pol va sistematik xatolar yo‘qotilgandan so‘ng qoladigan xatodir. O‘lhash paytida tasodify xato ro‘y berishi muqarrar: o‘lhash paytida uni e’tiborga olib bo‘lmaydi.

Biror ob’ektning haqiqiy qiymati ma’lum bo‘lsa, bu ob’ektni o‘lhash paytida ro‘y bergen tasodify xatoni bilish uchun ob’ekt bir necha marta o‘lchanib, olingan natjalarni, ob’ektning haqiqiy qiymatidan ayirish kerak, shunda xar bir o‘lhashdagi tasodify xato kelib chiqadi.

Masalan: ob'ektning haqiqiy qiymati x bilan, uni n marta o'lchab olingan natijalari  $l_1, l_2, l_3 \dots l_n$  bilan, har o'lhashdagi tasodifiy xatoni  $\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3 \dots \Delta_n$  bilan belgilasak, har bir o'lhashdagi haqiqiy tasodifiy xato quyidagiga teng bo'ladi:

$$\underline{\underline{l_1 - x = \Delta_1}}$$

$$\underline{\underline{l_2 - x = \Delta_2}}$$

$$\underline{\underline{l_3 - x = \Delta_3}}$$

.....

$$\underline{\underline{l_n - x = \Delta_n}}$$

Ob'ekt bir necha marta o'lchanib, qo'pol va sistematik xatolardan xoli qilingandan so'ng ham o'lhash natijalari bir-biridan farq qiladi. Bu farq tasodifiy xatodan iborat bo'ladi.

### 3.3.O'rtacha xato va o'rtacha kvadratik xato.

**O'rtacha xato.** Hisoblab chiqiladigan haqiqiy tasodifiy xatolar ( $\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3 \dots \Delta_n$ ) larning ishoralarini e'tiborga olmay tasodifiy xatolarning absolyut miqdorlaridan hisoblab chiqarilgan o'rtacha arifmetik miqdor o'rtacha xato deyiladi. O'rtacha xato U quyidagi formula bilan topiladi:

$$U = \frac{|\Delta_1| + |\Delta_2| + \dots + |\Delta_n|}{n} = \frac{[\Delta]}{n}$$

**O'rtacha kvadratik xato.** Biror ob'ektning qanchalik aniq o'lchanligiga baxo berishda o'lhash natijalarining o'rtacha kvadratik xatosidan foydalilanadi. O'rtacha kvadratik xato m bilan, o'lhash natijalaridagi tasodifiy xatolar  $\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3 \dots \Delta_n$  bilan ifodalansa, o'rtacha kvadratik xato quyidagiga teng bo'ladi:

$$m^2 = \frac{\Delta_1^2 + \Delta_2^2 + \Delta_3^2 + \dots + \Delta_n^2}{n} = \frac{[\Delta^2]}{n}$$

**CHekli xato.** Tasodifiy xatolar belgilangan miqdordan oshmasligi shart. Bu miqdor xatoning chegarasi yoki chekli xato deyiladi.

Extimollik nazariyasiga ko'ra, normal sharoitda ob'ektni 1000 marta o'lchaganda 3 martadagina tasodifiy xato qiymati yo'l qo'yiladigan o'rtacha kvadratik xato qiymatidan oshishi mumkin. SHunga ko'ra o'rtacha kvadratik xatoning uchlangan qiymati chekli xato deb qabul qilinadi:  $\Delta_{\text{chek}} q \pm 3m$ , m - o'rtacha kvadratik xato.

Hozirgi vaqtda talablar katta bo'lganligi uchun  $\Delta_{\text{chek}} q \pm 2m$ .

**Nisbiy xato.** O'lhash aniqligi o'lchanan ob'ektning o'lchamiga bog'liq bo'lgan hollarda ob'ektlarning to'g'ri yoki noto'g'ri va qay darajada aniq o'lchanligi nisbiy xato bilan belgilanadi.

Nisbiy xato o'rtacha kvadratik xato absolyut miqdorining o'lhash natijasiga bo'lgan nisbati bilan ifodalanadi

$$\frac{m}{1} = \frac{m : m}{1 : m} = \frac{1}{N}$$

m - o'rtacha kvadratik xato, 1 - o'lhash natijalari.

#### Nazorat savollari:

1. Geodezik ulhashlar turlari haqida tushuncha bering.
2. O'rtacha xato va o'rtacha kvadratik xatolarni aniqlash formulari
3. CHekli xato nima?
4. Nisbiy xato to'g'risida tushuncha bering.
5. Tasodifiy xatoga miso keltiring.

## **Adabiyotlar:**

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamDAQI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi, 1975 y.
5. Internetdan olingan ma'lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

## **MA'RUVZA №4 TOPOGRAFIK PLAN VA KARTALAR. REJA**

1. Plan va kartalar xaqida tushuncha.
2. Masshtablar.
3. Topografik plan va kartalarning nomenklaturasi.
4. Yer yuzasining relefi va uni plan va kartalarda tasvirlash.
5. Topografik plan va kartalarning shartli belgilari.
6. Topografik plan yoki kartalarda echiladigan masalalar.

**Tayanch so'zlar:** Karta, plan, kartografik proeksiya, matematik elementlar, geografik elementlar, masshtab, sonli masshtab, so'zli masshtab, chiziqli masshtab, ko'ndalangmasshtab, nomenklatura, meridianlar, kolonna, rel'ef, vodiy, qayir, jar, izogips, qiyalik burchagi, konturli.

### **4.1. Plan va kartalar xaqida tushuncha.**

#### **4.1.1. Karta .**

Yer yuzidaga geografik ob'ektlarning kontur va chiziqlari ellipsoid yoki shar sirtiga tushiriladi, ya'ni yer yuzining gorizontal proeksiyasi hosil qilinadi, bu proeksiya ma'lum matematik qonun asosida tekislikka tushiriladi, bunda dastlab, meridian va parallellar to'ri, ya'ni kartografik to'r chiziladi. So'ngra kartografik to'r ma'lum darajada kichraytirilgan geografik ob'ektlar bilan to'ldiriladi. Demak, **karta** - yer yuzining ellipsoid sirtidagi gorizontal proeksiyasining qog'ozda kichraytirilgan tasviridir.

**4.1.2. Plan** - yer yuzining yassi deb qabul qilingan bo'lagining tekis satxiy yuzaga tushirilgan gorizontal proeksiyasining qog'ozdagi kichraytirilgan tasviridir.

Plan bilan karta o'rtasidagi asosiy farq:

1. **Karta** - yuzining va uning ayrim katta qismining sferik yuzaga tushirilgan proeksiyasining qog'ozdagi kichraytirilgan tasviri; **plan** esa yer yuzi kichik qismining tekislikdagi gorizontal proeksiyasining qog'ozdagi kichraytirilgan tasviridir.

2. Planda joydagi chiziqlarning uzunligi, ob'ektlar konturlarining maydoni va yo'nalishlar orasidagi burchaklar to'g'ri tasvirlanadi, kartada esa ularning tasvirida ma'lum xatolar ro'y beradi.

3. Planning masshtabi uning hama qismida bir xil bo'ladi; ya'ni planda masshtab o'zgarmaydi, kartada esa masshtab kartaning turli qismlaridagina emas, xatto bir nuqtadan chiqadigan turli yo'nalishlar bo'yicha ham o'zgarib boradi;

4. Karta ma'lum **kartografik proeksiya** yoki zonal sistemasidagi to'g'ri burchakli koordinatada tuziladi; plan esa ko'pichna shartli yoki maxalliy to'g'ri burchakli koordinata sistemasida tuziladi.

## Kartalar klassifikatsiyasi.

Plan va kartalar mazmuni, masshtabi va boshqa xususiyatlariga qarab 3 gruppaga bo'lish mumkin:

1:5000 va undan yirik bo'lsa - **topografik plan**;

1:10000 - 1:500000 - **topografik karta**;

1:1000000 va undan kichik bo'lsa - **geografikkarta**;

1:200000 - 1:500000 gacha bo'lgan kartalar - **obzor topografik kartalar** deb ham yuritiladi; Obzor-topografik kartalar asosan topografik kartalar yoki aeroS'yomka natijalaridan foydalanib tuziladi.

Yer yuzidagi ob'ektlardan tashqari turli tabiiy va ijtimoiy hodisalar ham tasvirlangan geografik kartalar maxsus kartalar deb yuritiladi;

Maxsus tabiiy geografik kartalarga - geologik, geofizik, botanik, iqlimi; maxsus sotsial-iqtisodiy kartalarga esa tarixiy-iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy va boshqalar kiradi.

Hozirgi vaqtda plan olish natijasida asosan territoriyani topografik plani yoki yirik masshtabli topografik karta tuziladi.

Topografik kartalar yirik masshtabli bo'lganligidan ularda territoriya ma'lum kattalikdag'i qismlarga bo'linib, har bir qism alohida-alohida varaqda, qabul qilingan kartografik proeksiyada, masshtab, hamda ramkada tasvirlanadi. Topografik kartaning har bir varag'idagi territoriyaning o'lchami ma'lum qoida va nomenklaturaga asosan olinadi.

Topografik kartaning ana shu elementlari - kartografik to'r, masshtab, nomenklatur - uning **matematik elementlari** deyiladi.

Yer yuzining topografik kartada tasvirlanadigan tafsilotlari esa kartaning **geografik elementlari** deyiladi. Geografik elementlar territoriyaning rel'efi, gidrografiysi, o'simlik va tuproq grunt ko'rsatkichlari, axoli yashaydigan punktlar, hamda ba'zi bir xo'jalik, siyosiy-ma'muriy elementlardan iborat.

Topografik kartadan foydalanishni ososnlashtirish maqsadida uning ramkasidan tashqarida turli chizma, sxema va yozuvlar beriladi. Bular topografik kartaning **yordamchi elementlaridir**.

## 4.2. Masshtablar.

### 4.2.1. Topografik plan va kartalar masshtabi.

Topografik planlar tuzish uchun asosan 1:500; 1:1000; 1:2000; 1:5000 - masshtablar qabul qilingan.

Topografik kartalar tuzish uchun 1:10000; 1:25000; 1:50000; 1:100000; 1:200000; 1:300000; 1:500000 masshtablar qabul qilingan. Har bir topografik plan va kartaning masshtabi, uning ramkasi ostida beriladi: sonli, so'zli va chiziqli.


**4.2.2. Masshtab** - yer yuzidagi masofalar gorizontal proeksiyalarining kichraytirilgan darajasidir. Raqamlar bilan **sonli masshtab** ifodalanadi va kasr tarzida yoziladi 1:M - m - masshtabning kichraytirish darajasi (M 1:100; 1:5000).

Sonli masshtab so'z bilan ifodalansa - **so'zli masshtab deb ataladi** (1sm da 1m; 1sm da 1 km...).


Masshtab grafik shaklda iifodalansa - **chiziqli masshtab** deyiladi. Chiziqli masshtab bitta chiziqdan yoki ikki parallel chiziqdan iborat bo'lib, chiziqlar ma'lum uzunlikdag'i kesmalarga bo'linadi; kesma masshtab asosi deyiladi (1 yoki 2 sm). Kesmalar ustiga uning yuzidagi uzunligi yoziladi.

Chiziqli masshtabning chap tomonidagi birinchi kesma teng 10 bo'lakka bo'linadi - 1 bo'lagi - **grafik aniqligi** deyiladi (4.2.1.- shakl).

Kartadan o'lchangan chiziqlarning joydag'i uzunligini aniqroq o'lchashda **ko'ndalang masshtabdan** foydalaniladi (4.2.2. - shakl).



SHakl 4.2.1.



SHakl 4.2.2.

Karta nomi	Sonli masshtab	So'zli masshtab	Masshtab aniqligi
Besh yuzli	1 : 500	1 sm da 5 m	0,05
Mingli	1 : 1 000	1 sm da 10 m	0,1
Ikki mingli	1 : 2 000	1 sm da 20 m	0,2
Besh mingli	1 : 5 000	1 sm da 50 m	0,5
O'n mingli	1 : 10 000	1 sm da 100 m	1
Yigirma mingli	1 : 25 000	1 sm da 250 m	2,5
Ellik mingli	1 : 50 000	1 sm da 500 m	5
YUz mingli	1 : 100 000	1 sm da 1 km	10
Ikki yuz mingli	1 : 200 000	1 sm da 2 km	20
Uch yuz mingli	1 : 300 000	1 sm da 3 km	30
Besh yuz mingli	1 : 500 000	1 sm da 5 km	50
Millionli	1 : 1 000 000	1 sm da 10 km	100

### 4.3. Topografik kartalarning nomenklaturasi.

Topografik kartalarni varaqlarga bo'lish, hamda bu varaqlarni belgilash, ya'ni ularga nom berish sistemasi **nomenklatura** deyiladi.

Topografik kartalarining nomenklaturasi 1:1000000 masshtabli karta nomenklurasiga asoslangan. 1:1000000 masshtabli karta varag'ining o'lchami meridian bo'yicha  $4^\circ$  va parallel bo'yicha  $6^\circ$  ga teng. Kartaning varaqlariga nom berish uchun ekvatoridan qutblarga tomon  $4^\circ$  dan **parallel** o'tkazilib - qator,  $180^\circ$  li meridiandan boshlab  $6^\circ$  dan **meridianlar** o'tkazilib - **kolonnalar** hosil qilinadi.

Qatorlar ekvatoridan qutblarga tomon lotin alvafitining bosh xarflari (A dan Z gacha), kolonnalar esa  $180^\circ$  li meridiandan boshlab 1 dan 60 gacha arab raqamlari bilan belgilanadi. SHunda 1:1000000 masshtabli karta har bir varag'ining nomenklaturasi qatorni belgilovchi harf va kolonna nomerini ko'rsatuvchi raqamdan iborat bo'ladi. Masalan, Toshkent shaxri joylashgan varaq (trapetsiya) ning nomenklaturasi K-42 bo'ladi (4.3.1. – shakl).

1:500000 masshtabi karta varag'ining nomenklurasini keltirib chiqarish uchun 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 4 teng bo'lakka bo'lamiz.

1:200000 masshtabli karta nomenklurasini keltirib chiqarish uchun 36 teng bo'lakka bo'lib I - XXXVI gacha belgilab olamiz.

1:300000 masshtabli karta varag'ining nomenklurasini keltirib chiqarish uchun 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 9 ta teng bo'lakka bo'lamiz I - IX gacha belgilab olamiz.


1:1000000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun, 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 144 teng bo'lakka bo'lamiz va 1-144 belgilab olamiz. 1:100000 masshtabli topografik kartaning nomenklaturasi barcha yirik mashtabli topografik kartalar va planlarning nomenklaturasi uchun asos qilib olingan.

1:50000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:100000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz; (A, B, V, G) - K-42-102-B (4.3.2. - shakl).


1:25000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:50000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz; (a,b,v,g)-K-42-102-B-b (4.3.2. - shakl).

1:10000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:25000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz (1, 2, 3, 4) - K-42-102-B-b-3 (4.3.2. - shakl).


1:5000 va 1:2000 nomenklaturasi 1:100000 - 256 ta teng bo'lakka bo'lsak - 1:5000 kelib chiqadi. (K-42-102 (132)) (4.3.3 - shakl);



SHakl 4.3.1.




SHakl 4.3.2.



SHakl 4.3.3.

1:2000 ni keltirish uchun 1:5000 ni 9 ta teng bo'lakka bo'lamiz ( a, b, v, g, d, e, j, z, i) K-42-102 (132-d) ( 4.3.4. – shakl).




SHakl 4.3.4.

Karta masshtabi ,karta kengligi, karta uzunligi va nomenklaturasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Karta mashtabi	Kenglik	Uzunlik	Nomenklatura
1:1000000	4°	6°	K-42
1:500000	2°	3°	K-42-G
1:300000	1°20'	2°	K-42-IX
1:200000	40'	1°	K-42-XX
1:100000	20'	30'	K-42-102
1:50000	10'	15'	K-42-102-B

1:25000	5'	1'30"	K-42-102-V-g
1:10000	2'30"	3'45"	K-42-102-V-a-3
1:5000	1'15"	1'52,5"	K-42-102(132)
1:2000	0'25"	0'337,5"	K-42-102(132-d)

1:1000000 masshtabli kartaning varaqlarga bo‘linishi shakl 4.3.5. da keltirilgan.



SHakl 4.3.5.

#### 4.4. Yer yuzasining relefi va uni plan va kartalarda tasvirlash.

##### 4.4.1. Topografik kartalarning rel'efi.

Biror joydagi notejisliklar, ya'ni past-balandliklar yig'indisiga shu joyning **rel'efi** deyiladi.

Yer yuzi rel'efining shakllari, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va tarqalishini o'rganadigan fan geomorfologiya deb ataladi. Rel'ef shakllarini kelib chiqishi, katta-kichikligi, xarakteri, dengiz satxidan balandligi, tashqi ko'rinishi va boshqa xususiyatlariga qarab bir necha xil bo'lishi mumkin. Geodeziyada rel'ef shakllarini tashqi ko'rinishi jixatidan turlarga ajratish qabul qilingan. Rel'ef shakllari tashqi ko'rinishiga qarab **qavariq**, ya'ni bo'rtib chiqqan va **botiq** bo'ladi. Bo'rtib chiqqan shakllari - do'ng, tepe, gryada, tog' tizmasi; botiq shakliga - vodiy, jar, balka, chuqurlik, pastlik, qozonsov, soy va boshqalar kiradi. Atrofdagi tekis joydan gumbazsimon yoki konussimon ko'tarilib turgan balandlik **tepa** deyiladi. Tepaning nisbiy balandligi 200 m gacha bo'ladi. Nisbiy balandligi 100 m gacha bo'lgan tepe **do'ng** deyiladi. Uzunasiga davom etgan qator tepaliklar - **gryada** deyiladi, nisbiy bilandligi 200 metrgacha bo'ladi.

**Tog'** - atrofdagi tekislikdan qad ko'targan balandlikdir. Nisbiy balandligi 500 metrdan oshadi, gumbazsimon, konussimon, piramida shaklida bo'lishi mumkin. Tog'ning eng baland nuqtasi - tog' telesi, cho'qqi. Qatorasiga davom etib ketgan tog'lar - **tog' tizmasi**.

Rel'efning botiq shakllaridan eng kattasi - **vodiyadir**. Vodiyarning tagidan daryo, soy oqsa - daryo, soy vodiysi deb ataladi. Vodiyning xamma vaqt daryo oqib turadigan qismi - **daryo o'zani** (ruslo), toshqin vaqtida suv bosadigan joylar **qayir** (poyma) deyiladi.

Vaqtincha oqqan suv o'yib ketgan uzun chuqurlar **jar** deyiladi. Odatda jarlarning yon bag'ri tik bo'lib, unda o'simlik o'smaydi. Jarlarning uzunligi bir necha metrdan o'nlab kilomertgacha, chuqurligi 50 metrgacha borishi mumkin.

##### 4.4.2. Joy rel'efini topografik kartalarda tasvirlanishi.


Topografik kartalarda rel'ef asosan gorizontallar bilan tasvirlanadi. **Gorizontal** - balandliklari bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqdir. Gorizontal - **izogips** deb ham yuritiladi.

Tepalikni bir xil balndlikdan o'tuvchi a, v, s gorizontal tekisliklar kesib o'tgan deb faraz qilaylik.


A - tekislikda gorizontallar hosil bo'ladi. Ikki gorizontal tekislik orasidagi vertikal masofa, h - **kesim balandligi**.

Ikki gorizontal orasidagi masofa d - **gorizontallar oraligi**. YOn bag'ir bilan gorizontal tekislik orasidagi burchak  $\alpha$  - **qiyalik burchagi** deyiladi.

$$h = d \times \operatorname{tg} \alpha; \quad d = \frac{h}{\operatorname{tg} \alpha}; \quad \operatorname{tg} \alpha = \frac{h}{d}.$$



SHakl 4.4.1.




SHakl 4.4.2.

Topografik kartalarda yon bag'irning nishabi gorizontallarga qisqa chiziqlar (bergshtrixlar) chizib ko'rsatiladi. **Bergshtrixlarning** erkin uchi qaysi tomonga yo'nalgan bo'lsa, yon bag'irning nishabi shu tomonga qaragan bo'ladi.

Ma'lum masshtabli topografik karta uchun qabul qilingan kesim balandligiga muvofiq chizilgan gorizontallar **asosiy gorizontallar** deyiladi. Topografik kartalarda va planlarda asosiy gorizontallar uzlucksiz egri chiziqlar ko'rinishida chiziladi. Asosiy gorizontallarning kesim balandligi kartaning ostki tomonida ramkadan tashqarida yoziladi. rel'efni o'qishni ososn bo'lishi uchun har beshinchi gorizontal yo'g'on qilib chiziladi, agar kesim balandligi 5 m bo'lsa. Masalan, kesim balandligi 5 metr bo'lsin, 25, 50, 75... gorizontallar yo'g'on bo'ladi.

Agar kesim balandligi 2,5 m bo'lsa, har o'ninchи gorizontal yo'g'on chiziladi.

Ayrim joylarning rel'efini asosiy gorizontallar bilan to'la ko'rsatib bo'lmagan hollarda kesim balandligining yarmiga teng gorizontallar chiziladi. Ular **qo'shimcha gorizontallar** deyiladi. YArim gorizontallar kartada punktir chiziqlar bilan beriladi. Ba'zan kesim balandligining to'rtdan biriga teng bo'lgan va **yordamchi gorizontal** deb ataladigan gorizontal chizilishi ham mumkin.



SHakl 4.4.3.

Topografik kartalarda ayrim gorizontallar va xarakterli nuqtalarning baholanishi yozilib qo'yiladi. Baho - nuqtaning absolyut balandligining ifodalovchi raqamlardan iborat. MDH davlatlarida Baltika dengizi satxi boshlang'ich yuza deb qabul qilingan.

#### 4.5. Topografik kartani urganish va topografik shartli belgilar xakida tushuncha.

Topografik kartalarda joy tafsilotlari maxsus shartli belgilar bilan quyidagi guruxlarga bo'linib ko'rsatiladi:

1.Relef.

2.Gidrografiya.

3.O'simlik va tuproq grunt qoplami.  
4.Axoli yashaydigan punktlar, sanoat, qishloq xo'jalik korxonalari va sotsial-iqtisodiy ob'ektlar.

5.CHegaralar.

6.Orientir bo'la oladigan ayrim ob'ektlar

Topografik kartalarda joy rel'efi gorizontallar bilan, qolgan barcha tafsilotlar shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Topografik shartli belgilar xususiyatlari xamda vazifalariga qarab:

1. Masshtabli (konturli)
2. Masshtabsiz
3. Tushuntiruvchi shartli belgilarga bo'linadi.

1. ***Masshtabli*** yoki konturli shartli belgilar bilan karta masshtabida konturini ko'rsatish mumkin bo'lgan tafsilotlar, masalan, o'rmon, botqoqlik, poliz, bog', ko'l va boshqalar tasvirlanadi. Masshtabli shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarning uzunligi, kengligi, maydonini aniqlash mumkin. Konturli shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarni bir-biridan farq qilish uchun, har bir kontur ichiga shu tafsilotlarni shartli belgisi beriladi yoki konturlar turli rangga bo'yaldi. Masalan, tokzorga tokning shartli belgisi chizib qo'yiladi, qamishzor konturining ichiga qamishning shartli belgisi chizib qo'yiladi, o'rmon yashil rangga, ko'l ko'k rangga bo'yaldi va hakoza. Lyokin kontur ichida berilgan shartli belgi shu belgi bilan tasvirlangan tafsilotning o'rnini va miqdorini bildirmaydi. Masalan, bog' konturi ichida berilgan doirachalar shu bog'dagi daraxtlarning o'rnini va ularning sonini bildirmaydi.

2. Karta masshtabida ko'rsatib bo'lmaydigan kichik ob'ektlar, masalan, yakka daraxt, buloq, quduq, ko'prik va boshqalar ***masshtabsiz shartli belgilar*** bilan tasvirlanadi. Bunday tafsilotlar karta masshtabida nuqta bilan ko'rsatiladi, nuqta tafsilot o'rnini, shartli belgi esa uning qanday tafsilot ekanligini ifodalaydi. Kartada bunday tafsilotlar orasidagi masofani o'lchashda va koordinatalarini aniqlashda tafsilot o'rni sifatida shu nuqta olinadi. Yo'llar, soylar, ya'ni cho'zilib ketgan uzun chiziqlar tarzidagi tafsilotlar ham masshtabsiz shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Ularning faqat uzunligi karta masshtabida ko'rsatilib, kengligi masshtabsiz beriladi.

Aholi yashaydigan punktlar, bog'lar, tokzor singari yirik tafsilotlar kartaning masshtabiga qarab masshtabli yoki masshtabsiz shartli belgilar bilan tasvirlash mumkin.

3. Konturli va masshtabsiz shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarni qo'shimcha ravishda xarakterlash va ularning turini ko'rsatish uchun ***tushuntiruvchi shartli belgilar*** ishlataladi.

O'rmon konturlari ichida beriladigan - o'rmonning turini ko'rsatuvchi shartli belgi, daryo oqimini ko'rsatuvchi, strelka - tushuntiruvchi shartli belgiga misol bo'la oladi. Topografik kartada beriladigan barcha raqamlar, harflar, qisqartirilgan va to'la berilgan yozuvlar ham tushuntiruvchi shartli belgilar bo'lib hisoblanadi.

Tafsilotlar katta kichikligiga qarab topografik kartalarda har xil kattalikdagi xarf (shrift) ishlataladi. Masalan: axoli yashaydigan punktlarning nomi axolisining soni va ma'muriy axamiyatiga qarab turli kattalikdagi xarflar bilan yoziladi. Topografik kartalarda tasvirlangan tafsilotlarni bir-biridan farq qilish va tez tushinilishi uchun o'zining tabiiy rangiga mos keladigan rangga bo'yaldi. Masalan, o'rmon, bog', tokzor - yashil rangga, ko'l, daryo, kanal, xovuz, buloq - havo rangga, rel'ef va uning elementlari, jar, qum... - jigar rangga bo'yaldi.

#### **4.6. Topografik plan yoki kartalar bo'yicha echiladigan masalalar.**

Plan gorizontallari buyicha joy relefini baholash va injenerlik inshootlarini loyihalash bilan bog'liq, bo'lgan ko'pgina masalalarni echish mumkin. Bunday masalalarga gorizontallar ustida va ular orasida yotgan nuk,- talarning balandliklarini aniqlash, joy chiziqlari nishabliklari va qiyaliklarini aniqlash, berilgan chiziq yunalishi bo'yicha profil tuzish, berilgan nishablikdagi chiziqni o'tkazish, yer tekislash uchun qiya sirtni loyihalash, jismlar hajmlarini hisoblash kabi echimlari kuyidagi misollarda keltirilgan masalalar kiradi.

#### **4.6.1.Gorizontal belgisini berilgan nuqtaning balandligi va ma'lum relief kesimi buyicha aniqlash.**

Bu masalani echishda gorizontal belgisi relief kesimi balandligiga karrali, berilgan nuqta balandligi va eng yakin gorizontal belgisi farqi relief kesimi balandligidan kam bulishi kerak. Masalan berilgan karta varagiqismida gorizontallar 2,5 m dan utkazilgan, Malinovka tog'ibalandligi esa 159,7 m, demak, yaqinroq eng kichik gorizontalning balandligi 157,5 m (kvadrat 6411).

#### **4.6.2.Joy nuqtalari belgilarini aniqlash.**

Agar nuqta gorizontalda yotgan bo'lsa, uning belgisi gorizontal belgisiga teng. Masalan (kvadrat 6511)  $N_1 = 152,5$  m, ikkinchi nuqtaning belgisi balandligi harxil bo'lgan gorizontallar orasida joylashgan. SHu sababli uni ko'zda interpolyasiyalash orqali topish mumkin.  $N_2 = 155,0 + 1,3 = 156,3$  m. Agar nuqta bir nomli gorizontallar orasida yotgan bo'lsa uning balandligi taqriban topiladi: 0,5 h gorizontaldan katta yoki kichik, ya'ni  $N_3 = 155,0 - 1,2 = 153,8$  m.

Gorizontallar orasida yotgan 4 nuqtaning balandligi  $N_4$  ni topish uchun esa chiziqli interpolyasiyalashning quyidagi formulasini qo'llash mumkin:

$$H_B = H_n + (S_{nb} / S_{mn}) h, \quad (4.6.2.)$$

Bu erda  $N_n$  — pastda quyi yotgan gorizontal balandligi,  $S_{nb}$  — Bnuktadan pastda quyi yotgan gorizontalgacha bulgan masofa,  $S_{mn}$  yondosh gorizontallar orasidagi masofa,  $h$  — relief kesimi balandligi.

Echish: kartada  $S_{d4} = 150$  m;  $S_{mn} = 475$  m ulchaymiz, ular- ni va ma'lum  $N_n = 152,5$  m va  $h = 2,5$  m qiymatlarni (4.6.2.) formulaga qo'uysak,

$$N_v = 152,5 + (150/475) 2,5 = 153,3 \text{ m.}$$

#### **4.6.3.Qiyalikning yotiqlik nishabligi va qiyalik burchagini topish.**

Qiyalikning yotiqlik nishabligi va qiyalik burchagi  $i = h/S$  va  $v^0 = 57,3(h/S)$  formulalardan yoki grafik usulda quyilish masshtablari grafiklaridan foydalanib topiladi, kartaning janubi sharqqismida quyilish masshabti keltirilgan, undan foydalanishda kartadan ulchagich kadamiga V va S nuq-talar orasidagi (6511) bsmasofa olinib, uni quyilish grafigiga kuyiladi va egrini chizik bilan kesishish nuktasi topiladi. Masalan, kuyilish grafigidan olingani  $V_{bc} = 2,4^\circ$ , formula buyicha hisoblangani esa  $V_{bc} = 2,3^\circ$  yoki formulaga kura  $i = 41\%$ .

#### **4.6.4.Kartada berilgan nishablikdagi chizikri utkazish.**

Kartada A nuktadan V nuktagacha nishabligi 35% ( $2^\circ$ ) bulgan chiziqli utkazish kerak. Quyilish masshabidan 35% ga moso'lchagich qadami olinib, A nuqtadan ketma-ket hamma gorizontallar kesiladi. Nuqtalar tutashtirilib, berilgan nishabligi chekli chizikni hosil qilinadi. Agar o'lchagich qadami gorizontallar orasidagi masofadan kichik bo'lsa, ular to'g'ri chiziq bo'yicha tutashtiriladi (6411, 6511).

#### **4.6.5.Kartada berilgan yo'naliш bo'yicha joy profilini yasash.**

Malinovka sh (6411) shamol dvigateli (6412) chiziq bo'yicha planli profilni yasash uchun to'g'ri chiziqo'tkazilib, unda karta masshabida K, 1, 2, 3, 4, 5, 6, E va h.k. nuktalar, ya'ni gorizontallarning KE to'g'ri chizik bilan kesishish nuqtalari orasidagi gorizontallar yoki interpolyasiyalashdan topilgan belgilarga teng. Bu nuqtalar belgilari profil acociga perpendikulyarlarga gorizontal masshabdan 10 marta yirikroq masshabda qo'yiladi. hosil bo'lgan nuqtalar silliq egrini chiziq orqali tutash-tiriladi. (3.6-rasm).

Profil yordamida joy nuqtalari orasidagi o'zaro ko'rinishni bilish mumkin, buning uchun ularni to'g'ri chizik bilan tutashtirish kerak. Agar nuqtalar orasida kurinish bo'lmasa, ulardan birini qanday mikdorda ko'tarish kerakligini aniqlash mumkin. Agar bir nuqtadan bir necha yo'naliшlar bo'yicha profillar yasalsa, unda kartaga shu nuqtadan ko'rinxaydig'an (ko'rinxaylik maydoni) joy uchastkalarini kartaga tushirish mumkin. 4.6.1.- shaklga ko'ra K va E nuqtalar o'zaro ko'rinarli.

#### **4.6.6.Nuqtalarning geografik va To‘g‘ri burchakli koordinatalarini aiiqlash.**

Kenglik va uzoqliklar karta varagi romi uchlarida yozilgan  $\varphi_{jg} = 54^{\circ}40'$ ,  $\lambda_{yuz} = 18^{\circ}03'45'$ ). Karta romida kenglik va uzoklik bo‘yicha butun minutlar (rang quyulib) ajratilgan. Romning qarama-qarshi tomonlaridan uchlarini tutashtirilib, parallellar va meridianlar minutli to‘ri hosil qilinadi. Uzoqlik va kenglikning sekundlari chiziqli kesmalar nisbatidan hosil kilanadi. Masalan, un zavodi nuqtasidan (6511) yaqin (g‘arbiy) meridiangacha kesma a va uzoqlikning bir minuti uzunligi b (romda) bo‘lsa, nuqta uzoqligi  $\lambda = \lambda_{yam} + 60' a/b$

$$\text{berilgan nuqta uchun } \lambda = 18^{\circ}04' + 60' \cdot 9,8 \text{sm} / 10,5 \text{sm} = 18^{\circ}04'56''$$

Nuqta kengligi ham shunday aniqlanadi:

$$\varphi = 54^{\circ}04' + 60' \cdot 13,7 \text{sm} / 18,6 \text{sm} = 54^{\circ}40'44'';$$

shu nuqtaning to‘g‘ri burchakli koordinatalari koordinata to‘rining vertikal va gorizontal chiziqlariga nisbatan o‘lchagich va masshtab chizig‘i yordamida aniqlanadi:

$$X = 6065 \text{ km} + 542 \text{ m} = 6065542 \text{ m};$$

$$U = 4311 \text{ km} + 756 \text{ m} = 4311756 \text{ m}.$$

#### **4.6.7.Karta bo‘yicha chiziqning haqiqiy azimuti va direksion burchagini aniqlash.**

R nuqtadan yaxshilangan gruntli yo‘lning xaqiqiy azimuti va direksion burchagini aniqlash uchun R nuktadan g‘arbiy va sharqiylar minutli romga va kilometrli to‘rning vertikal chizig‘iga parallel chiziqlar o‘tkazi- ladi. Transportir noli R nuqtada shimolga qaratib qo‘yilib, yo‘l yo‘nalishiga

$$A = 89^{\circ}10' \text{ va } \alpha = 91^{\circ}30' \text{ burchaklar olinadi.}$$

#### **Nazorat savollari:**

1. Nomenklatura nima?
2. Topografik kartalarini matematik elementlari
3. Topografik kartalarni geografik elementlarni
4. Topografik kartalarni erdamchi elementlari
5. Karta va plan urtasidagi asosiy farq
6. Kiyyalik burchak kanday burchak?
7. Gorizontallar oraligi nima?
8. Kesm balandlig‘i nima?

#### **Adabiyotlar:**

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O‘qituvchi, 2002.–234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O‘quv qo‘llanma Samarkand. SamDAQI, 2006
4. Qo‘ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O‘qituvchi, 1975 y.
5. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O‘qituvchi – 1984 y.
6. Internetdan olingan ma’lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

**M A ‘ R U Z A №5**  
**GEODEZIK TO‘RLAR.**  
**REJA**

1. Geodezik to‘rlarning turlari va ahamiyati.
2. Geodezik to‘rlarni barpo etish usullari.
3. Davlat geodezik to‘ri.
4. Geodezik zichlashtirish to‘rlari va geodezik tasvirga olish to‘rlari.
5. Geodezik to‘r punktlarini maxkamlash.
6. Global navigatsion pozitsionlash (GPS) tizimi yordamida geodezik to‘r yaratish to‘g‘risida tushuncha.

**Tayanch so‘zlar:** Geodezik tayanch punkt, planli tayanch punkt, balandlik tayanch punkt, astronomik metod, geodezik metod, radiogeodezik metod, magistral, paralaktik, teodolit yo‘li, turlar, piramidalar, murakkab signallar.

### **5.1. Geodezik to‘rlarning turlari va ahamiyati.**

Geodezik ishlar ikki muhim qismdan – Yer sirtida vaziyatlari aniqlangan tayanch nuqtalar sistemasini yaratish va bu nuqtalar sistemasi asosida s‘yomkalarni bajarishdan iborat. Tayanch nuqtalar sistemasi katta hududda bajariladigan s‘yomkalarning hamma qismlarida oldindan o‘rnatalgan aniqlikni ta‘minlashi zarur. SHu sababli ular uchun umumiy bo‘lgan yagona koordinatalar va balandliklar sistemasida aniqlangan, joyda mahkamlangan yer sirtining nuqtalari tizimi – geodezik tarmoq yaratiladi.

Xududiy xususiyatlari ko‘ra ular butun yer sharini qoplaydigan – global geodezik tarmoqlarga, har bir mamlakat hududi doirasida mazkur davlatda qabul qilingan yagona koordinatalar va balandliklar – referent sistemasidagi milliy (davlat) geodezik tarmoqlariga, topografik s‘yomkalarga asos uchun mo‘ljallangan zichlashtirish va har xil masalalarni echish uchun foydalilaniladigan lokal uchastkalarda barpo etiladigan mahalliy geodezik tarmoqlarga bo‘linadi.

Geometrik mohiyati bo‘yicha planli, balandlik va fazoviy geodezik tarmoqlarga bo‘linadi.

#### **5.1.1. Geodezik tayanch shaxobchalarining turlari.**

Joyda o‘rni uzoq vaqt saqlanadigan qilib maxsus qurilma yoki mustahkam qoziq bilan belgilangan va planli koordinatasi yoki absolyut balandligi aniqlangan nuqtaga **geodezik tayanch punkt** deyiladi.

Bunday nuqtalar yig‘indisi **geodezik tayanch shaxobchalarni** tashkil etadi. Planli koordinatasi ma’lum bo‘lgan tayanch punktga, **planli tayanch punkt**, absolyut balandligi ma’lum bo‘lgan tayanch punktga esa **balandlik tayanch punkt** deyiladi. SHunga yarasha geodezik tayanch shaxobchalarini planli va balandlik tayanch shaxobchalarga bo‘lindi.

Geodezik tayanch shaxobchalarini, davlat geodezik tayanch shaxobchalarini, maxalliy geodezik tayanch shaxobchalarini va plan olish tayanch shaxobchalariga bo‘lindi. Davlat

geodezik tayanch shaxobchalarini maxsus programma asosida barpo qilinadi va barcha masshtabdagi topografik planlarni olishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz xalq xo‘jaligi va mudofaasiga turli ilmiy va texnikaga doir masalalarni echishda xam davlat geodezik tayanch shaxobchalariga asoslanadi.

**5.1.2. Davlat geodezik tayanch shaxobchalarini** mamlakatimizning istagan joyida bir-biriga bog‘lanmagan holda bir vaqtida yoki turli vaqtida plan olishga va geodezik o‘lchash ishlarni bajarishga, bu ishlarda ro‘y beradigan tasodifiy xatolar ta‘sirini kamaytirishga, mazkur ishlarning qay darajada aniq bajarilganligini tekshirishga, shuningdek barcha geodezik o‘lchash ishlarni yagona koordinata sistemasiga birlashtirishga imkon beradi.

**5.1.3.Maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari** 1:500 - 1:5000 mashtabli topografik planlar olish uchun, hamda qurilish maydonlarida bajariladigan geodezik ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**5.1.4.Plan olish shaxobchalari** barcha mashtabda planlar olish uchun bevosita asos bo'lib hisoblanadi. Plan olish shaxobchalarini hosil qilish uchun teodolit yo'li, menzula yo'li, geometrik shaxobcha, to'g'ri va teskari kesiltirish usullaridan foydalaniladi.

## 5.2.Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilish metodlari.

Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilishni bir necha xil metodi bor. **Astronomik metod**, **geodezik metod**, **radiogeodezik metod** - shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtida asosan **geodezik metod** qo'llanilmoxda. Geodezik metodning o'zi - triangulyasiya, poligonometriya va trilateratsiya degan turlarga bo'linadi.

Punktarning geografik koordinatlarini **astronomik metoddan** bir-biriga bog'lanmay, alohida-aloxida aniqlanadi. Lyokin astronomik metoddan punktlar koordinatalarining aniqlanish darajasi hozirgi vaqtida geodezik tayanch shaxobchalariga bo'lgan talabni qondirmaydi, shuning uchun astronomik metod katta aniqlik talab qilinmaydigan vaqtida qo'llaniladi.

Keyingi yillarda 1:50000, 1:100000, 1:25000 masshtabli aerofototopografik plan olish uchun geodezik tayanch shaxobchalari barpo qilishda **radiogeodezik metod** qo'llaniladi. Radiogeodezik metod terroriyani samolyotdan turib suratga olish vaqtida samoletning o'rnini aniqlashga asoslangan edi.


Qit'a va orollardagi geodezik tayanch shaxobchalarini bir-biriga bog'lashda **kosmik geodezik usulidan** xam foydalanilmoxda.

Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilishda joyning sharoitiga qarab, iqtisodiy jixatdan eng yaxshi samara beradigan metod qo'llaniladi.

Hozirgi planli geodezik tayanch shaxobchalari asosan triangulyasiya va poligonometriya metodlarida hosil qilinmoqda.

### Triangulyasiya metodi.

**Triangulyasiya** metodida ( 5.2.1. shakl) qator uchburchaklarning barcha ichki burchaklari ( $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \dots, \beta_n$ ) boshlang'ich va oxirgi uchburchaklarning biror tomoni (AV va MN) o'lchanishi lozim. Har uchburchakning ichki burchaklarining o'lhash uchun ularning uchlari bir-biridan ko'rinishi kerak.



SHakl 5.2.1

SHuning uchun uchburchakning uchlari sifatida baland nuqtalar tanlanadi. Biroq bu nuqtalardan hosil bo'ladigan uchburchaklar mumkin qadar teng tomonli bo'lishi shart. Joyda triangulyasiya uchburchaklarining uchlari markaz, markazga piramida yoki signal o'rnatiladi. Triangulyasiya punktlarining koordinatalarini aniqlash uchun uchburchaklarning ichki burchaklari bilan bir qatorda boshlang'ich uchburchaklarning biror tomoni (AV) ni va bu tomonning haqiqiy azimuti yoki direksion burchagi ( $\alpha$ ) ni ham o'lhash kerak. Agar AVS yassi uchburchakning AV tomoni ma'lum bo'lsa, qolgan tomonlarini sinuslar teoremasiga asoslanib hisoblab chiqarish mumkin:

$$AC = \frac{AB}{\sin \beta_3} \times \sin \beta_2, \quad BC = \frac{AB}{\sin \beta_3} \times \sin \beta_1$$


BCD uchburchakning SD va VD tomonlari VS tomon bilan ichki burchaklar ( $\beta_4, \beta_5, \beta_6$ ) qiymatlariga asoslanib topiladi. Keyingi uchburchaklarning tomonlari xam shu tarzda aniqlanadi.

Ko'pincha AV, VS.... tomonlar juda uzun bo'lganligi uchun av yordamchi tomon orqali AV uzunligi topiladi. 2 ta uchburchak Aav va aVv lar tuziladi. Bular bazis shaxobcha bo'ladi; av va burchak  $\varphi_1$  va burchak  $\psi_1$  bevosita o'lchanadi. SHular yordamila AV uzunligi aniqlanadi.

### Trilateratsiya metodi

Masofa o'lhash uchun radioelektronika vositalari qo'llanilmoqda, bu esa geodezik tayanch shaxobchalarini xosil etishning yangi trilateratsiya metodini (5.2.2. shakl) keltirib chiqaradi. Bu metodda qator uchburchaklarning tomonlari avtodalnometr va (svetodalnometr) radiodalnometr bilan o'lchanadi:

$$\operatorname{tg} \frac{\beta}{2} = \sqrt{\frac{(p-b) \times (p-c)}{p \times (p-a)}}, \cos \beta = \pm \frac{b^2 + c^2 - a^2}{2bc}, \quad 2p = a + b + c$$




SHakl 5.2.2.

### Poligonometriya metodi


Bu metodda koordinatalari aniqlanadigan punktlarni tutashuvchi chiziqning uzunligi xamda tutash chiziqlar orasidagi gorizontal burchaklar o'lchanadi.

Ochiq poligonometriya yo'li( 5.2.3. shakl) odatda koordinatalari ma'lum bo'lgan ikkita tayanch punkt oraligida o'tkaziladi. YOpiq poligonometriya yo'li(5.2.4. shakl) esa koordinatasi ma'lum bo'lgan punktdan boshlanib yana shu punktgaga bog'lanadi. Bir necha poligonometriya yo'llari esa poligonometriya shaxobchasini tashkil qiladi. Triangulyasiya metodi qo'llanib bo'lmaydigan rayonlarda (o'rmon zonasi, shaxar ichi) geodezik tayanch shaxobchalarini qurishda poligonometriya metodi qo'llaniladi.



SHakl 5.2.3.

Poligonometriya poligon tomonlarini o'lhash metodiga qarab magistral va paralaktik poligonometriyaga bo'linadi.




SHakl 5.2.4.

### Magistral poligonometriya

Magistral poligonometriya koordinatalari ma'lum bo'lgan 2 tayanch punkt oraligida o'tkazilgan poligondan iborat, bunda burilish nuqtalar 1,2,3...larning koordinatalarini aniqlash uchun tutashtiruvchi chiziqlarning uzunligi  $d_1$   $d_2$  ... larning burilish burchaklari  $\beta_1$   $\beta_2$  ... hamda  $\psi_1$   $\psi_2$  burchaklar o'lchanadi.

Poligonometriya punktlarining koordinatalarini hisoblashda oxirgi nuqta (S) ning ma'lum koordinatalari kontrol bo'lib xizmat qiladi.

### Paralaktik poligonometriya



SHakl 5.2.5.

Paralaktik poligonometriyada poligon tomonlari bevosta o'lchanmaydi, balki boshqa yordamchi tomonlarning uzunligidan foydalanib xisoblab chiqariladi. Bu usul masofani o'lhash qiyin bo'lgan joylarda qo'llaniladi.

AVSD poligonometriya yo'li berilgan AV, VS, SD tomonlarini aniqlash uchun ularga perpendikulyar va simmetrik qilib av, mn va kl bazislар olinadi, bazislар joyda bevosta o'lchanadi va paralaktik burchaklar  $\Phi_1\Phi_2\Phi_3$  va  $\Psi_1\Psi_2\Psi_3$  ham o'lchanadi.

$$AB = d'_1 + d''_1 = \frac{b_1}{2} \left( \operatorname{ctg} \frac{\Phi_1}{2} + \operatorname{ctg} \frac{\Psi_1}{2} \right)$$

$$BC = d'_2 + d''_2 = \frac{b_2}{2} \left( \operatorname{ctg} \frac{\Phi_2}{2} + \operatorname{ctg} \frac{\Psi_2}{2} \right)$$

$$CD = d'_3 + d''_3 = \frac{b_3}{2} \left( \operatorname{ctg} \frac{\Phi_3}{2} + \operatorname{ctg} \frac{\Psi_3}{2} \right)$$

## **Plan olish shaxobchalari haqida umumiy tushuncha.**

Territorianing topografik planini olish uchun triangulyasiya, poligonometriyaga asoslanib, plan olish shaxobchalari quriladi.

Plan olish shaxobchasi triangulyasiya metodida qurilsa - analitik shaxobcha poligonometriya metoddasi qurilsa - **teodolit yo‘li** deb ataladi.


Balandlik plan olish shaxobchalari texnik va geodezik nivelerlash usullarida quriladi. Planli va balandlik plan olish shaxobchalari birgalikda yoki alohida-alohida qurilishi mumkin. Plan olish shaxobchalarining zichligi plan olish mashtabiga bog‘lik. Plan olish shaxobchalari davlat geodezik tayanch shaxobchalari va maxalliy shaxobchalar punktlari bilan birgalikda 1:5000 mashtabli plan olishda xar 1 km<sup>2</sup> joyga 4, 1:2000 mashtabli plan olishda 16-ta punkt to‘g‘ri keladigan qilib quriladi. 1:500 mashtabli plan olishda punktlar soni joy sharoitiga bog‘liq bo‘lib, rekognossirovka vaqtida aniqlanadi.

Teodolit yo‘li va analitik shaxobchalar punktlarining koordinatalari joyda burchak o‘lchash va masoфа o‘lchash natijalariga asoslanib chiqariladi.

### **5.4. Geodezik zichlashtirish to‘rlari va geodezik tasvirga olish to‘rlari.**

1 va 2-razryadli geodezik zichlashtirish tarmokdari 1:5000 va undan yirik mashtabli karta va planlarda yer sirtini tasvirlashda davlat geodezik tarmokdari etarli bulmaganda kullaniladi.

**Planli zichlashtirish tarmoqlari** ham davlat geodezik tarmoqlari singari trian-gulyasiya, poligonometriya va ularning kombinatsiyalari va ayrim punktlari ko‘rinishi-da quriladi. Aniqligi buyicha ular 2 razryadga bo‘linadi. Tarmoqning eng ko‘p tarqal-gan sxemalariga *geodezik turtbuchak, markaziy sistema, uchburchaklar zanjiri, yakka punktni uchburchakka qo‘yish, guruh punktlarini qo‘yish, uzluksiz triangulyasiya qatori, yakka bir tugunli poligonometriya sistemasi* va boshqalar ko‘rinishida yaratiladi (5.4.1. - shakl).



Uzluksiz triangulyasiya tarmogi davlat geodezik tarmog‘ining kamida 3 ta punktiga tayanishi kerak, ayrim zanjir va sistemalar kamida ikkita punktga tayanadi.

Zichlashtirish geodezik tarmogi yasash sxemasini tanlash joyning topografik sharoitiga, quyilgan vazifaga bog‘liq va u 1:10 000, 1:25 000 mashtabli planlarda tuziladi. Punktlar o‘rni joy bilan batafsil tanishilgandan so‘ng tanlanadi. Triangulyasiyapunktlari borish oson boradigan, uzoq saqlanadigan, tez topish mumkin bo‘lgan joyda o‘rnataladi.

Zichlashtirish tarmoqlarida hamma burchaklar o‘lchanadi, punktlar holatini kesish-tirish usulida aniqlashda kamida 3 ta yo‘nalish o‘lchanadi. Zichlashtirish geodezik tarmog‘ipunktlari uzoq muddatli ular holatining o‘zgarmasligini ta’minlaydigan markazlar bilan mahkamlanadi (5.4.1. - shakl, a).

Zichlashtirish balandlik tarmoqlari asosan davlat nivelerlash punktlari orasida texnik nivelerlashni o‘tkazish orqali yaratiladi.

Texnik nivelerlash aniqligi yo‘l bo‘yicha nisbiy balandliklarni yig‘indisida bog‘lanmaslikni quyidagi formulada hisoblanadigan chekli xatoligif<sub>chekli</sub> = 50√L, mmbilan tavsiflanadi, bunda L- yul uzunligi, km da.


Nishabligi katta joylarda, 1 km yo‘lda bekatlar soni 25 dan ortiq bo‘lganda chekli bog‘lanmaslik mikdori quyidagi formulada hisoblanadi:

$$f_{chyoki} = 10\sqrt{n}, \text{ mm} \quad (8.2)$$

- bunda p — yulda shtativ (bekat)lar soni.


Texnik nivelerlashda IV sinf nivelerlash tarmog‘iga hamma punktlar kiritiladi.

A



SHakl 5.4.1. Geodezik zichlashtirish tarmoklarini yaratish sxemalari: **a** — geodezik turtburchak; **b** — markaziy sistema; **v** — uchburchaklar zanjiri; **g** — yakka uchburchakka kiritish; **d** — gurux, punktlarini kiritish; **e** — bir tugunli

poligonometriya yuli.



Triangulyasiya va poligonometriya		Triangulyasiya		Poligonometriya	
Tomon uzunligi, L km	Burchak ulchash urta kvadratik xatoligi	Uchburchakda yul kuyiladigan xatolik chyoki	CHikish (bazis) Tomon ulchash nisbiy xatosi	Burchak Bog'lanmasligi	Yul kuyiladi-gan CHizikli boglanmaslik
0,5-5	5"	20"	1:50000	10 : $\sqrt{n}$	1:10000
0.25-3	10"	40"	1:20000		1:5000

### 5.5. Geodezik to'r punktlarini maxkamlash.


Panli va balandlik davlat geodezik tarmog'i va zichlashtirish geodezik tarmog'i punktlari uzoq muddatli bo'lib, ular holatining o'zgarmasligini ta'minlaydigan belgilari bilan erda mahkamlanadi va belgilanadi.

Erdagi geodezik belgilari konstruksiyasiga qarab turlarga, piramidalarga, oddiy va murakkab signallarga bo'linadi.

**Turlar**— bu qoyaga mahkamlangan marka ustida quriladi, toshdan, gishtdan, be-tondan, temir betondan yasalgan ustunlar bo'lib, ularni tog'li erlarda o'rnatiladi. (5.5.1. -shakl, a). Qarash moslamalari tur ustida yoki turdag'i markada o'rnatiladi. Asosiy markaning ustida ikkinchi va uchinchi markalar joylashtiriladi.

**Piramidalar** yondosh punktlarga erdan ko'rinishi mumkin bo'lgan ochiq joylarda quriladi. Ular uch va to'rt qirrali, oddiy shtativli va vexali bo'ladi. Piramidalar balandligi 5 m dan 8 m gacha. Piramidalar va ularning o'lchamlari 5.5.1.b -shaklda kursatilgan.

Oddiy signallar ikki piramidali : asbob o'rnatish uchun xizmat qiladigan ichki va kuzatuvchi uchun tashqi platformadan iborat. Oddiy signallar 4 – 10 m balandlikka ega. Tashqi piramidalar asosan to'rt qirrali, ichkarilari uch qirrali (5.5.1.v).



SHakl 5.5.1. Geodezik belgilari: a – turlar; b – oddiy piramida; c – tashqi piramida; d – murakkab signal.


**Murakkab signallar** 10 m dan 40 m gacha balandlikka ega bo'lib, murakkab uch qirrali va turt qirrali ko'rinishda quriladi; ichki piramida tashqisi ustunlariga tayanadi, ya'ni ular yagona konstruksiyani ifodalaydi (5.5.1.g - shakl). Erosti belgi (markaz)lari, turlari ishlar rayoni fizik-geografik sharoitlariga, grunt tarkibiga va tuproqning muzlash chukurligiga karab o'rnatiladi.

## **6. Global navigatsion pozitsionlash (GPS) tizimi yordamida geodezik to'r yaratish to'g'risida tushuncha.**

Fan va texnikaning oxirgi 10 yillikda tez rivojlanishi natijasida koordinatalar va nisbiy balandlikni anqlashning yangi usuli sun'iy yo'ldoshlar tizimi GPS priemniklar vujudga keldi. Ananaviy geodezistlar qo'llab kelgan usuldan o'laroq GPS da ishslash qulayroq. GPS -priborlarni xalq xo'jaligidagi o'rni nimadan iboraligini yuqorida takidlab o'tdik. Xozir zomonaviy 2 ta sun'iy yo'ldoshlar sestemasi mavjud. Rossiya davlatining GLONASS (Globalnaya Navigatsionnaya Sun'iy yuldushoviy sistema) va AQSH ning NAVSTAR GPS sistemasi (Navigation System with Time And Ragind Global Positioning Sestem) - navigatsionnaya sestema opredeleniya rasstoyaniy i vremeni globolnaya sistema pozitsionirovaniya. Pozitsionirovanie - deganda koordinatani aniqlash tushuniladi. Ikki sestema ham harbiy masalalarni echishda qo'llaniladi. GPS razrabotkasi 1970 yillarda boshlangan, birinchi sun'iy yuldush 1973 yilda uchirilgan 1983 yilda sistema xalq xo'jaligida qo'llanila boshlagan.


**GPS sistemasining tuzilish segmentlari** GPS va GLONASS sistemalari 3-ta segmentga bo'linadi.

a) Kosmik segment



Sunnyi yuldushlar majmuasi. Erdan yuborilgan har bir yo'ldoshda quyosh batareyasi. Dvigatel. YUqori aniqlikdagi atom chastotali soat, Etalonlashtirilgan radiosignalarni qabul qiluvchi va yuboruvchi aparat, bort kampyuterlari. Sistema kosmik aparatlari soni 24 sun'iy yo'ldoshdan iborat. SHundan 3 tasi zaxira. 4 tadan 60 gradusli 6 ta orbita tekisligida joylashgan. Ekvatorga nisbatan orbita tekisligi 55 gradusga ega. Sun'iy yo'ldoshning o'rtacha joylashuv balandligi 20180 km erdan va yer markazidan 26600 km sun'iy yo'ldoshlarning bunday joylashuvi yerning istalgan nuqtasida 4 sun'iy yuldush bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega. Sun'iy yo'ldoshlarning to'liq aylanish sikli 11 soat 57 minut 58.3 sek. vaqtini tashkil qiladi. SHuning uchun sun'iy yo'ldosh bir kun oldin turgan joyidan 4 min. oldin keladi.

b) Erdan boshqarish va tekshirish (kontrol)



Расположение станций Сегмента Управления.

NKU-sun'iy yuldoshlarni tekshirish va boshkarish xizmati vaktni anikaniklash va sun'iy yuldoshlarga informatsiya yigish .Kerakli ma'lumotlarni sun'iy yuldosh xotirasida yaratish (xar 2-sutkada)

- v) AP - GPS aparati, sun'iy yuldosh signalini kabul kiluvchi apparat priyomnik



### **GPS-sistemasida kosmik yo'ldoshlarinig xarakatlanishi. SRS sistemasida qo'llaniladigan koordinatalar sistemasi.**

Sun'iy yuldoshlarning harakatlanishi-koinot mehanikasi asosida vujudga kelgan - inersiya kuchi va yerning tortishish kuchi asosidan Kellyerning koinot jisimlari to'g'risidagi 1-qonuni Nyutonning 2-qonuniga asoslanib harakatlanadi.

Nyutonning sun'iy yo'ldosh og'irlik markazining harakatlanishi inersial koordinatalar sistemasida XoUoZo quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$F = mg$$

bu erda *F*-yerning tortishish kuchi

*m*- sun'iy yuldoshning ogirligi

*g* - vektorning markazdankochma tezlanishi, yoki

#### **Nazorat savollari:**

1. Poligonometriya turlari
2. Triangulyasiya usulida tomonlarni xisoblash
3. Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo etish usulari
4. Geodezik tayanch shaxoblari turlari.

#### **Adabiyotlar:**

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.

2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamGASI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi,1975 y.
5. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O'qituvchi – 1984 y.
6. Internetdan olingan ma'lumotlar www.colibri.ru, bolshe.ru.  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

## M A ' R U Z A №6

### BURCHAK O'LCHASH. MASOFA O'LCHASH

#### R E J A

1. Gorizontal burchak o'lchash tamoyili. Teodolitlar.
2. Teodolitlarning asosiy qismlari. Teodolitning tuzilishi.
3. Teodolitlarni tekshirish va sozlash.
4. Teodolit bilan gorizontal burchak o'lchash. Teodolit bilan vertikal burchak o'lchash.
5. CHiziq o'lchash uchun asboblar. O'lchash asboblarini komparirlash.
6. Joydagi chiziqni o'lchashda tuzatmani hisobga olish. O'lchash aniqligi.
7. Borib bo'lmas masofani aniqlash. Svetodalnomery va radiodalnomerlar xaqida tushuncha.


**Tayanch so'zlar:** Teodolit, limb, qiyalik burchak, shtativ, shovun, adilak, taglik, , alidada, verner, qarash trubasi. Lentalar, ruletka, svetodalnomer, radiodalnomer, chizik olish komparlash tuzatmasi.

#### 6.1. Joyda burchak o'lchash tamoyili.

Joyda gorizontal va vertikal burchak o'lchanadi. Gorizontal burchak o'lchash prinsipini misolda ko'rib chiqamiz.

Joyda A, V, S nuqtalar berilgan deylik (6.1.1.- shakl ). A nuqtadan R tekislik o'tkazamiz. V, S nuqtalarni R tekislikka proeksiyalaymiz. SHunda Av va As chiziqlar hosil bo'ladi. Av va As chiziqlar va AA' tik chizig'idan o'tuvchi M va N vertikal tekisliklar o'tkazamiz.

Demak A nuqtadan chiqqan ikkita yo'nalish AV va AS ning gorizontal R tekislikdagi proeksiyalari ( Av va As) orasida hosil bo'lgan burchak  $\beta$  - gorizontal burchak bo'lib hisoblanadi.  $\beta$  burchakning qiymatini topish uchun AA' tik chiziqqa gradus va minutlarga bo'lingan doira **limb** o'rnatilgan deb faraz qilamiz. Doirada av' va as' tomonlar orasidagi yoy b'c' o'lchanishi kerak, ya'ni  $\beta'$  burchak.



SHakl 6.1.1

Vertikal burchak - **qiyalik burchak** deb ham ataladi. Masalan: AV bilan Av orasidagi burchak qiyalik burchagi. Qiyalik burchagi  $\alpha_1$ ,  $\alpha_2$ ;


Joyda gorizontal burchakni o'chashda ishlataladigan asbob quyidagi qismlardan iborat: limb, alidada. Ana shunday asbob - **teodolit** deb ataladi

### Teodolitlar.


Teodolit nuqtaga **shtativ** va **shovun** yordamida o'rnatiladi. Teodolit to'g'ri o'rnatilganligi - **adilak** yordamida tekshiriladi. Teodolit bilan vertikal burchak o'chash mumkin.

#### 6.2. Teodolitning asosiy qismlari (6.2.1 – shakl):

- |                       |                          |
|-----------------------|--------------------------|
| 1 – limb              | 11.- qarash trubasi      |
| 2 – alidada           | 12.- gorizontal o'q      |
| 3 - aylanish o'qi     | 13.-alidada tayanchi     |
| 4 - kovak o'qi        | 16,14.- maxkamlash vinti |
| 5 – taglik            | 17,15.- yo'nalish vinti  |
| 6 – shtativ           | 18.- vint                |
| 7 - ko'tarish vintlar | 19.- lupalar             |
| 8 - o'rnatish vintlar |                          |
| 9 - ilgak             |                          |
| 10 - shovun           |                          |



SHakl 6.2.1.



SHakl 6.2.2.

#### Teodolitni o'rnatish qismlari:

**Shtativ** - metall yoki yog'ochdan yasalgan erdan birmuncha ko'tarilib, ishlash uchun qulaylik tug'diradi.

**Shovun** - oddiy va optik bo'ladi. Oddiy shovun - og'irligi 100 - 150 gr keladigan uchli metall qadoqtoshdan iborat.

**Taglik** - teodolitning ish qismini shtativga birlashtiradi.

**Adilak** - geodezik asboblarning o'qlarini gorizontal yoki vertikal holatga keltirish hamda ish paytida asbobning holatini kuzatish uchun xizmat qiladi. Silindrik va doiraviy bo'ladi.

#### Teodolitning ish qismlari:

**Limb** - metall yoki shishadan ishlanadi. Limb - teng qilib shtrixlarga bo‘linadi. Limb bo‘laklarining har  $10^\circ$ ,  $5^\circ$ , yoki  $1^\circ$  qiymati soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha  $0^\circ$  dan  $360^\circ$  gacha raqamlar bilan belgilangan.

**Alidada** - doira, o‘qi limb vtulkasi ichiga kirib turadi. Gorizontal va vertikal burchaklarni o‘lchashda bu burchaklar teodolitining gorizontal va vertikal doiralariga proeksiyalanadi va limbdan alidada ko‘rsatkichi yordamida sanoq olinadi.

**Vernyer** limbdan sanoq olish aniqligini oshirish uchun alidadaga chizilgan shkaladan iborat. Vernyer aniqligi  $t = 1/n+1$ .

1 - limb bo‘lak qiymati.

n - bo‘laklar soni.

Limb va vernerdan sanoq olishda lupadan foydalilanadi.

**Qarash trubasi** - asosiy ish qismidan biridir, nuqtani aniq nishonga olish uchun xizmat qiladi.

Teodolitlar tuzilishi, aniqligi va boshqa xususiyatlari jixatidan bir necha xil bo‘ladi.

Limbning taglikka biriktirilishiga qarab - oddiy va takroriy teodolitlarga bo‘linadi. Oddiy teodolitlar - limb taglikka aylanmaydigan qilib biriktirilgan.

**Takroriy** teodolitlar - limb taglikka aylanadigan qilib biriktiriladi, bu teodolitlar bilan aniqroq o‘lchash mumkin. SHuning uchun ko‘proq takroriy teodolitlar ishlab chiqarilmoqda.

Teodolitlar limbi shishadan yoki metalldan ishlab chiqiladi. **SHisha limbli** teodolitlar - optik teodolitlar deyiladi. **Metall limbli** teodolitga nisbatan ixcham, engil va ishlatilishi osondir. Keyingi yillarda ko‘proq optik teodolitlar ishlab chiqarilmoqda.

Aniqligi jixatidan teodolitlar - *aniq, juda aniq vatexnikaviylargal* ajratiladi. Masalan, gorizontal burchak o‘lchashda juda aniq teodolit bilan -  $2'',0$  gacha, aniq teodolit bilan  $2'',0 - 10'',0$  gacha, texnikaviy teodolit bilan -  $15'' - 30''$ . Masalan: T-2 bilan  $2''$  gacha xato, T-10 -  $10''$  gacha; T-30 bilan  $30''$  gacha xato bilan o‘lchash mumkin. Texnikaviy teodolitlarni ko‘rib chiqamiz:

Plan olish va injenerlik ishlarida - metall limbli teodolitlar ishlatiladi. TM-1 - boshqa metall limbli teodolitlardan ixcham va engil. buteodolit injener-qidiruv ishlarida juda qulaydir. Limbning bo‘lak qiymati -  $20'$ .

TT-% - teodolitning asosiy qismlari engil va chidamli alyuminiy qotishmasidan yasalgan. Bu teodolit plan olish va qurilish ishlarida keng qo‘llaniladi. Ish qismi taglikdan ajratiladi. Vertikal doirasiga bussol o‘rnatish mumkin. Teodolitning shtativ bilan og‘irligi 3,2 kg.

TN - teodolit-nivelir, tuzilishi bo‘yicha TT-5 ga o‘xshaydi. Faqat uning qarash trubasi ustiga silindrik adilak o‘rnatilgan, shu sababli uni niveler sifatida ham ishlatish mumkin. Og‘irligi (shtativ bilan) 3,2 kg.

TTP - loyihalash teodolit taxeometr. TN teodolitga o‘xshaydi. Unda ham qarash trubasi ustiga silindrik adilak o‘rnatilgan.

### **Texnikaviy optik teodolitlar:**

Optik teodolitlar ixcham, engil. Bular bilan burchak o‘lchash nisbatan osonroq. Faqat tuzilishi murakkabroq. Limbli shishadan ishlangan. Vertikal va gorizontal doiralardan sanoq olish uchun qarash trubasi okulyari yoniga maxsus mikroskop o‘rnatilgan.

TOM - bu kichik teodolit takroriy teodolit bo‘lib, burchakni  $30''$  aniqlikda o‘lchaydi. Plan olish shaxobchalarini barpo etishda, injener-qidiruv ishlarida va qurilish ishlarida qo‘llaniladi. Teodolitning asosiy qismlari engil va chidamli qotishmalardan ishlangan. Teodolitga bussol o‘rnatib yo‘nalishlar magnit azimutini o‘lchash mumkin. Og‘irligi 2 kg.

OMT-3 - bu teodolitning qarash trubasining vizir o‘qi maxsus kompensator yordamida avtomatik ravishda to‘g‘rilanadi. Bu teodolitning gorizontal va vertikal doiralarining limbi shishadan yasalgan bo‘lib, diametri 80 mm. Limb bo‘laklar qiymati  $1^\circ$ . Teodolitning og‘irligi 2,8 kg.

### 6.3. Teodolitlarni tekshirish va sozlash.



SHakl 6.4.1.

Teodolitlar ma'lum mexanik, optik va geometrik talablarga javob beradigan qilib yasaladi.

Teodolitni ishlatischdan oldin uni sinab va tekshirib, kamchiligi bor-yo'qligini aniqlash, topilgan kamchiliklarni yo'qotishga xarakat qilish kerak. Sinash bilan tekshirishni farqi bor.

**Sinash** paytida teodolit ayrim qismlari ma'lum talablarga mos kelish-kelmasligi va detallarni benuqson ishlashi, limb bo'laklarni qiymati to'g'riligi, adilak pufakchsi erkin va ravon qo'zg'alishi, buyumlar ko'rish trubasidan ravshan ko'rinishi.

**Tekshirish** deganda, uning tuzilishi sharti bo'yicha ayrim qismlari o'rtasidagi o'zaro geometrik nisbatlarni aniqlash tushuniladi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilib, ayrim qismlari o'zaro munosabatini keragiga moslashga teodolitni sozlash (yustirovka) deyiladi. Teodolitni sinash va tekshirishdan avval uning shtativga mustaxkam o'rnashganligini, limb alidada, qarash trubasi o'qlari atrofida ravon aylanishi, maxkamlash, ko'tarish va yo'naltirish vintlari to'g'ri va bemalol buralishini aniqlash kerak. Teodolitni tekshirganda quyidagi talablar bajarilishi shart:

1. Gorizontal doira har bir adilagining o'qi teodolitning asosiy o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak;
  2. Qarash trubasining vizir o'qi aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak;
  3. Qarash trubasining aylanish o'qi teodolitning aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak;
  4. Iplar to'rining vertikal chizig'i trubaning aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak.
- Yo'nalishlar azimutini o'lchashdan oldin teodolitning bussolini ham tekshirish kerak.

### 6.4. Teodolit bilan gorizontal burchak o'lchash.

Burchakni o'lchash uchun teodolit avvalo o'lchanadigan burchak uchiga (nuqtaga) o'rnatilishi, so'ngra nuqtaga markazlashtirilishi, asbobning aylanish o'qi vertikal holatga keltirilishi va qarash trubasi kuzatish uchun moslanishi lozim.

- Teodolitlarni nuqtalarga markazlashtirish uchun, uning o'rnatish vinti uchidagi ilgakka shovun osiladi, so'ngra shtativ nuqta ustiga aniq gorizontal xolatda, shovun taxminan nuqtalarga to'g'ri keladigan qilib o'rnatiladi, shtativ oyoqlari erga botiriladi. O'rnatish vinti bo'shatiladi, asbob shtativ ustiga surib, shovun joydagi nuqtalarning markaziga to'g'ri keltiriladi, keyin o'rnatish vinti burab maxkamlanadi;

- Teodolit aylanish o'qini vertikal xolatga keltirish uchun teodolitning gorizontal doirasidagi adilak o'qi taglikdagi ikkita ko'tarish vintiga nisbatan parallel vaziyatga keltiriladi, adilak

pufakchasi naychaning qoq o'rtasiga kelguncha ko'tarish vintlari qarama-qarshi tomonga buriladi, keyin  $90^0$  burib uchinchi vinti ham buraladi.

- Qarash trubasini joydagи buyum ravshan ko'rinaligan qilib moslash uchun truba orqali yorug' fonga (osmon, oq devor) qaraladi va trubada iplar to'ri yaqqol ko'rina boshlaguncha okulyar aylantiriladi, keyin buyum aniq ko'ringuncha kramaleri vinti aylantiriladi. Trubani bunday sozlashga fokuslash deyiladi.

### Teodolit bilan vertikal burchak o'lhash.

*Vertikal burchak aniqlanayotgan nuqtaga yo'naltirilgan trubaning ko'rish o'qiVV' bilan gorizontal tekislik orasidagi burchakovbo'ladi* (6.7.1- shakl). Bu burchak nisbiy balandlik va chizik, gorizontal quyilishini aniqlashga kerak bo'ladi, teodolit verti-kal doirasida o'lchanadi. Vertikal doira ko'rish trubasi bilan birgalikda aylanadi-gan limb va qo'zg' almas alidadadan iborat. Vertikal burchakni ulchashda burchak tomonlaridan biri ko'rish o'qi yo'nalishi VV' bo'lsa, ikkinchi tomoni sanoq olish moslamasi noli OO' bo'ladi (6.7.1- shakl).


NO'qiymati  $0^{\circ}03'$  bo'lGANI uchun ( $v=CH - NO'$ ) va ( $v=NO' - O'$ ) formulalardan foydalanib bo'lmaydi. SHuning uchun nol o'rni qiymati nolga quyidagicha keltiriladi. *Oxirgi sanoqni olishda truba nuqtaga qaratilgan holicha qoldirilib, truba qaratish vinti 14* (6.2.1 - shakl) yordamida hisoblangan O qiymatiga teng sanok, limbda qo'yiladi. Natijada iplar to'ri kuzatilayotgan nuqtadan siljiyi. Iplar to'rini vertikal tuzatkich vintlarini burash orqali uning markazi nuqta tasviri bilan tutashdiriladi. Tekshirish uchun NO'qiymati boshqa nuqtani kuzatish orqali qaytadan topilib, uning nolga yoki unga yakin songa kelttirilganligiga ishonch hosil qilinadi.

### 6.5. Chiziq o'lhash uchun asboblar.

O'lchanadigan chiziq joyda chiziq olish yo'li bilan belgilangach, turli chiziq o'lhash qurollari bilan uning gorizontal qo'yilishi o'lchanadi. CHiziq uzunligi bevosita o'lhashda osma asbobolar yoki erda o'lhash qurollari ishla-tiladi. CHiziq o'lhashda katta aniqlik talab qilinmasa, lenta yoki ruletka ish-latiladi.

**Lentalar** 20, 24, 50 metrli bo'ladi. Ular L3 – 20, L3 – 24, L3 – 50 deb nomlanadi. Lentalar ichida L3 – 20 hamadan ko'p ishlatiladi. Lenta eni 15 – 20 mm, qalinligi 0,4 – 0,6 mm li po'lat tunukadan yassaladi, bu lentani olib yurishda uni diametri 20 – 25 sm bo'lgan temir halqaga o'rab vint bilan mahkamlanadi. O'lhashda har qaysi lentaning 6 yoki 11 ta sixchasi bo'ladi.

Lenta uchlari shtrixli va shkalali bo'ladi. SHtrixli lenta ko'proq ishlatiladi. CHiziqni aniq o'lhashda shkalali lenta L3SH ishlatiladi.



SHakl 6.5.1. Yer o'lhash lentasi: a – o'lhashda, b – stanokda, v – sixchalar. 1 – shtrix, 2 – halqa, 3 – piston, 4 – plastinka, 5 – teshik, 6 – o'lhash bajariladigan chiziq, 7 – dasta.

**Ruletka** – chiziq o'lhashda yordamchi qurol sifatida ishlatiladi. U metall va tasma (materiya) dan tayyorlanib, uzunligi 5, 10, 20 metr bo'ladi. Ruletka maxsus g'ilofga o'ralgan holda olib yuriladi.

## O'lhash asboblarini komparirlash.

Geodeziyaning hamma ishlarida ishlataladigan asbob ishlatishdan oldin tekshiriladi. Lentalar uzunligini tekshirish lentani komparlash deyiladi. Komparlash maxsus joyda ( komparatorda ) uzunligi aniq ma'lum bo'lgan namunaviy asbob ( etalon ) uzunligi bilan taqqoslanadi. Komparlash dala sharoitida o'tkaziladigan bo'lsa, tekis joyda etalon lenta bilan tekshiriladigan lenta yonma – yon qo'yilib , ikkalasining 0 shtrixlari to'g'rilariladi, keyin lentalar tarang tortilib , ikkinchi uchlaridagi farq millimetr hisobida o'lchanadi. Agar lentaning nominal uzunligi  $l_N$ ,*ish lentasining uzunligi l desak , ular o'rtasidagi farq  $\Delta l$  quyidagicha aniqlanadi:*

$$\Delta l = l - l_N \text{ yoki } l = l_N + \Delta l$$

Agar ish lentasi normal lentadan katta bo'lsa  $\Delta l$  - musbat, kichik bo'lsa - manfiy bo'ladi.  $\Delta l$  – komparlash tuzatmasi deyiladi.


## 6.6. Joydagи chiziqni o'lhashda tuzatmani hisobga olish

Burchak o'lhash uchun geodezik asbob o'rnatiladigan burchak uchlari va o'lchanishi kerak bo'lgan chiziqning bosh va oxirgi nuqtalari joy sharoiti,o'lhash aniqligi va saqlanish muddatlariga qarab doimiy markaz, vaktinchalik eg'och yoki metaal qoziqlar (6.6.1.shakl ) bilan mahkamlanadi, eg'och qoziqlar uzunligi 60 sm gacha bulib,ular erdan 2 sm gacha chiqarib qoqlidi va atrofiga uchburchak, kvadrat yoki doira shaklida chuqurchalar o'yiladi (6.6.1.b,v.shakl )

CHiziklarni o'lhashda nuqtalar o'zaro ko'rinishini ta'minlash uchun ular uchla-riga uzunligi 2 m gacha taeqcha - vexalar urnatiladi(6.6.1. a shakl ), chiziq uzunlik-lari 200m dan oshganda lentani chiziq uchlaridan utuvchi vertikal tekislikda — stvorda yotqizish uchun qushimcha vexalar o'rnatiladi va buni *chizik, olish* deyiladi.

CHiziq olish uchun ishchi A nuqtada o'rnatilgan veva orqali V nuqtadagi vexaga qaraydi (6.6.1. g. shakl ). Ishchining kursatmasiga binoan erdamchi 1- vexani V nuqta yaqiniga uni byokitadigan qilib urnatadi.SHu tartibda 2., va boshqa vexalar o'rnatiladi. Qo'shimcha vexalar o'rnatish V nuqta yaqinidan boshlangani uchun bunday chiziq otish *uziga chizik olish*, chiziq ochish A nuqta yaqinidan boshlansa, *o'zidan chiziq olish* deyiladi. A nuqtadan V nuqta ko'rinnagan taqdirda AV chiziq yaqinida D<sub>1</sub>nuqta tanlanadi.DA chiziqda S<sub>1</sub>,nuqtaga veva o'rnatiladi, bu nuqtadan S<sub>1</sub>V chizig'ida D<sub>2</sub>, nuqta topiladi (6.6.1. d.shakl ).

SHu tartibda bir necha yaqinlashish orqali A nuqtada D<sub>1</sub> V nuqgadan esa S nuqtalari ko'rindigan vexalar AV chiziq ustida o'rnatiladi. Jarlik orqali chiziq olish (6.6.1. e.shakl ) ham yozilgan tartibda amalga oshiriladi.




### **SHakl 6.6.1.Nuqtalarni belgilash va chiziq olish usullari**

*a*—vexa, *b*—nuqta, *v*—vaqtinchalik reper, *g*—uziga, *d*—dunglik orqali, *e*—jarlik orqali

Talab qilingan aniqlikka qarab chiziq uzunligi ruletka, po'lat lenta, invar sim, ipli, optik va elektro-magnit dalnomerlar yordamida o'lchanadi.

Injenerlik ishlardida chiziq uzunligini o'lhashda ko'pincha 20 m li po'lat len -ta qo'llaniladi (6.6.2 shakl). Saqlash, tashish, ko'tarib yurish qulay bo'lishi uchun po'lat lenta temir halqaga o'raladi. Lenta shtrixli, shkalali va uchli bo'ladi. Lenta komplektida 6 yoki 11 ta temir sixchalar mavjud. SHtrixli lentaning no-linchi shtrixi sixcha qo'yiladigan halqa oldiga chizilgan. Lentada har bir metr ikki tomondan yozilgan plastinka, yarim mef piston, detsimetrlar bo'lagi — santimetrlar ko'z bilan chamalab olinadi.O'lhashlardan oldin ishchi lenta uzunli-gi  $l$  ni katta aniqlikda ma'lum bulgan, normal lenta uzunligi  $l_N$  bilan taqqoslanadi va ular farqi uchun tuzatma  $\Delta l = l - l_N$  aniqlanadi.

Chiziq o‘lchashni ikki kishi bajaradi (6.6.2.shakl ). Orqadagi ishchi nolinchi shtrix halqasini chiziq boshlanishiga qadalgan sixchaga iladi va yordamchiga lentani chiziqdiga yotqizishga ko‘rsatma beradi. Bunga zrishilgach, yordamchi lentani silkitib malum (5 kg) kuchlanish bilan tortadi va halqasiga qo‘lidagi



SHakl 6.6.2. CHiziqni lentada ulhash

sixchalardan birini o'rnatadi. Orqadagi ishchi sixchani sug'irib oladi, so'ngra lenta yordamchi tomonidan keyingi oralijqa suriladi va yuqorida yozilganidek ish takrorlanadi. Har yuz metrli kesma o'lchangach, bir sixcha erda, 5 ta six esa orqadagi ishchi qo'lida YIRI-ladi va ular oldingi ishchiga uzatiladi. Oxirgi sixchadan chiziq uchigacha bo'lgan 20 m dan kichik bo'lak sanog'i g-qoldiq lentadan olinadi. O'lchanagan chiziq uzunligi quyidagi formula bo'yicha hisoblaiadi.

$$D = nl + r + n \Delta l \text{ bu formulada,}$$

$n$  – orqadagi ishchida bo'lgan sixchalar soni,  $r$  – qoldiq,  $\Delta l$  – lenta uzunligi uchun tuzatma.

Topilgan chiziq uzunligi uni teskari yo'nalishda o'lhash orqali tekshiriladi. CHizikni lentada o'lhash qulay joylarda 1:3000, o'rta sharoitda 1:2000, noqulay joylarda esa 1:1000 chekli xatolik bilan o'lchanadi.

To'g'ri va teskari yo'nalishlarda o'lchanagan chiziq uzun-liklari qiymatlardagi farqlar tegishlicha 1:2000, 1:1500, 1:1000 bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

### O'lhash aniqligi.

CHiziq uzunligini katta aniqlik bilan o'lhash zarur bo'lsa, lenta uzunligi-ning havo temperaturasiga qarab o'zgarishi e'tiborga olinadi va temperatura tuzatmasi  $\Delta D_t$  qo'shiladi. Agar lentani komparlashdagi temperaturasi  $t_k$ , o'lhashdagi havo teperaturasi  $t$  bo'lib, bular orasidagi farq  $10^0$  va undan katta bo'lganda temperatura tuzatmasi  $\Delta D_t$  quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta D_t = \alpha * D (t - t_k)$$

Bu erda  $\alpha$  – po'lat lentaning kengayish koefitsienti.  $\alpha = 0,000012$  ga teng.

Po'lat lenta bilan yer yuzasida chiziq o'lhash aniqligiga joyning baland – pastligi, tuproqning tuzilishi, o't-o'lanlar kabi faktorlar katta ta'sir etadi. Lentaning chiziq stvorida to'g'ri yotmasligi ham aniqliknini kamaytiradi. SHuning uchun chiziq o'lhash aniqligi joy tuzulishiga qarab baholanadi. CHiziqni o'lhash aniqligi nisbiy xato bilan baholanadi. Agar bir chiziq ikki marotoba o'lchanib  $D_1$  va  $D_2$  qiymatlari topilgan bo'lsa, ularning arifmetik o'rta qiymatini  $D_0$ , ikki o'lhash ayrimasini  $\Delta D$  desak, unda:

$$D_0 = (D_1 - D_2) / 2, \Delta D = D_1 - D_2$$

$\Delta D$  – absolyut xato. SHunda nisbiy xato quyidagicha yoziladi  $\Delta D / D$ . CHiziq o‘lchanadigan joyni uch turga bo‘lsak, shu joylarda o‘lhash aniqligi quyidagi chekda bo‘lishi kerak:

- |   |          |
|---|----------|
| I kategoriyadagi joy tekis va o‘lhash sharoiti yaxshi | - 1:3000 |
| II kategoriyadagi joy o‘rtacha qulay                  | - 1:2000 |
| III kategoriyadagi joy noqulay                        | - 1:1000 |

### 6.7.Borib bo‘lmas masofani aniqlash


Daryo, jarlik, botqoqlik va boshqa to‘siklarni kesib o‘tadigan

chiziklarni lentada o‘lhashning iloji bo‘lmaydi. Bunday hollarda chiziq uzunligini aniqlash uchun bazis b va uchburchakning  $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ , burchaklari o‘lchanadi (7.5.1.shakl). Sinuslar teoremasi asosida chiziq uzunligi

$$S = b * (\sin \beta_1 / \sin \beta_2)$$

Formula orqali hisoblanadi. Bazis blentada o‘lhash qulay joyda va uchburchak 123 iloji boricha teng tomonli qilib tanlanadi. Uchburchak  $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ , burchaklarining har biri teodolit bilan to‘la qabulda o‘lchanadi. Ularning To‘g‘ri o‘lchanan-ligini iloji bo‘lsa  $\beta_3$ , burchakni o‘lhash orqali tekshiriladi.

$$U holda \beta_1 + \beta_2 + \beta_3 = 180^\circ, bo‘lishi kerak.$$



SHakl 6.5.1.. Bvosita o‘lchab bo‘lmaydigan masofani aniqlash

O‘lhash va hisoblashni tekshirish uchun ikkinchi uchburchak 234 dan o‘lchanan bazis  $b_2$  va  $a_2, a_3, a_4$  burchaklar orqali chiziq uzunligi qaytadan quyidagi formula bo‘yicha topilishi mumkin:

$$S = b_2 * (\sin a_4 / \sin a_2)$$

Hisoblangan chiziq uzunliklari nisbiy xatoligi 1:1000 dan oshmasa, ularning o‘rtacha arifmetik qiymati topiladi.

### Svetodalnomyer va radiodalnomerlar haqida tushuncha.

Zamonaviy geodezik chiziqli o‘lhashlar radio va optik diapazondagi elektromagnitli to‘lqinlardan foydalanuvchi elektronli dalnomerlarda bajariladi. Bunday dalnomerlarda masofa o‘lhash prinsipi o‘lchanadigan distansiya bo‘ylab elektromagnit to‘lqinlarini tarqalish tezligi va vaqtini aniqlashga asoslangan. Elektronli dalnometriyaning hamma metodlari asosida quyidagi munosabat yotadi:  $D = \theta * \tau / 2$ ;

Bunda: D — izlanayotgan masofa;  $\theta$  — atmosferada elektromagnit tulqinlari (EMT)ni tarqalish tezligi;  $\tau$  — EMTning oraliq bo‘ylab to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda tarqalish vaqt.

Har qanday dalnomerli apparatura tarqalish vaqtiga  $\tau$  to‘g‘risidagi infor-matsiyani etkazadi, t tezlik esa vakuumdagagi yorug‘lik tezligi  $s = 299792458 \pm 1,2 \text{ m/s}$  ma’lum qiymati va metereologik o‘lhashlar bo‘yicha aniqlanadigan atmosfera-da nurning sinish koefitsienti  $p$  dan foydalaniib,  $v = c/n$  formulada aniqlanadi.

Dalnomerli moslamalarda vaqtli interval  $\tau$  — bevosita o‘lchanadi yoki bu vaqtli intervalning ma’lum funk-siyasi bo‘lgan boshqa parametr aniqlanadi.

Masofa o'lhashning hamma metodlarining fizik mohiyati elektromagnit nurlanish bilan borliq bo'lgan ayni bir parametri o'lchanadigan ikkilangan distansiyadan oldin va o'tgandan keyin taqqoslashga asoslangan.

Buning uchun o'lchanadigan chiziqning bir uchida peredatchik (uzatkich) va priyomnik (qabul qilgich) bo'ladi. Ayni bir signal uzatkichdan priyomnikka bir vaqtida ikkita har xil yo'l bilan: bevosita (distansiyaga chiqmasdan) va o'lchanadigan distansiya orqali yo'naltiriladi. Birinchi yo'l tayanch kanaliyoki trakt, undan ketayotgan signal tayanch signaldeyiladi. Ikkinci yo'l distansiyali (informatsiyali) kanalni tashkil etadi va tegishlicha qaytargich (otrajatel)dan kelayotgan signal distansiyaliyoki informatsiyalisignaldeyiladi. Priyomnikda tanlangan parametr bo'yicha tayanch va informatsiyali signallarni taqqoslash amalga

oshiriladi yoki, boshqacha aytganda, o'lchangan masofa to'g'risida informatsiyaga ega bu parametr bo'yicha farq aniqlanadi (7.6.1.shakl).

Tayanch va informatsiyali signal-larni taqqoslash uchun tanlangan parametr o'lhash metodini aniklaydi. Bunday parametrlar sifatida nurlanish impulsining kelish vaqtini; uzluksiz yoki imnulslari nurlanishni modullashtiruvchi signal fazasi va boshqalar bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra masofa o'lhashning vaqtli (impul'syai)informatsiyali, fazali, chastotali metodlarifarqlanadi.

Masofa o'lhashning fazali metodi geodezik dalno-merlarda eng ko'p tarqalgan va bir necha metrdan o'nlab kilometrgacha masofalarni o'lhash uchun qo'llanadi. Amalda hamma sveto (yorug'lik) yoki radiodalnomerlar, shuningdek, ko'pchilik radiogeodezik sistemalar (RGS)da faqat shu metoddan foydalaniladi.

Fazali metodning asosiy prinsipi 7.6.2.shakl ko'rsatilgan. Eltvuchi to'lqinlar foydalanayotgai chastotalar diapazoniga qarab fazali dalnomerlar: har xil sifatli ikki sinfga — **svetodalnomerga va radiodalnomerga** bo'linadi.

**Svetodalnomerda** — eltvuchi to'lqinlar sifatida spektrning optik diapa-zonidagi — ko'rindigan yorug'lik yoki infraqizil nurlanish to'lqinlaridan foy-dalaniladi.

**Radiodalnomerda** — eltvuchi to'lqinlar sifatida radiodiapazondagi o'ta yuqori chastotali to'lqinlardan foydalaniladi. Odatda ular santimetrli yoki kamroq millimetrlri radioto'lqinlar.

### Nazorat savollari:

1. Teodolit yulini o'tkazishda nimalarga e'tibor berish kerak.
2. Rekognossirovka deb nimaga aytildi?
3. Teodolit yulini o'tkazishda qanday ishlar bajariladi.
4. Teodolitni ish qismlari.
5. Teodolitni o'rnatish qismlari.
6. CHiziq olish deganda nima tushuniladi.
7. Lentada chiziq o'lhash qanday bajariladi.
8. Lentada bevosita o'lchab bo'lmaydigan chiziq uzunligi qanday bajariladi.
9. Optik dalnomelar.
10. Ipli dalnomerlar.
11. Elektron dalnomerlar.

### Adabiyotlar:

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamGASI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi,1975 y.
5. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O'qituvchi – 1984 y.

**M A ‘ R U Z A №7**  
**GEOMETRIK NIVELIRLASH**  
**REJA:**

1. Geometrik niveliplashning mohiyati va usullari.
2. Yerning egriligi va refraksiyaning niveliplash natijalarga ta'siri.
3. Nivelirlar, ularning tuzilishi va ularni tekshirish, sozlash.
4. Niveliplash reykalari, ularning tuzilishi va ularni tekshirish, sozlash.
5. Texnikavi niveliplashni bajarish.
6. Trassaning profilini tuzish.
7. YUZani niveliplash. YUZani niveliplash natijalari bo'yicha topografik plan tuzish.
8. Aniq va yuqori aniqlikdagi niveliplash xaqida tushuncha.

**Tayanch so'zlar:** Asbob gorizonti, asbob balandligi, oddiy niveliplash, murakkab niveliplash, piket, bog'lovchi nuqta, oraliq nuqta, bo'ylama niveliplash, injener-texnik niveliplash, Uzala inshootla., Trassa, Kamerall trassalash.

### **7.1. Geometrik niveliplashning mohiyati va usullari.**

#### **7.1.1. Niveliplash usullari.**

Nuqtaning balandligini o'lchash yoki **niveliplash** yo'li bilan yer yuzidagi nuqtalarining bir-biriga yoki boshlang'ich deb qabul qilingan satxiy yuzaga nisbatan balandligi aniqlanadi.

Qo'llaniladigan usul va asboblarga qarab niveliplash quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Geometrik** niveliplash.
2. **Trigonometrik** niveliplash.
3. **Barometrik** niveliplash.
4. **Mexanik** niveliplash.
5. **Gidrostatik** niveliplash.
6. **Radio** niveliplash.
7. **Stereofotogrammetrik** niveliplash.

#### **7.1.2. Geometrik niveliplash.**

Bu usulda bir nuqtaning boshqa nuqtaga nisbatan balandligi gorizontal vizirlash nuri bo'yicha reykalardan bevosita sanoq olish yo'li bilan aniqlanadi. Niveliplashning bu usulida niveliplashda foydalaniadi. Geometrik niveliplashda nuqtalarining balandligi, niveliplashning boshqa turlariga qaraganda aniqroq topiladi.

Geodezik tayanch nuktalarini va plan olish nuqtalarining balandligini aniqlashda, turli masshtabda plan olishda, injenerlik inshootlarining loyihalarini tuzishda, bu inshootlarni qurishda, shuningdek geologik qidiruv ishlarida, yirik injenerlik inshootlarining cho'kishi va deformatsiyasini aniqlashda va shu kabi boshqa ishlarda geometrik niveliplash qo'llaniladi.

Niveliplash metodi va asboblari nuqtalar balandligining qanchalik aniq o'lchanishi zarurligiga qarab tanlanadi.

#### **7.1.3. Trigonometrik niveliplash.**

Niveliplashning bu turida ikki nuqta orasidagi qiyalik burchagi va masofa o'lchanadi, hamda o'lchash natijalaridan nuqtalarining bir-biriga nisbatan balandligi trigonometrik formulalar yordamida hisoblab chiqariladi. Teodolit-taxometr bilan qiyalik burchagi o'lchanadi. Trigonometrik niveliplash topografik plan olishda, balandliklardagi farq katta bo'lgan nuqtalarni, masalan, tog', tepalik va boshqa relef shakllarini, turli buyum va inshootlarning balandligini aniqlashda qo'llaniladi.

#### **7.1.4. Barometrik niveliplash.**

Bu metod erdan baland ko'tarilgan sari havo bosimining kamaya borishi qonuniyatiga asoslangan. Barometrik niveliplash natijasida nuqtalarining balandligi 1-2 metr aniqlikda topiladi.

SHuning uchun aniqlikda niveliplash talab qilinmaydigan ishlarda, masalan, turli ekspeditsiyalarda, geologik, geografik va boshqa tekshirishlarda biror joyning relefini dastlabki o'rganishda niveliplashning bu turidan foydalaniladi.

Barometrik niveliplashda barometr va boshqa asboblardan foydalaniladi.

#### **7.1.5. Mexanik niveliplash.**

Niveliplashning bu usulida maxsus avtomat-niveliplashlatiladi. Bu asbob velosiped, mototsikl yoki avtomashinaga o'rnatilgan bo'ladi. Avtomat niveliplash o'rnatilgan mashinada bosib o'tilgan yo'lning profili qog'ozda, avtomatik ravishda chizilib boradi. Bu usulda joyning profili boshqa usuldagiga nisbatan osonroq va tezroq tuziladi, lyokin anikligi juda kam bo'ladi. SHuning uchun mexanik niveliplashdan katta aniqlik talab qilinmaydigan ishlarda, masalan, yo'l qurilishida va joyning relefini dastlabki o'rganishdagina foydalaniladi.

#### **7.1.6. Gidrostatik niveliplash.**

Bu usulda joydagi nuqtalarning balandliklardagi farq o'zaro bog'liq ikkita idishdagi suyuqlik satxini kuzatish yo'li bilan aniqlanadi. Bu usulda nuqtalarning nisbiy balandligi  $\pm 1-2$  mm aniqlikda topiladi. Montaj ishlarida, yirik inshootlarning deformatsiyasini muntazam ravishda kuzatish kerak bo'lganda va boshqa ishlarda gidrostatik niveliplash qo'llaniladi. Bu usul sodda bo'lib, undan yopiq, tor va qorong'i joylarda ham foydalanish mumkin.

#### **7.1.7. Radionivelplash.**

Bu niveliplash radioto'lqinning samolyotdan erga, erdan samolyotga etib borish vaqtiga qarab samolyotning qanday balandlikda uchayotganini bilish imkoniyatini beradi. Samolyotning uchayotgan balandligi radiovysotomyer degan asbob yordamida 5 m gacha aniqlikda topiladi. Keyingi vaqtarda radionivelplash turli qidiruv ishlarida xamda turli masshtabda topografik kartalar tuzishda qo'llanilmoqda.

#### **7.1.8. Stereofotogrammetrik niveliplash.**

Bu usulda joyning samolyotdan turib olingan aerosuratlariga qarab maxsus fotogrammetrik asboblar yordamida nuqtalarning balandligi aniqlanadi va relef gorizontallar bilan chiziladi. Bu xildagi niveliplash ishlarining asosiy qismi korxonada bajarilganligidan vaqt va mablag' ancha tejaladi.

Stereofotogrammetrik niveliplash turli masshtabdagi topografik kartalar tuzishda qo'llaniladi.


### **7.2. Yerning egriligi va refraksiyaning niveliplash natijalarga ta'siri.**

Geometrik niveliplashning  $h = I - bva$   $h = a -$  bformulalarnikeltiribchiqarishdaboshlangichsathiyisirttekislik,  $AvaVnuqtalargaurnatilganrey-$  kalaresauzaroparallelvaatmosferadayuradigan  $CDnurtug'$  richiziklidebqabulqilinganedi. Xaqikatda esa reykalar A va V nuqtalardagi sathiy sirt-larga perpendikulyar.

Agar sathiy sirtni sfera deb qabul kilinsa,  $V$  nuqtaning  $A$  nuqtadan nisbiy balandligi  $h = VS - MA - NB$  (7.2.1)-kesmani tashkil etadi.

SHakl 7.2.1. Yer egriligi va vertikal refraksiyaning niverilashga ta'siri.

$A$  va  $V$  nuqtalardavertikalkuyilganreykalardan  $MA$  va  $NB$  sanoqlarni hosilqilishuchungorizontalqarashnurlarining  $RA$  va  $QB$  sanoqlaridan Eregriligiuchuntegishlichak<sub>1</sub> =  $R M$  vak<sub>2</sub> =  $QN$  tuzatmalar yirilishikerak. Bunday shartlarda  $h = VS$  nisbiy balandlik.



$$h = \{PA - k\} - \{QB - k\}$$

buladi.  $\Delta h = S^2 / 2R$  formulaga binoan yer egriligi uchun tuzatma

$$\Delta h = k = S_1^2 / 2R$$

Ammo  $O R$  va  $O Q$  qarashnurlarinivelirvareykaorasidagiuzyo 'lida har xilzichlikdagiatmosferaqa tlamlaribilanuchrashadivaularorqalio 'tishdasinib, refraksiyalideyilaganegrichiziqniifodalaydi (SHakl 7.2.1). SHu sababli  $RA$  va  $QB$  sanokdar urniga x^ikdtda reykadan  $tA$  va  $pV$  sanoqlarni olamiz.  $Rt$  va  $Qn$  kesmalar  $A$  va  $V$  nuqtgalar turgan reykalar buyicha sanoq-larga refraksiya uchun tuzatma bo'ladi, kuzatilayotgan narsalar refraksiya ta'sirida uz holatidan ko'tarilibroq ko'rindi, bunga botib bo'lgan Kuyoshning qizarib ko'rini turishi misol bo'ladi.

Kuzatishlardan refraksiya uchuntuzatmao 'rtachaeregriligiuchunktuzatma-ning  $\Delta h = S^2 / 2R$  formulataxminan 16% initashkiletishiisbotlangan, ya'ni

$$r = 0,16 (S_1^2 / 2R) \quad (7.2.4.)$$

Refraksiya uchuntuzatmaeregriligiuchuntuzatmanikamaytiradi, shusababli da Eregriligivarefraksiya uchuntuzatmani ifodalaydigant  $M$  va  $N$  kesmalar

$$f = k - r$$

bo'ladi, bu formula ga  $k$  var o'rniga ularning (7.2.3.) va (7.2.4.) formulalar-dagi qiymatlari kuyilsa,

$$f = 0,42 (S_1^2 / R) \quad (7.2.5.)$$

Nivelirnivelirlanuvchinuqtalarninganiqo 'rtasigao 'rnatilsa,  $f_1$  —  $f_2$  farqininolgartengdebqabulqilishmumkin. SHu sababli geometrik niveler-lash asosan o'rtadan usulida olib boriladi. Oldinga nivelerlash esa ayrim hollarda daryo, jarlik va boshqa to'siqlardan balandlik uzatishda qo'llaniladi.

Agar (8.2.5.) formulaga Erradiusisonliqiymativa  $S$  masofaningqiymatiyuzlabmetrlarda qo'yilsa,  $f$  ning millimetrlarda ifodalanganqiymatinihisoblashuchunqulay formulaga egabulamiz:

$$f_{mm} = 0,66 S^2 \text{ (yuzlab metrlarda).} \quad (7.2.6.)$$

Agar  $S = 100$  mbo'lsa,  $f = 0,66$  mm, agar  $S = 400$  mbo'lsa,  $f = 10,6$  mm.

Urtadan niveliplashda Yer egriligi ta'siri tula kompensatsiyalanadi, refraksiya ta'siri sezilarli darajada kamayadi.

### 7.3. Nivelirlarning turlari.

Hozirgi vaqtida ishlataladigan niveliirlar vizir o'qini gorizontal holatga keltirish usuliga qarab ikki gruppaga bo'linadi:

- ◆ vizir o'qi adilak yordamida gorizontal holatga keltiriladigan niveliirlar.
- ◆ vizir o'qi avtomatik ravishda gorizontal holatga keltiriladigan niveliirlar.


1. Bu niveliirlar asosiy qismlarining bir-biriga nisbatan joylanishiga qarab, quyma niveliirlarga va trubasi taglikdan ajratiladigan niveliirlarga bo'linadi.

Vizir o'qi adilak yordamida gorizontal holatga keltiriladigan quyma niveliirlarga NG va NV-1 niveliirlarini qarash trubasi ajratiladigan niveliirlarga esa Ntlarni misol qilish mumkin.

Keyingi yillarda vizir o'qi avtomatik ravishda gorizontal holatga keladigan niveliirlar ishlab chiqarilmoqda. NSM-2.

Masalan niveliirlar aniqligiga qarab, texnikaviy, o'rtacha aniqlikdagi va juda aniq niveliirlarga bo'linadi. Niveliirlar qarash trubasining kattalashtirib ko'rsatish darjasini, ko'rish maydoni, adilak bo'limining qiymati va boshqa xususiyatlariga qarab ham bir-biridan farq qiladi.

Nivelir sxemasi ( 7.3.1 – shakl).



SHakl 7.3.1.

- |                      |                        |
|----------------------|------------------------|
| 1. Elevatsion vinti. | 5. Ko'tarish vintlari. |
| 2. SHtativ.          | 6. Qarash trubasi.     |
| 3. Doiraviy adilak.  | 7. Maxkamlash vinti.   |
| 4. Taglik.           | 8. Mikrometr vinti.    |
| 9. Kremalera vinti.  |                        |

### 7.4. Nivelirlash reykaları

Texnik niveliplashda ikki tomonli yaxlit, uzunligi 3000 mm, qalinligi 2—3 sm, kengligi 8-10 sm bulgan pH-10 reykaları (7.4.1 - shakl, v) va uzunligi 3000-4000 mm buklanadigan pH-10 reykaları qo'llaniladi (7.4.1 - shakl, g). Reyka egilmaydigan va chidamli bo'lishi uchun ko'shtavir kesimli qilinib, sifatlari yogochdan yasaladi va ikki uchida metall qoplanadi.


Reykalar bir tomonida santimetrali bo'laklar shashkasimon oq va qora, ikkinchi tomondagilari esa oq va qizil rang bilan bo'yaladi. SHuning uchun reykaning kora rangli tomoni -qora tomon, qizil rangli tomoni — qizil tomon deb farqlanadi.

Sanoq olish qulay bo'lishi uchun har detsimetrali bo'lakning dastlabki beshta santimetrali bo'laklari «E» harfi ko'rinishida birlashtiriladi. Reykalarni qora tomonida sanoq noldan (7.4.1-shakl, a), qizil tomonida esa ixtiyorli sanoqdan, masalan, 4687 mm (7.4.1- shakl, b) dan boshlanadi.

Natijada reykaning qora va qizil tomonlaridan olingan sanoqlar farqi doimiy son bo'lib, niverlirlashni bekatda tekshirish uchun xizmat qiladi.

Sanoqlar reykaning quyi qismidan ortib boradi, raqamlar har detsimetirdan ag'darilgan ko'rinishda yoziladi, truba qo'rish maydonida esa ularning tasviri to'g'ri bo'ladi.


Niverilash vaqtida reykalar yog'och qoziqlarga, metall boshmoqlargua o'rnatiladi.



SHakl 7.4.1. Niverilash reykalar: a,b,v - ikki tomonli butun reyka; g,d – ikki tomonli buklanadigan reyka; e – invarli reyka.

7.4.2 – shaklda sanoq olish ko'rsatilgan. Bu erda qarash trubasida reykadagi sanoqni ko'rinishi ( sanoq 2150 mm)

SHakl - 7.4.2. Reykalar qiyshaymagan, yozuvlari o'chmagan, reyka tagligi tekisligi reyka o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak.



Yig'iladigan reykalarda ayrim qismlari to'g'ri tutashtirilgan bo'lishi kerak. Reykani qiyshayganligini reykaning ikki uchidan reyka bo'ylab ip tortib tekshiriladi. Bunda reyka va ip orasidagi masofa 3 metrli reykada – 6 mm, 4 metrli reykalarda 10 mm dan oshmasligi kerak.

## 7.5. Texnikaviy nivelirlashnibajarish.

Geometrik nivelirlashda ishlatalidigan asbob - nivelir. Nivelirning teodolitdan farqi shuki, uning qarash trubasi zenit bo'yicha aylanmaydi, chunki u gorizontal vizirlashga moslangan. Qarash trubasining vizir o'qini yonidagi silindrik adilak hamda ko'tarish vintlari yordamida gorizontal holatga, ya'ni ish bajaradigan holatga keltirish mumkin.

Geometrik nivelirlashda bir nuqtaning boshqa nuqtaga nisbatan balandligi, ya'ni nuktaga balandligini topishning bir necha xil yo'li bor. SHularni ko'rib chiqamiz.

### 7.5.1. Oldinga nivelirlash.

Joydagi ikki nuqtaning (A va V nuqtalar) bir-biriga nisbatan balandligini aniqlash kerak deylik. Buning uchun A nuqtaga nivelerilir, V nuqtaga reyka tik qilib o'rnataladi. Nivelir ishlaydigan holatga keltirilib, qarash trubasi reykaga vizirlanadi va v-sanoq olinadi. Asbobning reyka yoki ruletka bilan ulangan balandligi (A nuqtadan nivelerilir qarash trubasining gorizontal holatdagi vizir o'qigacha bo'lgan oraliq) i ga teng bo'lsa, V nuqtaning A nuqtaga nisbatan balandligi  $h = i - b$  bo'ladi.


Demak **oldinga nivelerlashda** bir nuktaning ikkinchi nuqtaga nisbatan balandligi reykadan olingan sanoqni asbob balandligidan olib tashlagandan keyin qolgan songa teng.

Agar reykadan olingan sanoq asbob balandligidan katta, ya'ni  $i < b$  bo'lsa, nisbiy balandlik ishorasi manfiy, agar  $i > b$  bo'lsa ishora musbat bo'ladi.

Birinchi nuqta A ning absolyut balandligi ( $H_A$ ) hamda bu nuqtaga nisbatan ikkinchi nuqta V-ning balandligi ( $h_{AB}$ ) ma'lum bo'lgach, ikkinchinuqta (V) ning absolyut balandligi quyidagicha hisoblab chiqariladi:

$$H_B = H_A + h_{AB}$$

Ikkinci nuqta absolyut balandligining bunday hisoblab chiqarishiga absolyut balandlikni nisbiy balandlik bo'yicha aniqlash deyiladi.



SHakl 7.5.1.

Ikkinci nuqtaning absolyut balandligini asbob gorizonti yordamida aniqlash ham mumkin. **Asbob gorizonti** deganda nivelerilir vizir o'qi yo'naliishing absolyut balandligi tushuniladi. Asbob gorizonti ( $H_i$ ) quyidagiGA teng: $H_i = H_A + i$


Ikkinci (V) nuqtaning asbob gorizonti metodida aniqlangan absolyut balandligi: $H_B = H_i - b$  bo'ladi.

### 7.5.2. O'rtadan nivelerlash.

O'rtadan nivelerlashda nivelerlanayotgan nuqtalarga tik qilib reykalar o'rnataladi, reykalar oralig'iga esa niveler o'rnataladi. Nivelir ish holatiga keltirilib, qarash trubasi oldin keyingi reykaga vizirlanib, reykadan a sanoq olinadi, so'ngra oldingi reykaga qaratiladi va v sanoq olinadi. SHunda V nuktani A nuktaga nisbatan balandligi quyidagicha hisoblab chiqariladi:

$$h_{AB} = a - b$$

O'rtadan nivelerlashda nisbiy balandlik keyingi reykadan olingan sanoq bilan oldingi reykadan olingan sanoq ayirmasiga teng bo'ladi.



SHakl 7.5.2.

O'rtadan turib nivelerlashda ikkinchi nuktaning absolyut balandligini nisbiy balandlik bo'yicha hisoblashda  $H_i = H_A + i$

Asbob gorizonti bo'yicha hisoblashda esa  $H_B = H_i - b$  bo'ladi.

Asbob gorizonti esa  $H_i = H_A + a$  bo'ladi.

Geometrik nivelerlashda asosan o'rtadan nivelerlash qo'llaniladi. O'rtadan nivelerlash mumkin bo'limgandagina oldinga nivelerlash metodi ishlatiladi. Oldinga nivelerlashning kamchiligi shundan iboratki, nishab joyning nisbiy balandligi niveler balandligi bilan reykadan olingan sanoq ayirmasiga teng bo'lganligidan bunda faqat **asbob balandligiga** teng bo'lgan nisbiy balandliknigina o'lchash mumkin. Bundan tashqari, oldinga nivelerlashda har bir stansiyada asbob balandligini aniq o'lchash zarur bo'lganligidan ish ancha qiyinlashadi va mexnat ko'p sarf bo'ladi.

#### O'rtadan nivelerlashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) har bir stansiyada reyka balandligiga teng bo'lgan nisbiy balandlikni, ya'ni oldinga nivelerlashdagiga nisbatan kattaroq nisbiy balandlikni o'lchash mumkin;

b) har bir stansiyada niveler balandligini o'lchashning hojati yo'q;

v) nivelerning qarash trubasi niveler bilan reyka orasidagi masofani kattalashtirib ko'rsatganligidan oldindan nivelerlashdagiga qaraganda ikki barobar uzunroq masofani nivelerlash mumkin.


g) asbob ikki nuqta o'rtafiga o'rnatilganligidan yer egriligining va atmosfera refraksiyasining ta'siri juda kamayadi;

d) asbob nivelerlanayotgan ikki nuqtaning qoq o'rtafiga o'rnatilganda asbob vizir o'qining gorizontal emasligi natijasida ro'y beradigan xatoning ta'siri bo'lmaydi. Bu o'rtadan nivelerlashning asosiy afzalligi bo'lib hisoblanadi.

O'lchov asboblarining ishidagi xatoni butunlay yo'qotib bo'limgani singari, qanchalik sinchiklab tekshirilmasin, nivelerning **vizir o'qini** ham mutlaqo gorizontal holatga keltirib bo'lmaydi. SHu tufayli oldinga nivelerlashda reykadan **b** sanoq emas, sal noto'g'riroq sanok **b'** sanoq olinishi mumkin.

Bu xato nisbiy balandlikni aniqlash natijasiga ta'sir qiladi. Oldinga nivelerlashda xato  $\Delta$  ni yo'qotib bo'lmaydi.

O'rtadan nivelerlashda o'lchash natijasiga bu xato deyarli ta'sir etmaydi. Masalan, qarash trubasi orqadagi reykaga vizirlanib sanoq olinganda ro'y bergen xato tufayli a sanoq o'miga  $a^1 = a + \Delta$  sanoq, oldindagi reykaga qarab sanoq olinganda esa v o'miga  $b^1 = b + \Delta$  sanoq olinadi.




SHakl 7.5.3

SHu sanoqlardan nisbiy balandlik hisoblab chiqariladi.  $h = a' - b'$

$a'$  va  $b'$  lar o'rniغا ularning qiymati qo'yilsa

$h = (a + \Delta) - (b + \Delta)$  vah  $= a + \Delta - b - \Delta$ , yoki  $h = a - b$  bo'ladi.



SHakl 7.5.4

SHunday qilib, o'rtadan niveliirlashda asbobning vizir o'qi aniq gorizontal bo'limganligi sababli reykalaridan sanoqlar olingandagi xato bir-biriga teng bo'ladi, ya'ni har ikkala reykadan olingan sanoqlar bir xil miqdorga o'zgaradi. Natijada ikki nuqta orasidagi nisbiy balandlik to'g'ri aniklanadi.

### 7.5.3. Oddiy va murakkab niveliirlash.

Ikki nuqtaning bir-biriga nisbatan balandligi bu nuqtalar orasiga niveliirni bir marta o'rnatishda aniqlansa, bunga **oddiy niveliirlash** deyiladi.


Ikki nuqtaning balandliklari orasidagi farq katta bo'lgan hollarda yoki bir-biridan uzoq joylashgan ikki nuqtaning nisbiy balandligini aniqlashda bu ikki nuqta oraligi bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lak aloxida-aloxida niveliirlanadi, bunga **murakkab niveliirlash** deyiladi.

Murakkab niveliirlashda yer satxining dumboqligi va refraksiya niveliirlash natijasiga kamroq ta'sir etishi va reyka bo'laklari yaxshiroq ko'rinishi uchun niveliirdan reykagacha bo'lgan masofa odatda 50-75 m qilib olinadi.

A va V nuqtalar oralig'i bir necha bo'lakka bo'linib niveliirlanadi. Reyka o'rnatilgan nuqtalar (**piketlar**) - A va V hamda 1, 2, 3, 4 raqamlar bilan niveliir o'rnatilgan nuqtalar (stansiyalar) va I, II, III, IV va V bilan, reyka va niveliirning ko'chirilishi tartibi esa strelkalar bilan ko'rsatilgan.

Perpendikulyar piketga o'rnatilgan reyka I stansiyada - oldingi, II stansiyada esa ketingi reyka bo'ladi. Piket ikki qo'shni stansiyani bir-biriga bog'laganligi uchun **bog'lovchi nuqta** deb ataladi. 1, 2, 3, 4 - nuqtalar bog'lovchi nuqtalar bo'lib hisoblanadi.

Nivelirlanishi kerak bo'lgan nuqta bog'lovchi nuqtalar oralig'ida (S va D) joylashgan bo'lsa, ularga **oraliq nuqta** deyiladi. Oraliq nuqtalar balandlikni bir nuqtadan ikkinchisiga uzatib berishda qatnashmaydi. SHuning uchun ular har bir stansiyada bog'lovchi nuqtalar niveliirlanib bo'lgandan keyin niveliirlanadi. Orqadagi reykani oldinga ko'chirishda reyka bir yo'la oraliq nuqtalarga ham o'rnatilib niveliir yordamida ulardan sanoqlar olinadi. Bog'lovchi nuqtalardan olingan sanoqlardan foydalanib, har bir nuqtaning qo'shni nuqtaga nisbatan balandligi, so'ngra absolyut balandligi hisoblab chiqariladi.



SHakl 7.5.5

I, II, III, IV va V stansiyalardagi (7.5.5 – shakl) bog‘lovchi nuqtalarning nisbiy balandliklari qo‘yidagiga teng:

$$h_1 = a_1 - b_1$$

$$h_2 = a_2 - b_2$$

.....

$$h_n = a_n - b_n$$

Nivelirlangan barchastansiyalardagi nuqtalarning nisbiy balandliklari yig‘indisi oxirgi V nuqtaning boshlang‘ich A nuqtaga nisbatan nisbiy balandligi bo‘ladi:

$$h_{AB} = \sum a - \sum b$$

Bog‘lovchi nuqtalarning absolyut balandliklari quyidagiga teng bo‘ladi.

$$H_1 = H_A + h_1$$

$$H_2 = H_1 + h_2$$

.....

$$H_B = H_n + h_n$$

Agar 1,2, 3 va 4 nuqtalarning absolyut balandligini aniqlashtalab qilinmasa oxirgi V nuqtaning absolyut balandligi quyidagicha hisoblanadi:

$$H_B = H_A + \sum h_{AB}$$

Asbob gorizonti

$$H_i = H_3 + a_4$$

Oraliq nuqtalar absolyut balandliklari

$$H_c = H_i - C_1$$

$$H_D = H_i - C_2$$

Bir-biridan uzoq joylashgan nuqtalar oralig‘ida bir nuqtadan ikkinchisiga absolyut balandlikni uzatish maqsadida bajarilgan murakkab nivelirlash ishi **bo‘ylama nivelirlash** deyiladi. Bo‘ylama nivelirlashda absolyut balandlikning boshlang‘ich nuqtadan oxirgi nuqtaga uzatilishida bog‘lovchi nuqtalar ishtirok etmasa, bunga **oddiy bo‘ylama nivelirlash** deyiladi.

Nivelirlanayotgan chiziqning profilini tuzish uchun bu chiziqdagi barcha xarakterli nuqtalarning absolyut baltandliklarining aniqlashga amalga oshirilgan bo‘ylama nivelirlash **trassani nivelirlash** deb ataladi. Trassani nivelirlashda barcha bog‘lovchi nuqtalar hamda trassadagi oraliq nuqtalar o‘rni qoziq qoqib belgilanadi.

Ba’zi bir qidiruv va tekshiruv ishlarida nivelirlanishi kerak bo‘lgan chiziq atrofidagi nuqtalarning absolyut balandliklarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Bunday paytda trassa kerakli joylariga qoziqlar qoqib perpendikulyar chiziqlar bilan belgilanib nivelirlanadi. Bunga **ko‘ndalang nivelirlash** deyiladi.

Injenerlik inshootlari loyihasini tuzish hamda loyihani joyga ko‘chirish va inshootlarni qurish maqsadida bajariladigan nivelirlash **injener-texnik nivelirlash** deyiladi.

## 7.6.Trassani profilini tuzish.

- a) Uzala inshootlar
- b) Trassa va trassalash.

**Uzala inshootlar** - ishlab chiqarish qurilmalarini barpo qilishda avvalo, doimo ana shu ob'ektgacha keladigan yo'llar (temir yo'l, avtomobil yo'llari, elektr uzatgich, aloqa, kanal, suv, ...) kabi injenerlik inshootlari uzala inshootlarga kiradi.


**Trassa** deb loyihasi tuzilayotgan uzala inshootlarni karta yoki joyda belgilangan o'qiga aytildi.

Ma'lum iqtisodiy va texnikaviy talablarga javob beradigan trassa yo'nalishini karta va joyda aniqlash uchun bajariladigan kompleks ishlarga uzala inshootlarni trasalash (loyihalash) deyiladi.

Bunday loyihani tuzishda birinchi navbatda trassaning balandlik va plandagi holati hal qilinadi. Planda trassa mumkin qadar to'g'ri chiziq bo'ylab o'tishi kerak, aks holda har qanday og'ish trassani uzayishiga qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarini oshishiga sabab bo'ladi.

Trassaning ko'ndalang va bo'ylama profillar qiyaligi normadan oshmasligi kerak. Ba'zi bir rel'ef sharoitda plan va profil talabiga javob berish ancha og'ir bo'lishi sababli trassa tabiiy g'ovlardan ataylabdan aylanib o'tish kerak bo'ladi. Demak trassa plani bir qancha alohida to'g'ri chiziqlardan tashkil topgan bo'lib, ular egriliklar bilan almashinib turadi.

Trassani egilish darajasi, qayrilmalar burchaklari qiymati bilan o'chanadi(7.6.1- shakl). Trassaning qayrilish burchagi deb oldingi tomon davomi bilan ketingi tomon boshlanishida hosil bo'lgan  $\angle\varphi$  ga aytildi. Bu burilish nuqtasiga burilish uchi (BU) deyiladi.



SHakl 7.6.1

I va II kategoriyanı magistral temir yo'l, magistral quvurlar va uzala magistral uzatgichlarda qayrima burchagi  $\varphi$   $15^\circ - 20^\circ$  dan oshmasligi (kerak) tavsiya qilinadi. Bu esa bo'lajaak yo'l yoki quvurlar uzunligini kam miqdorda uzayishiga olib keladi. Temir yo'l va avtomobil yo'llarida hamda truboprovodlarda qayrilmalar aylanma shaklida o'tkazilib, gorizontal aylanma radiusi inshootning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan: temir yo'llarda minimal R q 400-200 m. Avtoyo'llarda bu qiymat yo'l kategoriyasiga qarab 600 dan 60 m gacha. Kanallardagi aylanma shu kanal kengligining boshlanishidan kichik bo'lmasligi kerak. Truboprovod trassalarida Rqd1000 (d - truba diametri) ni tashkil qilishi kerak.

Trassani loyihalash uchun qilinayotgan qidiruv ishlari ikki asosiy masala hal qilinadi:

- 1) Geodezik, topografik va boshqa materiallar yig'ish (trassani o'tkazishda kerak bo'ladigan)
- 2) Tabiat resurslaridan maksimal foydalangan holda (minimal xarajat bilan) o'tkaziladigan trassalar variantlarini tanlash.

Bu ikki ishni hal qilish odatda kameral usulda olib boriladi.

### 7.6.1.Kameral trassalash

Odatda injener-qidiruv ishlari ikki stadiyada bajariladi. Biroq yo'l qurilishini bajarishda bu stadiyalarga kirmagan, ya'ni texnik-ekonomik asoslash (TEO) ishidan boshlanadi. Bu bosqichning asosiy maqsadi rel'ef, gidrografiya, geologiya, gidrogeologiya, fizikaviy geologiya voqiyliklar kabilarni nazarda tutgan holda trassa yo'nalish variantlarini shlab chiqishdan iboratdir. Bu ish odatda eng qiyin sharoitdag'i yirik qurilishlarda olib boriladi. SHuning uchun ham u kameral usulda bajariladi. Materiallar arxivdan olinadi.

Trassani belgilashda avvalo masshtabi 1:1.000.000 obzor topografik kartadan foydalaniladi. Bundan boshlang'ich va oxirgi punktlar belgilanadi. Trassa yo'lini aniqlash, rel'efni o'rganish va

boshqa ishlar kameral usulda masshtabi 1:2500 yoki 1:50.000 masshtabli kartada, agar bular yo‘q bo‘lgan holda 1:100.000 masshtabli kartada bajariladi.

Trassa ma’lum bo‘laklarda belgilangan punktlar oralig‘ida berilgan qiyalikka asoslangan holda olib boriladi. Trassa qiyaligi rel’ef xarakteri hamda o‘tiladigan yo‘l kategoriyasiga qarab beriladi. CHunki har bir uzala inshootning o‘ziga xos qiyalik qiymatlari bor.

Temir yo‘llarda bu qiymat 10% dan oshmasligi, mahalliy yo‘llarda 20%, tog‘ yo‘llarida 30%. Avtomobil yo‘llarida chekli qiyalik 40-90% gacha o‘zgaradi. Eng kichik qiyalik irrigatsiya va suv kanallarida bo‘lib, u suvni yuvib ketmasligi hisobidan olinadi. YA’ni qiyalik 0,01-0,2% bo‘ladi.

Ma’lum masshtabli karta (1:M) hamda kesim balandligiga ko‘ra qiyalik bo‘yicha trassa quymasi (proeksiyasi) - 1 quyidagicha topiladi:

$$l = \frac{h}{i_{tr} \cdot m}$$

$i_{tr}$  - trassa qiyaligi

m - karta masshtabi.

Masalan, 1:50.000 masshtabli kartada kesim balandligi  $h=10m$  va  $i_{tr}=20\%$  bo‘lsin

$$l = \frac{100000 \text{ cm}}{0,02 \cdot 50000} = 1 \text{ cm}$$

Quyma qiymatiga ko‘ra kartada ikki xil yo‘l - erkin (volno‘y) yo‘l va qiyin (napryajenniy) yo‘llarga ajratish mumkin. Birinchi xil yo‘lda trassani mumkin qadar punktlar orasida qisqa yo‘ldan olib borish mumkin.

Ikkinci xil yo‘lda esa ma’lum qiyalik bo‘yicha trassani o‘tkazish juda mushkul. SHunga ko‘ra kartada ish qiymati nolga teng bo‘lgan nuqtalar topish va shular orqali trassa o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

Qiymati nol bo‘lgan chiziq deb trassa o‘tish davomida xech qanday ko‘tarma va o‘yilma ishlar bajarilmaydigan yo‘lga aytildi.

Bu yo‘nalish kartada sirkulni qadami ma’lum 1 uzunlikka qiligan holda gorizontallararonuqtalar belgilanib ular o‘zaro biriktirilishdan hosil bo‘ladi.

Nol otmetkaga ega bo‘lgan chiziq o‘z-o‘zidan bo‘lajak yo‘lning o‘qi vazifasini bajarolmaydi, chunki u bir qancha qisqa chiziqlar turkumidan tashkil topgan bo‘ladi. SHunga ko‘ra bu siniq chiziqli egri yo‘llarni goho umumlashtirib to‘g‘rilashga to‘g‘ri keladi.

### 7.6.2.Dalada trassalash.

**Kameral trassalash** natijalaridan foyalangan holda talabga javob beradigan va tejamkor hisoblangan trassa yo‘nalishi (qator variantlardan) tanlab olinadi. SHu tanlangan trassa bo‘ylab dalada ish bajarish - texnikkaviy loyihalash tejamkorlikka asoslangan holda yer yuzida va aeroS‘yomka ishida bajarilishi mumkin. Agar joyning plani yirik masshtabli bo‘lsa, izlanayotgan trassa qisqa masofali bo‘lsa bu ish yer yuzida olib boriladigan usul bilan bajarilishi mumkin.

Agar izlanish ishi katta uzunlikdagi trassada bajarilsa, hamda kerakli masshtabdagi karta va planlar bo‘lmasa, u holda trassa bo‘ylab aerovizual kuzatish va marshrut bo‘ylab aerofotos‘yomka ishi bajariladi.

Trassa tayanch nuqtalar bilan ta’milangan bo‘lishi kerak. Qurilish ishi boshlanish oldidan uni osongina topa olinishi kerak.

Barcha tayanch punktlar, burchak uchlari, belgilangan nuqtalar, stvor nuqtalari tabiiy to‘siquidan cheklanib o‘tish va tutashuvchi nuqtalar, yog‘och yoki temir-beton ustunlar bilan mustahkamlanib, ularni joydagi narsalar bilan qanday holatda turishini ko‘rsatuvchi abris jurnallari tuzilishi kerak. Piketlar, plusli nuqtalar, qoziqlar bilan mustahkamlanib, atrofidan kanava o‘tkazilishi kerak, znaklar yozuvi, moyli bo‘yoq bilan yozilishi kerak, trassa qayrilish burchagi uchlaridagi ustunlardagi yozuvlardan burchak uchi tomonida turishi, stvor nuqtalarida esa - sanog‘i kam piketga qaragan tomonda yozilishi shart.


### 7.6.3. Piketaj va ko‘ndalang profillarni mustahkamlash

Bu ish asosan tanlangan trassa bo‘ylab bajariladi. Ishning boshida plan yoki kartografik materiallarda ko‘rsatilgan boshlang‘ich va bir necha oraliq nuqtalar joyda aniqlanadi.

Trassaning boshlang‘ich nuqtasi 15-20 sm qoziq bilan mustahkamlanib yoniga uzunligi 30-35 sm qorovul qoziqni erdan 10-20 sm chiqqan holatda qoqiladi. Qorovul qoziqqa GK nomeri yoziladi. Boshlang‘ich nuqtani joydagisi tafsilotlar bilan bog‘lab, o‘lchash ishi kamida 3 marta qaytariladi va bu bog‘lanishni abris jurnalni tuziladi. SHu nuqta ustiga teodolit o‘rnatilib, oraliq nuqtalar hamda birinchi qayrilma uchiga vexalar o‘rnatilib, bu yo‘nalishning magnit azimuti aniqlanadi.

Qayrilish burchagi bilan teodolit oraliq‘ida trassa o‘qi bo‘ylab har 60-100 mavexalar o‘rnatiladi. SHu yo‘nalish bo‘yicha har 100 m da qoziqlar qoqilib, ular qorovul qoziq bilan mustahkamlanadi. Bu nuqtaga piket deyiladi (7.6.3-shakl). Trassa bo‘ylab yuzasidagi egilish yoki ko‘tarilish uchastkalariga ham qoziqlar bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich nuqta GKO bo‘lsa, keyingilar shu nomerining oshib borishi bilan belgilanadi (GK1, GK2 ...). Oraliq otmetkalar nomeri ketidagi GK nomeriga, shu nuqtagacha bo‘lgan masofani qo‘shilishi bilan belgilanadi. (Gk1Q20). Bunday nuqtalarni plyus nuqtalar deyiladi. Piketlash jurnalni tuziladi.



SHakl 7.6.3

### 7.6.4. Trassada qayrilmalarning asosiy elementlarini hisoblash va belgilash.

Trassaning burlish burchagida qayrilmaning asosiy elementlarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Qayrilma radiusi har bir inshoot uchun standartdir va u texnikaviy sharoitga ko‘ra tanlab olinadi.

Trassada AV yo‘nalishi VS yo‘nalishiga o‘zgarganda bo‘lajak inshoot o‘qi bu ikkala yo‘nalishga nisbatan surilgan holda bo‘ladi, ya’ni AVS yoyini tashkil qiladi. Bunda markaziy burchaaq AOS trassa qayrilish burchagi φ ga teng. OV kesmasi shu burchakni bissektrisadir. SHunday qilib V’ nuqta yogni o‘rtasi hisoblanadi.

A, V’S nuqtalar qayrilmaning asosiy nuqtalari hisoblanib, ularni o‘z navbatli bilan KB, KU, KO deyiladi.

Joyda bu nuqtalarni belgilash uchun qayrilish burchagi va R dan tashqari quyidagi qayrilmani to‘rt asosiy elementlarini aniqlash kerak (7.6.4 – shakl).

1. Yoyga urinma bo‘lgan AVqVSqT va tangens deb nomlangan kesma uzunligi

$$T = R \cdot \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2}$$

2. AV'S yoy uzunligi - K qayrilmani

$$K = \pi \cdot R \cdot \frac{\alpha}{180^\circ};$$

3. YOy o'rtasi V' dan trassa qayrilish burchagi V gacha bo'lgan masofa B - bissektrisa.

$$B = OB - OB' = \frac{R}{\cos \frac{\alpha}{2}} - R$$

bundan

$$B = R \cdot \left( \operatorname{stc} \frac{\alpha}{2} - 1 \right)$$

4. Domyer - D (yoki o'lchanma O')

$$D = 2T - K$$

T, K, B va D qiymatlari alohida tablitsada berilgan.


Topilgan elementlarni trassada piketlash kerak bo'ladi, ya'ni qayrilma boshi KB (NK) va oxirgi QO (KK) ni belgilash kerak. Buning uchun burchak uchi (BU yoki VU) belgilanadi, so'ngra (QB) NK = (BU) VU - T

$$(QO) KK = (QB) NK + K$$

Kontrol uchun qayrilma oxirini piketaj nomi quyidagi formulalardan birida tekshiriladi

$$KK = NK + 2T - D$$

$$KK = VU + T - D$$



SHakl 7.6.4

### 7.7.Joyni vertikal planirovka kilish uchun yuza niverillash

Vertikal planirovka qilish loyihasi general planning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Odatda, tabiiy rel'ef loyihalanadigan inshootlarni bevosita unda joylashtirish uchun yaroqli bo'lmaydi, shuning uchun vertikal planirovka qilishga oid maxsus loyiha asosida yer qazish ishlarini bajaribrel'efning shakli o'zgartiriladi.

#### 7.7.1.Vertikal planirovka

Qilish loyihasini ishlab chiqishda yuza nivellirlash natijasida tuzilgan topografik plan eng yaxshi asos bo'ladi. Uncha aniq ko'rinnmaydigan joy rel'efini s'yomka qilishda yuza nivellirlashdan foydalilaniladi. Nivelirlash yo'li bilan qilingan s'yomkaning mohiyati joyda nuqtalar to'ri yasash,

ularning planaviy holatini aniqlash va shu nuqtalar otmetkalarini topish uchun geometrik nivellirlash o‘tkazishdan iboratdir.


Nuqtalar to‘ri yasash usuliga qarab yuza nivellirlash ham har xil usulga: kvadratlar yoki to‘g‘ri burchakli to‘rtburchakliklar uchlarini nivellirlash, uchastka chegarasi bo‘ylab o‘tilgan yopiq teodolit yo‘li ichida yasalgan ko‘ndalang chiziqlardagi nuqtalarni nivellirlash; gorizontal s’yomkaning tayyor planiga asosan nivellirlash usullariga bo‘linadi.

**7.7.1a. Kvadratlar** (to‘g‘ri burchakli to‘rtburchakliklar) **usuli** ochiq territoriyalarda qo‘llaniladi. Dastlab uchastkaning markaziy nuqtasi orqali o‘tkaziladigan ikkita o‘zaro perpendikulyar to‘g‘ri chiziq asosida asosiy kvadratlar yasaladi: buning uchun shu chiziqlarda markaziy nuqtadan boshlab to‘rt tomonga bir xil uzunlikda chiziqlar o‘lchab qo‘yiladi. Bunda to‘g‘ri burchaklar teodolit yordamida yasaladi, masofalar o‘lhash lentasi bilan o‘lchanadi.

Asosiy kvadratlar ichida ularning tomonlari asosida to‘ldiruvchi (kichik) kvadratlar yasaladi. Bunda har 10 yoki 20 m da belgi-birkasi bo‘lgan 100 m uzunlikdagi trosdan foydalaniladi. To‘ldiruvchi kvadratlar uchlarini nivellirlashda reyka tarang tortilgan tros belgisi yonida bevosita erga qo‘yiladi.

Asosiy kvadratlarning uchlari etarli darajada mustahkam belgilar bilan belgilanadi va kasr son bilan nomerlanadi. Kasrning surati shu uch absissanining yuz metrlar soni, maxraji esa ordinatasining yuz metrlar sonini ko‘rsatadi. Masalan, markaziy nuqta O=O deb belgilanadi, undan o‘ng tomonidagi uchlari  $0=+2$ ;  $0=+4$ ;  $0=+6$  va shunga o‘xshash ifodalar bilan nomerlanadi (Rasm 45).

Xar qaysi asosiy kvadrat ichidagi to‘ldiruvchi kvadratlar to‘ri o‘z nomeratsiyasiga ega bo‘lib, gorizontalliga va vertikaliga ikkita arab raqami bilan nomerlanadi, ulardan birinchisi vertikalning, ikkinchisi esa gorizontalning tartib nomerini ko‘rsatadi (masalan 32, 52, 88). Bular rasmida krestlar bilan belgilangan.




SHakl 7.7.1. Kvadratlarning uchlarini nomerlash sxemasi

Nivellirlash to‘rini to‘ldiruvchi kvadratlar tomonlarining kattaligi plan masshtabida 2 sm ga teng, asosiy kvadratlarniki esa o‘n marta yirik qilib olinadi. Masalan, masshtabi 1:500 li plan uchun kvadratlar kattaligi tegishlicha 100 va 10 m buladi.

Tomonlari 100 m li asosiy kvadratlarning uchlari aloxida nivellirlanadi. Bunda niveler taxminan kvadrat markaziga o‘rnataladi. Nivellirlashni uchastkaning tashqi chegarasi bo‘ylab joylashgan asosiy kvadratlarning tutashgan qatoridan boshlab, keyin o‘zaro parallel bo‘lgan ichki qatorlar qator oralatib nivellirlanadi (rasm 45). To‘ldiruvchi kvadratlarning uchlari aloxida nivellirlanadi va reykadan olingan sanoqlar kvadratlarning dala sxemasiga, tegishli uchlар yoniga yozib boriladi.

	<i>IV</i>	<i>V</i>	<i>VI</i>	<i>VII</i>	<i>VIII</i>	<i>IX</i>	<i>X</i>
4							
3	<i>III</i>		<i>XX</i>		<i>XXX</i>		<i>XI</i>
2	<i>II</i>		<i>XXI</i>		<i>XXI</i>		<i>XII</i>
1	<i>I</i>	<i>XVII</i>	<i>XVII</i>	<i>XVII</i>	<i>XV</i>	<i>XIV</i>	<i>XIII</i>
	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>b</i>	<i>z</i>	<i>d</i>	<i>e</i>	<i>u</i>

SHakl 7.7.2  
Asosiy kvadratlarni niveliplash  
ketma-ketligi



SHakl 7.7.3  
Ko'ndalang chiziqlarni niveliplash sxemasi

Nivelir (SHakl 7.7.2) kvadrat I ning o'rtasida joylashgan bo'lzin. CHiziqlar to'ri nomeratsiyasini xisobga olgan xolda 2a va 2b bog'lovchi nuqtalarga qo'yilgan ikkita reykadan tegishli a<sub>1</sub> va b<sub>1</sub> sanoqlar, stansiya II ga o'tilgandan keyin esa o'sha nuqtalarning o'ziga qarab a<sub>2</sub> va b<sub>2</sub> sanoqlar olinadi. Busanoqlardan

$$h=b_1-a_1, h=b_2-a_2, \text{ bulardan } b_1-a_1=b_2-a_2=a_2+b_1 \text{ bo'ladi.}$$

Oxirgi ifodalar reykaldan olingan sanoqlarni kontrol qilish uchun kerak bo'ladi. 1a, 5a, 5b, 13 yopiq niveler yuli va b, v, g, d, e, jchiziqlar bo'ylab boruvchi yakka yo'llar uchlari otmetkalarining farqida bog'lanmaslik f<sub>h</sub> yul qo'yiladigan bog'lanmaslik qiymatidan ortiq bo'lmasa, nisbiy balandliklar bog'lanadi va barcha bog'lovchi va oraliq nuqtalarning otmetkalari xisoblab chiqiladi.

**7.7.2b. Ko'ndalang chiziqlar usuli** uchastka chegarasi bo'ylab va ko'ndalang chiziqlarda teodolit-nivelir yullar o'tkazishdan iborat (SHakl 7.7.3). Bunda bir yula situatsiyani xam s'jomka qilib boriladi. Avval teodolit yuli nuqta-lari nivelerlanadi, keyin ko'ndalang chiziqlarda joylashgan nuqtalarning otmetkalari aniqlanadi. Bu nuqtalar otmetkalari ma'lum bo'lgan punktlarga tiralgan yakka yullar nuqtalarning otmetkalari aniqlash singari topiladi.

Teodolit yulining uchlari planga koordinatalar buyicha tushiriladi, teodolit yuli tomonlarida stvor nuqtalar o'lchab qo'yiladi, ular orasida ko'ndalang chiziqlar belgilanadi, ko'ndalang chiziqlarda o'lchash yuli bilan ketma-ket nuqtalar va oraliq nuqtalar tushiriladi. Xosil qilingan nuqtalar yoniga ularning otmetkalari yozib qo'yiladi, so'ngra gorizontallar o'tkaziladi.

Binolar qurilgan territoriyaning **tayyor plani bo'yicha** niveliplashda situatsiyaning planda va joyda olinadigan xar katerli nuqtalarining (binolarga kirish yullari, binolarning burchagi nuqtalari, kuzatish quduqlarining qopqoqlari, yullarning o'qlari va boshqalarning) otmetkalari aniqlanadi. Bu usulda olingan sanoqlar to'g'ridan-to'g'ri planning yorug'lik ta'sir ettirib olingan nusxasiga, nivelerlangan nuqtalar yoniga yoziladi. Xar qaysi niveliplash stansiyasi uchun asbob gorizonti aniqlanadi, uni plan nusxasiga yoziladi, xar qaysi stansiya uchun niveliplash chegarasi chiziladi va xamma nivelerlangan nuqtalarning otmetkalari asbob gorizonti orqali xisoblab chiqiladi.

### 7.7.3. Vertikal planirovka kilishda geodezik xisoblashlar

Vertikal planirovka qilish loyihasini ishlab chiqishda geodezik hisoblashlar katta o'rinn tutadi, loyihaning muhim elementlaridan biri esa gorizontal maydonchalarni oldindan belgilangan yuzaga va gorizontga nisbatan berilgan nishablikda maydonchalarga loyihalanashdan iboratdir.

**7.7.3a. Gorizontal maydonchalar**, odatda yer qazish ishlarining nolaviy balansi shartiga rioya qilgan holda ko'tarma va kovlanmalar hajmi taxminan barobar bo'lganda loyihalanadi. YUza niveliplash ma'lumotlari asosida planirovka qilinayotgan uchastkaning o'rtacha otmetkasi topiladi.

Bunda kvadrat shakldagi har qaysi prizma vertikal tekisliklar, tekis asos va yuqoriga qiya tekislik (uchastkaning yuzasi) bilan chegaralangan deb faraz qilinadi. Prizmaning balandligi uning yuzasidagi burchagiy nuqtalar otmetkalarining o‘rtacha arifmetik qiymatiga teng deb qabul qilinadi. U holda prizma hajmi

$$V = \frac{P}{4} (h_1 + h_2 + h_3 + h_4) bo‘ladi,$$

bu erda R - prizma asosining yuzasi; h - burchag nuqtalarning otmetkalari.


Kvadratlar uchlarining **qora otmetkalari** ma’lum bo‘lgan uchastkani planirovka qilishda o‘rtacha otmetka quyidagicha hisoblab topiladi. Uchastka konturi ichida joylashgan kvadratlarning  $a_1, a_2, a_3, \dots, a_{24}$  uchlari otmetkalari (SHakl 8.7.1.) hisoblashda to‘rt marta takrorlanadi va ularning yig‘indisi  $4 \sum a_i$  ga teng bo‘ladi.

So‘ngra uchastka konturi bo‘ylab joylashgan (uchastka burchaklari uchlarining otmetkalari bundan mustasno) kvadratlar uchlarining otmetkalari ( $b_1, \dots, b_{20}$ ) jamlanadi va olingan  $\sum b_i$  yig‘indi 2 ga ko‘paytiriladi, chunki bu otmetkalar ikki yondosh kvadratga taalluqlidir. Nihoyat, uchastkaning burchagiy nuqtalari otmetkalari ( $s_1, \dots, s_4$ ) ni jamlab  $\sum C_i$  topiladi.

Uchastkani planirovka qilish uchun **o‘rtacha otmetka**  $N_0$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_0 = \frac{4 \sum a_i + \sum b_i + \sum c_i}{4n},$$

bu erda n - barcha kvadratlar soni.



SHakl 7.7.1. Joydagagi uchastka yuzasini planirovka qilishda yer qazish ishlari balansini nolga teng qilgan holda loyihaviy otmetkani hisoblashga doir sxema.

Kvadrtalar barcha uchlarining ish otmetkalari qora otmetkalar bilan planirovka otmetkasi  $N_0$  ayirmasidan chiqadi.

### 7.8.Aniq va yuqori aniqlikdagi nivelirlash xaqida tushuncha.

Zamonaviy noyob inshootlarni kurishda o‘rta kvadratik xatoligi 0,1—0,2 mm dan oshmagan katta hajmdagi balandlikni o‘lhash ishlarini bajarish talab etiladi. Bu darajadagi yuqori aniqlikni ta’minalash imkoniyati bo‘lgan o‘lhash usulini aniqlash uchun jiddiyilmiy —tadqiqot ishlarini bajarish talab, etiladi. Asosiy e’tibor yuqori aniqlikdagi nivelirlarni tanlash va tadqiqot etishga, maxsus shkala va vizir nishonlarni ishlab chikishga, asbob balandligini etarli aniqlikda, mikrometrli nivelir tagligini o‘zgartirishni ta’minlovchi, xamda kisqa nurlar yordamida nivelirlash usulini takomillashtirishga qaratiladi. Qisqa nurlar yordamida yuqori aniqlikda geometrik nivelirlash usuli

ishlab chiqilgan va qurilishda hamda ko‘pgina inshootlarning konstruksiyalarini va fundamentlar cho‘kishini o‘lchashda asosiy usul sifatida qo‘llanilmoqda. Xozirgi vaqtida bu usul keng tarqalgan, uning afzalligi shundan iborat:

-yuqori aniqlikda o‘lchashligi;

-murakkab bo‘lman va arzon asboblar talab etilishida;

-qiyn sharoitlarda qurilish maydonlarida o‘lchash ishlarni bajarish mumkinligi, ular yordamida keng xaroratli diapazonda montaj yoki beton va yer ishlarini bajarilishi va xokazo.

YUqori aniqlikda nivelerlash yordamida 10—15 metr oralikda joylashgan ikkita nuqta balandligining farqini  $0,03+0,05$  mm o‘rtalikda aniqlikda aniqlikda mumkin. Bir — biridan bir necha yuz metr uzoqlikda joylashgan ikkita nuqta balandligining farkini o‘rtalikda aniqlikda esa  $0,1+0,2$  mm aniqlikda ta’minlanadi.

Geometrik nivelerlash usulining asosiy kamchiligi axborotni masofadan uzatish yoki o‘lchash jarayonini avtomatlashtirishning murakkabligidadir. SHuning uchun ayrim inshootlardan foydalanish davrida, ya’ni zaryadlangan zarrachalarni tezlatgichlarini, atom reaktorlarini va boshqa yuqori radiatsiyaga ega bo‘lgan inshootlarda yoki yuqori chastotali qudratli kuchlanish manbalarda o‘lchashlarni faqat profilaktik to‘xtashlar paytida echish mumkin. SHuning uchun sikllar orasida katta intervalli vaqt o‘tadi, o‘lchash laxzasini tanlash murakkablashadi va maksimal deformatsiya kutilayotgan davrga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Tadkikotlar ko‘rsatadiki, yassi parallel plastinkaga ega bo‘lgan NA-1,N-1,

N-0,5, N<sub>t</sub>-0,07, N<sub>i</sub>-0,04 , Dini-11, Dini-21T turdag'i nivelerlar yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

YOpiq inshootlarda yuqori aniqlikda nivelerlashni bajarish, nisbatan osonroq erishiladi. Bir qator mualliflar ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki yuqori aniqlikda nivelerlash ochik xavoda bajarilganda, soyabondan foydalanishdan tashkari nivelerini qo‘sishma issiqlikdan ximoyalovchi asbobdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu esa iburchak qiymatini 2 marta kamaytiradi va nivelerlash aniqligini oshiradi. Barcha hollarda nivelerning asosiy shartini tadqiqot qilishda maxsus stend barpo etish lozim. Buning uchun bino devorida teng balandlikda 2 ta shkala o‘matiladi. Bunday murakkab bo‘lman qurilma nivelerning bosh shartini zudlikda nazorat qilishni ta’minlaydi. Nivelerning asosiy shartini nazorat etish chastotasi asosan, nivelerning turi, tashqi muxitning o‘zgarmasligi, maydonligi silkinishlar miqdori va xar bir konkret xolat uchun eksperimental ravishda aniqlanadi. Agar nivelerning asosiy sharti ikkilangan nivelerlash usuli bilan tekshirilmasdan, sezilarni elka tengsizligidagi ikkita o‘lchashlar oshirilgan bo‘lsa, qarash trubasini qayta fokuslashga alohida etibor berish lozim bo‘ladi.

Bu holda bosh shartni bajarishda ikkilangan nivelerlash usulidan foydalanish e’tiborga molikdir.

YAssi parallel plastinkali yuqori aniqlikdagi nivelerlarni tadqiq etishda, uning turli uchastkalarida baraban bo‘lakchasing qiymatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun  $0,5+1,0$ mm bo‘laklarga bo‘lingan shkala tayyorlanadi va UIL — 21 yoki IZA—2 turidagi o‘lchov mikroskopda komporirlanadi, oraliqlarning pasportdagi qiymati bilan baraban sanog‘n bo‘yicha aniqlangan interval miqdorini takkoslash natijasida kerakli axborotni olish mumkin. Agar bitta shtrixdan emas, balki bissektor yoki vizir nishonning murakkab shaklidan foydalanilsa, baraban mikrometrini tadqiq qilishda murakkab bo‘lman qurilmadan foydalanish qulaydir.

SHkala mikrometr vinti yordamida ko‘chirish uchun moslashgan, ko‘chirish miqdorini mikrometr yoki soat turidagi indikator yordamida aniqlanadi. Bunday moslama mikrometr barabanini tadqiq qilishda talab etilgan oraliqni tanlash imkonini beradi.


YUqori aniqlikda nivelerlash ishlari tajribasi kursatadiki, noyob niveler tagligni qo‘llash nivelerlash aniqligini va ishlab chiqarish unumdorligini sezilarni oshirishga imkon beradi. Ish paytida taglik niveler shtativining bosh kis migaga o‘rnataladi. Noyob niveler tagligi platformaga o‘rnataladi va siqvchi planka yordamida maxkamlanadi. Platforma niveler bilan 100 mm balandlikda ravon siljishi mumkin. Bunda niveler kiyaligi  $\pm 10$  dan oshmaydi. Noyob niveler tagligini qo‘llab nivelerini o‘rnatish stansiyadagi ish vaqtining 10% ni tashkil etadi.

Noyob niveler tagligi yuqori aniqlikdagi niveler bilan komplektda bo‘lsa, stansiyadagi nazorat uslubini o‘zgartirishi mumkin. Ma’lumki, yuqori aniqlikda nivelerlashda stansiyadagi nazorat

ishlari, reykaning asosiy va qo'shimcha sanoqlar bo'yicha hisoblanilgan nisbiy balandliklar farqini taqqoslashdan iboratdir. Ammo ikki shkalali reykada qo'shimcha shkala shtrixi asosiy shkala shtrixiga nisbatan 2,5 mm ga siljigan bo'ladi, asosiy shkaladan olingan sanok qo'shimcha shkaladan olingan sanoqdan+98 sanoq barabani mikrometrining 50 bo'lagiga farq qiladi va nazorat o'lchoviga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Bu asosan qo'shimcha shkala bo'yicha sanoq bevosita asosiy shkala bo'yicha olingan sanoqdan keyin olinganda namoyon bo'ladi.

Oddiy shtativ bilan asbobning ikkita gorizontida nivelirlash nixoyatda mashshaqatli ishdir. Asbob gorizontini o'zgartirish uchun noyob nivelir taglidan foydalanish ancha qulay, ayniqsa vizirlash chizig'ini o'zi o'rnatadigan nivelirlar qo'llanilganda.

Texnologik qurilmalar va inshoot devoriga mahkamlangan reykalar bo'yicha qisqa vizirlash nurli yuqori aniqlikda geometrik nivelirlash, ikkita bajaruvchi bilan amalga oshiriladi. Noyob inshootlardan foydalanish vaqtida bu o'lhashlar bo'yicha, odatda inshootning holatini taxlil qilish uchun barcha shkalalar balandligi hisoblanadi, texnologik kurilmalarga o'rnatilgan shkaladan uning siljishi kuzatiladi, devorga o'rnatilgan shkala bo'yicha esa qurilish konstruksiyasining deformatsiyasi va fundament cho'kishi aniqlanadi. Binobarin shunday xolat bo'lishi mumkinki, o'rtadan turib geometrik nivelirlashni bajarishning imkonini bo'lmaydi.



SHakl - 7.8.1.

Bunday holatlarda vizirlash nuri uzunligi farqini saqlagan holda. nisbiy balandlikni ikkilangan o'lhashini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi (7.8.1- shakl).

#### Nazorat savollari:

1. Geometrik nivelirlash usullari.
2. Nivelirlash usullari.
3. O'rtadan nivelirlash afzalliklari.
4. Asbob gorizonti aniqlash.
5. Nivelir xisomlari.
6. Ko'ndalang chiziqlar usuli nimadan iborat.
7. Trassa nima ? Kameral trassalash nima ?
8. Uzala trassalash deb nimaga aytildi ?
9. Kvadratlar usulli nimadan iborat ?
10. Asosiy kvadrlatlarni nivelirlash ketma-ketligi
11. Yer qazish ishlari xajmi kanday iniqlanadi ?
12. Yer xajmi kartogrammasi nima ?
13. Loyihaviy balandlik xisoblash formulasi.

#### Adabiyotlar:

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamGASI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi,1975 y.
5. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O'qituvchi – 1984 y.
- 6.Internetdan olingan ma'lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

**MA ‘R U Z A №8**  
**TEODOLITLI S’YOMKA. TOPOGRAFIK S’YOMKA.**

**REJA**

- 1.Teodolitli s’yomkaning mohiyati.
- 2.Taxeometrik s’yomkaning mohiyati.
- 3.Menzulaviy s’yomkaning mohiyati.
- 4.Fototopografik s’yomka haqida umumiy ma’lumot

**Tayanch so‘zlar:** Rekognossirovka, to‘g’ri geodezikmasala, teskari geodezik masala, Drobishev chizg’ichi. Topografik plan olish, taxeometr, relef, kontur, dalnomyer iplari, kroki, diagramma konsentrik, menzula s’yomkasi, burchak chizish s’yomkas, planshet, metall taglik, menzulaviy kipregelaero geodeziya, fototasvir, fotogrammetriya, aerofoto geodeziya, aerofotos yomka, aeronegativ, fototeodolit,

**8.1. Teodolitli s’yomkaning mohiyati.**

Teodolit va o‘lhash lentasi yordamida joyning kontur planini olish teodolit bilan plan olish deyiladi. Bunda joyning relefi planda tasvirlanmaydi. SHuning uchun teodolit bilan plan olishni gorizontal plan olish ham deyiladi.

Asosan teodolit bilan plan olish tekislik joyda qo‘llaniladi. Bunda teodolit yo‘li ko‘rinishidagi plan olish to‘ri barpo qilinadi. Bu to‘r kesma chiziq shaklida bo‘lib, burchaklari teodolit bilan va tomonlari po‘lat lenta bilan o‘lchanadi. Lenta o‘rnida aniqlikni ta’minlaydigan dalnomyer ham qo‘lanishi mumkin.

Teodolit yo‘li uchlari joyda belgilangan ko‘pburchakdan iborat: ko‘pburchakning  $d_1$   $d_2$   $d_3$  ...  $d_n$  tomonlari va bu tomonlar orasidagi burchaklar  $\beta_1$   $\beta_2$   $\beta_3$  ...  $\beta_n$  o‘lchanadi. O‘lhash natijalariga asoslanib ko‘pburchak uchlarining koordinatalarini topiladi.

Teodolit yo‘li ochiq poligon va yopiq poligon ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Teodolit yo‘lini o‘tkazish vaqtida bajariladigan ishlar:

- 1) Teodolit yo‘lini loyihasini tuzish.
- 2) Rekognossirovka.
- 3) Teodolit yo‘li punktlarini joyda belgilash.
- 4) Teodolit yo‘lini o‘tkazish vaqtida o‘lhash ishlari.
- 5) O‘lhash natijalarini ishlab chiqish va teodolit yo‘li punktlarining koordinatalarini aniqlash.

**Teodolit yo‘li loyihasini tuzish.**

Teodolit yo‘li loyihasi yirik masshtabli topografik karta yoki plan asosida tuziladi. Loyihani tuzishda quyidagilarga e’tibor berilishi lozim:

a) teodolit yo‘li maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim, teodolit yo‘li turli maqsadlarda o‘tkazilganligidan, unga qo‘ylgan talablar ham turlicha bo‘ladi;

b) teodolit yo‘lini o‘tkazish vaqtida o‘lhash natijalarini tekshirish va ularga baxo berish uchun teodolit yo‘li, triangulyasiya, poligonometriya umuman planli koordinatalari ma’lum bo‘lgan punktlarga bog‘lanish yoki yopiq poligon va tugun punktlar hosil qilishi kerak;

v) teodolit yo‘lining har tomoni 350 metrdan uzun, o‘zlashtirilmagan joyda 20 metrdan, o‘zlashtirilmagan joyda 40 metrdan qisqa bo‘lmasligi kerak.

g) boshlang‘ich va oxirgi punktlar hamda tugun punktlar oralig‘i belgilangandan uzun bo‘lmasligi kerak.

**Rekognossirovka.**

Teodolit yo‘lining loyihasi tasdiqlangandan so‘ng topografik plan olishda asoslanadigan geodezik tayanch punktlarning o‘rnini tanlash maqsadida joy ko‘zdan kechiriladi va tekshiriladi,

*rekognossirovka* deb ana shunga aytildi. Bu vaqtida teodolit yo‘lini loyihaga muvofiq o‘tkazish mumkin, mumkin emasligi hamda geodezik tayanch punktlar bor yo‘qligi aniqlanadi.

Rekognossirovka vaqtida quydagi shartlar bajarilishi lozim:

a) teodolit yo‘lining ketma-ket joylashgan punktlari bir-biridan ko‘rinishi;

b) teodolit yo‘lining tomonlari masofani o‘lhash qulay bo‘lgan joylardan o‘tish;

v) tafsilot va rel’efni planga olishni qulaylashtirish maqsadida punkt uchun qoqilgan belgilar mustaxkam o‘rnashadigan va uzoq saqlanadigan qulay joy tanlanishi;

g) punktlar plani olinadigan rayon uchun bir xil tartibda nomerlanishi kerak.

Rekognossirovka natijalariga asoslanib, teodolit yo‘lini o‘tkazish sxemasi va ish plani tuziladi.

### **Teodolit yo‘li punktlarini joyda belgilash.**

Imorat tushgan territoriyalarda teodolit yo‘li punktlari metall qoziq, metall truba yoki rele bo‘lagi qoqib belgilanadi. Punktning nomeri va undan shu erdag‘i eng yaqin ob’ektgacha bo‘lgan masofa shu joydagi devor, bino, yoki boshqa ob’ektlarga yozib qo‘ylisa, punktni topish osonlashadi. Teodolit yo‘li punktlarini joyda belgilab ketayotganda bu punktlar joylashgan territoriyaning xomaki plani xam chizib boriladi.

O‘zlashtirilmagan joylarda teodolit yo‘li punktlari metall truba, yog‘och ustun qoqib belgilanadi. Teodolit yo‘li mustaqil shaxobcha ko‘rinishida o‘tkazilsa, uning har beshinchi punkti poligonometriya reperi yoki grunt reperi bilan belgilanadi. Grunt reperining atrofi uchburchak yoki to‘rtburchak shaklida kovlab belgilab qo‘yiladi.


### **Tafsilotni planga olish**

Tafsilotlarni planga olish teodolit yo‘li punktlardan bajariladi. U har bir tafsilot nuqtalari va konturlari joylashishini ma’lum masshtabda planga tasvirlashni o‘z ichiga oladi.

**Koordinatalar usuli.** Tafsilotlarni planga olish teodolit yo‘li tomoniga nisbatan bajariladi. Tafsilot nuqtalarining joylashishi to‘g‘ri burchakli koordinatalar bilan aniqlaydi. Bunda absissa o‘qi qilib yo‘l tomonning yo‘nalishi, ordinata o‘qi qilib yo‘l tomoniga perpendikular yo‘nalishi olinadi.

8.1-shaklda abssissa o‘qi qilib 2-3 va 3-4 tomon qabul qilingan. Nuqtalar *d*, *e*, *f* ni joylashinini aniqlash uchun o‘sha nuqtalardan 2-3 tomonga perpendikulyar o‘tkaziladi. 2 nuqtani koordinata boshi deb qabul qilib, undan perpendikular asosiga bo‘lgan kesma-abssissa va perpendikulyarning o‘zi – ordinata o‘lchanadi. Xuddi shunday qilib g nuqtaning joyi ham 3-4 tomonga nisbatan aniqlanadi.

Ordinata usulida olingan nuqtalar teodolit yo‘li tomonlari bo‘yicha.



SHakl 8.1.


**Chiziqli kesishtirishi usuli.** Nuqtaning joyi tomonlari o‘lchangan uchburchakning uchini aniqlashdek bajariladi. 9.3.shaklda V va S nuqtalar 3-V, 3-S, 4-V, 4-S masofani 3-4 tomonga nisbatan o‘lchash orqali aniqlangan. Planda V va S nuqtalarni tasvirlash uchun 3V4 va 3S4 uchburchaklar tomonlarini plan olish masshtabida sirkul bilan o‘lchab qo‘yiladi.

### 8.2. Taxeometrik s’jomkaning mohiyati.


Planga joyning tafsilotlari bilan relefi tushirish topografik plan olish deyiladi. Taxeometrik va menzulaviy plan olish topografik plan olishning o‘zginasidir. Taxeometriya so‘zini o‘zbekcha tarjima qilsa «tezo‘lhash» ma’nosini anglatadi. Taxeometrik plan olishda gorizontal va vertikal plan olish bir vaqtning o‘zida vertikal aylanaga ega bo‘lgan taxeometr-teodolit bilan bajariladi.

Nuqtalarning planli o‘rni gorizontal burchak va masofa bilan, uning nisbiy balandligi trigonometrik nivellirlash orqali aniqlanadi. Taxeometrik plan olish o‘rtacha murakkab tafsilotga va relefi yaxshi formaga ega bo‘lgan joylarda qo‘llaniladi.

**Tafsilotlarni taxeometrik planga olish.** Planga olish asosi hisoblangan nuqtadan quyidagi tartibda bajariladi. Nuqtaning ustiga taxeometr markazlashtiriladi. Uning limbi shunday orientirlanadiki, o‘ng aylanada qarash trubasini ikkinchi nuqtaga qaratganimizda gorizontal doiradan olingan sanoq ikkinchi tomonning



SHakl 8.2.1



SHakl 8.2.2.

direksion burchagiga teng bo'lsin. Uning uchun gorizontal doira alidadasi sanog'i direksion burchakga teng qiymatga quyiladi. Limbni harakatlantirib qarash trubasi vizir o'qi ikkinchi nuqtaga qaratiladi. Bunday paytda limbning nomi x o'qi bo'yicha orientirlangan bo'ladi. SHuning uchun o'ng doirada tafsilotlarni planga olayotganda gorizontal doiradagi sanoq olinayotgan nuqtalar yo'nalishining direksion burchagini beradi.

Agar tafsilotlarni planga olish teodolit yo'li nuqtalaridan bajarilayotgan bo'lsa, limb x o'qiga nisbatan orientirlanmasdan teodolit yo'li yo'nalishi bo'yicha orientirlanadi. Unda gorizontal doiradagi sanoq birinchi tomon yo'nalishi bilan planga olinayotgan nuqta orasidagi burchakni qiymatini beradi.

Tafsilotlarni planga olish uchun reyka joy relefi va konturning harakterli nuqtalariga qo'yiladi. Ko'rish trubasining vertikal ish nuqta ustida turgan reykaning o'rtasiga qaratiladi va dalnomyer iplari bo'yicha masofa sanog'i, vertikal ipni asbob balandligiga qaratib (navedenie) gorizontal va vertikal doiralardan sanoq olinadi.

Jadvalda taxeometrik plan olish jurnalining na'munasi berilgan. Tafsilotlarini planga olish uchun reyka o'rnatilgan nuqtalar piketlar deyiladi. Piketlarni shunday hisob bilan tanlash kerakki, kamroq piket olib joyning to'liq tafsilotini olish imkoniyati bo'lsin. Bir qiyaliklarda va yaxshi ko'ringan releflarda 1:1000 masshtabli planda har 30 m. va 1:2000 masshtabli planda har 20 m piketlar tanlanadi.

Plan olish jarayonida dala jurnali plan birga kroki (abris) ham olib boriladi. CHunki taxeometrik plan olish hisoblash (kameral) sharoitda olib boriladi. Bajaruvchi joyning ko'psonli piketlaridan iborat bo'lgan tafsilotning joylashish tafsilotini eslab qololmaydi. SHuning uchun kroki chizib borish juda muhim ish. Kroki plan olinayotgan joyning tafsilotlar nuqtai nazaridan ham va relef nuqtai nazaridan to'liq tassavvurini berishi kerak. Unga o'simliklar va predmetlar konturiga qo'yilgan hamma piket nuqtalari tushiriladi.

Qiyaliklarning yo'nalishi strelkalar bilan, yaxshi ko'rinishli formaga ega bo'lgan releflar shartli gorizontallar bilan ko'rsatiladi. YAXshisi krokini har bir stansiya uchun alohida qattiq jildli daftarda maxsus doirasi diagramma bo'yicha olib borish kerak.

Diagramma konsentrik aylanadigan iborat bo'lib stansiyadan piketlargacha bo'lgan masofalarni piketlar yo'nalishi bo'yicha direksion burchaklarni aniqlash uchun, har  $10^0$  dan qator radiuslar chizilgan bo'ladi.

Konsentrik aylana markazi stansiya joyini belgilaydi. Krokiga hamma piket nuqtalari qutb koordinaltalari bo'yicha:  $\alpha$  azimuti va stansiyadan piketgacha d masofa qo'yiladi.

## TAXEOMETRIK PLAN OLİSH JURNALI

10.1-jadval

Kuza tuv nuqtasi	Gori-zontal doira bo'yicha sanoq	Masofa	Vyer tikal doira-dan sanoq	Qiya- lik bur-chagi	$D=L\cos^2 \nu$ , m.	$\pm h$ , m.	Absolyut balandlik N., m.	Eslatma
<b>№1 Turish joyi:</b>								
Limb gorizontal doira bo'yicha A nuqtaga orientirlangan								
$A=241^013'$ ; $i=1,38$ ; $H_1=176,16$ m.; $NU=0^000'5$								
A	61°14'		358°38'	0°00',5				
U	381 50		0 35	0 00, 5				
			UD					
A	241°13	139,2	1° 23'	+ 1°22',5	139,2	+3,31	-	
U	138 51	105,6	359 26	- 0,34, 5	105,6	-1,05	-	
1	17 05	53,1	359 35	-0,25, 5	53,1	-0,38	175,78	Yo'lak
2	42 15	72,0	357 00	-3 00, 5	71,9	-3,76	172,40	Poliz chegarasi
3	103 26	39,1	356 56	-3 04, 5	39, 0	-2,08	174,08	
4	144 11	53,9	356 59	-3 01, 5	53, 8	-2,83	173,33	
5	198 35	26,2	0 53	+0 52, 5	26, 2	+0,39	176,55	Yo'lak
6	206 30	47,8	0 31	+0 30, 5	47, 8	+0,42	176,58	
7	284 19	45,0	1 36	+1 35, 5	45, 0	+1,25	177,41	

Tafsilotlarni planga olishda stansiyadan piketlarga bo'lgan yo'l quyiladigan masofalar chyokiga rioya qilish kerak. Ular plan olish masshtabiga qarab jadvalda ko'rsatilgan chekdan oshib ketmasligi kerak.

Plan olish masshtabi	Piketlargacha bo'lgan masofa, m.	
	Balandlik	Konturli va konturli – balandlik
1:5000	250	150
1:2000	200	100
1:1000	150	80

Taxeometrik plan tuzish koordinata to'rlarini chizish va koordinatalar bo'yicha geodezik asoslar va plan olish punktlarini tushirishdan boshlanadi. Gorizontal chiziqlarning to'g'ri tushirilganligini tekshirgandan keyin, tafsilotlarni planga olishdagi nuqtalarni tushirish boshlanadi.

Tafsilot va relef nuqtalari metall transportir yoki transportir-kvadrant (10.3-shakl) yordamida tushiriladi. Buning uchun transportir-kvadrant stansiyada shunday joylashtiriladi: transportir-kvadrantining markazi stansiya ustiga, u orqali transportir-kvadrant  $0^0$  qiymati orqali o'tgan chiziq x o'qining ustiga tushishi kerak. Berilgan stansiyaning hamma piketlarini tushirgandan keyin, kroki va dala jurnalidan foydalanib konturlar chiziladi va piketlarining absolyut balandliklari bo'yicha interpolysiya yo'li bilan gorizontallar o'tkaziladi.

### 8.3. Menzulaviy s'yomkaning mohiyati.

Menzula bilan plan olish menzula va kiprigel yordamida bajariladi. U bevosita dalada qalam bilan topografik plan olish imkoniyatini beradi.

Menzula bilan plan olishning asosiy avzalligi plan olish jarayonida joy aniq ko‘rinib turishi, joyning tuzilayotgan plan bilan taqqoslash mumkinligi va plan tuzishining yuqori sifatligi. Bu usulning kamchiligi quyidagilar: ishning asosiy qismi dalada bajarilishi, ob-havoning qorli, yomg‘irli kunlarida ishlash imkoniyati yo‘qligi va menzula asboblarining ko‘pligi.

**Menzula** shtativ, taglik va planshetdan iborat jihozlardan tashkil topgan.


Metall taglik (8.3.1-shakl) silindrik qism 5 ga mahkamlash uchun uchta vint 3 bilan yuqori qism 4, uchta ko‘tarish vinti 7 va qotirish vinti 2 va 6 to‘g‘rilash vintidan iborat. Ko‘tarish vintlari plastik prujina 1 orqali o‘tadi.

Menzula shtativi (8.3.2.shakl) uchta oyoq 12, uning boshi metall qalpoq 15 bilan tugaydi. O‘rnatish vintini oxirigacha qattiq buralsa menzula tagligi va unga mahkamlangan planshet aylanishi to‘xtaydi.


Ish tugagandan keyin taxta-planshet taglikdan olinib, namliklardan himoya qilish uchun plenkaga o‘rab brezent xilofga solib qo‘yiladi.

Kipregel – qarash trubasiga, vertikal doiraga va adilakli metall chizg‘iga ega bo‘lgan asbobdir.

**Kiprigel.** Kiprigel – qarash trubasi, vertikal doira va adilagi bo‘lgan metall chiziqdan iborat




SHakl 8.3.1




SHakl 8.3.2.

asbob. Kipregel KN redensiyali qarash trubasining bitta vaziyatida nisbiy balandlik va masofani aniqlash uchun mo‘ljallangan. Kipregel KN bilan ishlaganda 3 metrli yig‘iladigan reyka ishlatiladi.


Sanoq olishdan oldin vertikal doiradagi adilak o‘rtaga keltiriladi. Masofani aniqlash uchun reykadagi boshlang‘ich aylana va to‘r iplari vertikal shtrixi bo‘yicha masofa aylanasi o‘rtasidagi bo‘laklar soniga teng sanoq olinadi. Misol S=23,5 sm x 100 = 23,5 m.



SHakl 8.3.3.



SHakl 8.3.4.



SHakl 8.3.5.

Nisbiy balandliklarni aniqlash aniqligi vertikal doira nol o‘rniga ( $NO'$ ) bog‘liq. SHuning uchun 2-3 nuqtaga qaratilib  $NO'$  aniqlanadi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$NO' = (O'D - CHD)/2$$

Bu erda:  $O'D$ -o‘ng doiradan olingan sanoq;

$CHD$ -chap doiradan olingan sanoq

Aga nol o‘rni ( $NO'$ ) 1’ dan katta bo‘lsa uni 0 ga keltirish kerak. Uning uchun qarash trubasi o‘ng doira vaziyatida biror nuqtaga qaratiladi va yo‘naltiruvchi vintni aylantirib vertikal doira ko‘rinadigan sanoqni quyidagi formula bilan aniqlaydigan qiyalik burchagi qiymatiga qo‘yiladi:

$$V = (O'D - CHD)/2$$

$$V = O'D - NO'$$

$$V = CHD - NO'$$

Vertikal doiradagi adilak to‘g‘rilash vintlari bilan adilak pufakchasi o‘rtaga keltiriladi. Vertikal doira adilak pufakchasini o‘rtaga keltirib, truba yo‘naltirishi vinti yordamida qarash trubasi ko‘rish maydonida NU ga teng sanoq qo‘yish mumkin. Vertikal doira vinti bo‘rash bilan truba ko‘rish maydonidagi sanoq nolga keltiriladi. Keyinchalik vertikal doira adilagi to‘g‘rilash vintlari bilan adilak pufakchasi o‘rtaga keltiriladi.

#### *Kiprigelni tekshirishi.*

1. Kipregel chizg‘ichining qirrasi to‘g‘ri chiziq bo‘lishi kerak. Kipregel chizg‘ichining qirrasi bo‘yicha uchi o‘tkirlangan qalam bilan taxtaga mahkamlangan qog‘ozga chiziladi. Kipregel  $180^0$  ga aylantirib chizig‘ichning qirrasi o‘sha chiziqning ustiga qo‘yiladi va yana chiziq chiziladi. Agar chiziqlar ustma-ust tushsa yoki og‘ish 0,1 mm gacha bo‘lsa shart bajarilgan bo‘ladi. Og‘ish katta bo‘lsa kipregel chizg‘ichi ustaxonada tuzatishishi kerak.

2. Kiprigel chizg‘ichining taglik yuzasi tekislik bo‘lishi kerak.

Kipregel chizg‘ichi tekis yuzaga qo‘yiladi. Agar chizg‘ichning ikki uchi yuqoriga qiyshaygan bo‘lsa, taxtaga qo‘yilgan kiprigel turg‘un turmaydi. CHizg‘ichni ustaxonada to‘g‘rilash kerak. Agar

ikki uchi pastga qarab qiyshaymagan bo'lsa unga xavfli emas. Kipregel og'irligi bilan u to'g'rilanishi mumkin.

3. Qo'shimcha chizg'ich 3 asosiy chizg'ich 10 dan farqli masofada bo'lsa ham unga parallel ravishda siljishi kerak.

Kipregilni planshetda joyidan qimirlatmasdan qo'shimcha chizg'ichni asosiy chizg'ichdan bir necha marta qo'yib, har qo'yganda qalamning o'tkir uchi bilan chiziq chiziladi. O'lchagich bilan chiziqlarning bir biriga nisbatan joylashgan masofalari o'lchab ko'riladi. Masofalar farqi 0,2 mm. kam bo'lsa shart bajarilgan bo'ladi.

4. Kipregel chizg'ichidagi silindrik adilak o'qi chizg'ichning pastki tekisligiga parallel bo'lishi kerak.

Kipregel chizg'ichi ikkita ko'tarish vinti yo'nalishi bo'yicha menzula taxtasining o'rtasiga qo'yiladi. O'sha ko'tarish vintlari bilan adilak pufagi o'rtaga keltirilib chiziq chiziladi. Keyin kipregel  $180^0$  aylantirishib, shu chiziqqqa boshqa tomondan qo'yiladi. Agar adilak pufagi o'rtada qolsa shart bajarilgan bo'ladi.

5. Qarash trubasi vizir o'qi truba aylanishining gorizontal o'qiga perpendikular bo'lishi kerak.

6. Trubaning aylanish o'qi kipregel chizg'ichi pastki tekisligiga paralel bo'lishi kerak.


Asbobdan 10-20 m masofadagi bino devorining yuqoriq joyidan biror nuqta tanlab trubani o'sha nuqtaga to'g'rilmiz. Keyin truba gorizontal holatgacha tushiriladi va devorda to'r iplari proeksiyasining o'rni belgilanadi. Trubani zenit orqali aylantirib yana yuqoridagi nuqtaga to'g'rilib, truba pastga tushiriladi va nuqta o'rni belgilanadi. Agar proeksiyalar ustma-ust tushsa shart bajarilgan bo'ladi. Agar bajarilmasa asbob ustaxonada tuzatilishi kerak.

7. To'rning biror ipi kipregel trubasining kallimatsion tekisligida yotishi kerak.

Ko'rish trubasining vertikal ipi biror nuqtaga qaratiladi. Trubani syokin aylantirilib nuqtaning ipdan chiqib ketgan ketmaganligi kuzatiladi. Agar nuqta ipdan chiqmagan bo'lsa shart bajarilgan bo'ladi.

«Ko'yak» qurib, tortilgandan keyin unga balandlik kalkasi qo'yilib, qattiq qalam bilan orientirlash chizig'i, trapetsiya burchaklari uchi, geodezik asos punktlarining o'rni bosib tushiriladi. Keyinchalik «ko'yakning» ozgina joyi lezviya bilan teshik ohib tafsilotlarni tushirish boshlanadi.

Nuktalardan birining absolyut yoki shartli balandligi ma'lum bo'lsa, boshqa nuqtalarning absolyut (shartli) balandliklari hisoblab



SHakl 8.3.6.

chiqariladi. Absolyut balandlik qiymati, nuqtalar yoniga 1 santimetr- gacha yaxlitlab yozib qo'yiladi.

#### **8.4. Fototopografik s'jomka haqida umumiy ma'lumot**

Aerogeodeziya – yer yuzasi fototasvirini olish va ularni joyining karta va planlarda qayta xosil qilish usullarini ishlab chiqadi va o'rghanadi.

Fototasvirlar samolyotlarga va erga o'rnatiladigan maxsus fotografik apparatlar yordamida olinadi. Joyning olingan tasvirlari yordamidatopografik karta va planlarni tuzishda fotogrammetrik usul keng qo'llaniladi.

Fotogrammetriya ob'ektlarning xolati va shakl o'lchamlarining tekislikda yoki fazodagi, xamda ularning fotogrammetrik tasvirlariga ko'ra joyning turli hil ko'rinishlarida aniqlash usullarini o'rghanadi.

Aerofotogeodeziyada yer yuzasi ob'ekt, geometrik tasviri esa uning aniq plani yoki joyning kartasi xisoblanadi.

Aerogeodeziyada, geodeziya fanining ko'plab usullari keng qo'llaniladi. Mustaqil fan bo'lib geodezidan ajralib chiqqan. Karta va planlarni geodezik asoslarini yaratish bu ikki fanni umumiy maqsadga birlashtiradi.


##### *Fototopografik ishlar.*


Maxsulot xarakteri va yaratilishiga ko'ra s'jomkalar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. konturli aerofotos'yomkalar;
2. murakkab s'jomka;
3. stereotopografik s'jomka;
4. yer usti fototopografik s'jomkasi

##### *Konturli aerofotos'yomka.*


Konturli aerofotos'yomkao'zida jarayonlarning majmuasini ko'rsatadi, ularni bajarish natijasida joyning konturli plani hosil kelinadi. Konturli aerofotos'yomka boshlang'ich jarayoni bu joyning aerofotos'yomkasi xisoblanadi. Aerofotos'yomka jarayonida tasvirga tushiriladigan xududustidan samolyotda o'zaro parallel marshrutlar o'tkaziladi. Bunda joy belgilangan vaqt oraliqlarida shunday xisob bilan tasvirga tushiriladi, marshrutdagi xar qaysi navbatdagi aerotasvirlar, oldindan berilgan kattalikdagi bo'ylama va ko'ndalang yopmalarni xosil qilishi kerak bo'ladi.





GPS-Supported Flight Navigation System for the Acquisition of Spatial Data

Leica



The world gets more  
complicated. So our solutions get simpler and more compatible

Leica

### **Nazorat savollari:**

1. Taxeometrik plan tuzishqanday amalga oshiriladi?
2. Topografik plan olish deb nimaga aytildi?
3. Menzulaviy S'jomkaning mohiyati nimada?
4. Menzulani ish holatiga keltirish qanday amalga oshiriladi?.
5. Menzulaviy S'jomka qilish uchun planli asos yaratish qanday amalga oshiriladi?
6. Mezulaviy S'jomka uchun balandlik asosini yaratish qanday amalga oshiriladi?
7. Tavsiotlarni va relefni S'jomka qilishni bilasizmi?
8. AeroS'jomka ishlari nimalardan iborat?
9. AeroS'jomka paytida qanday geodezik ishlar amalga oshiriladi?
10. Fotogrmmmetrik ishlardeganda nimalarni tasovvur qilasiz?
11. Yer lazerli skanerlari nima?

### **Adabiyotlar:**

1. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya i kartografiya. - T.: O'qituvchi, 2002.-234 b.
2. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
3. A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamGASI, 2006
4. Qo'ziboev T., «Geodeziya» - Toshkent, :O'qituvchi, 1975 y.
5. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O'qituvchi – 1984 y.
6. Internetdan olingan ma'lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

### **M A ' R U Z A № 9.**

## **QURILISH UCHUN INJENYER QIDIRUV ISHLAR. LOYIHALASHDA GEODEZIK ISHLAR REJA**

1. Injenyer qidiruv ishlaringning turlari.
2. Qurilish xududida tayanch geodezik to'rlarini barpo etish..
3. Qidiruv paytida topografik s'jomkaning masshtabini va turlarini tanlash.
4. Bosh reja (generalnyi plan).

*Tayanch so'zlar: qurilish pasporti, bosh plan ob'ekti, grafik usul, analitik usul, grafik va analitik usul, qiyalik, loyihamiy otmetik, yer massalari kartogrammasi*

*Tayanch so'zlar: subpodryad, proektlash, deformatsiya, loyihalash, gidrotexnik inshootlar*

### **9.1. Injenyer qidiruv ishlaringning turlari..**

Injenerlik inshootlarni qurishda bajariladigan geodezik ishlar quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Qidiruv ishlari (izlanishlar)
2. Loyihalash ishlari
3. Loyihani joyga ko'chirish ishlari
4. Qurilish davrida bevosita bajariladigan geodezik ishlar
5. Ijroiya plan tuzish
6. Deformatsiyani kuzatish

### **Injener-geodezik izlanish ishlari:**

- a) Injenerlik ishlari quriladigan joyda geodezik tayanch shaxobchalarini barpo etish.
- b) Plan olishni o'tkazish
- v) Topografik plan olish.

- g) CHiziqli inshootlarni trassalash.  
d)Injener-geologik, gidrologik, gidrometereologik va boshqa texnikaviy qidiruv ishlardida geodezik ishlarni o'tkazish

**Injener-geodezik loyihalash** ishlari:

- a) Inshootlarni qurilish pasportini injener-geodezik qismini ishlab chiqish.
- b) Bosh planni joyga ko'chirish, ish chizmalarini ishlab chiqish.
- v) Vertikal planlashtirish planini ishlab chiqish.
- g) Inshootlarni bevosita qurish loyihasini ishlab chiqish.

**Loyihani joyga ko'chirish** ishlari:

- a) Binolar quriladigan joy chegarasi va qizil chiziqni belgilash.
- b) Inshootning asosiy o'qlari va gorizontlarini joyda belgilash.

**Inshootni qurishda bevosita bajariladigan geodezik** ishlari:

- a) Territoriyani injenerlik jihatdan tayyorlash.
- b) Inshootning yer osti qismini qurishda bajariladigan geodezik ishlari.
- v) Inshootning yer usti qismini qurishda bajariladigan geodezik ishlari.

**Inshoot qurilishning barcha etaplarida va qurilish bitganidan so'ng ijroiya plan olish hamda ijroiya plan tuzish.**

**Inshootning deformatsiyasini ekspluatatsiyadavrida tekshirib borish.**

## 9.2. Qurilish xududida tayanch geodezik to'rlarini barpo etish..

Hozirgi vaqtda qurilishda geodezik ishlarni tashkil qilishni to'rt shakli uchraydi:

1) Barcha geodezik ishlarni subpodryad yoki qurilishda tashkil qilingan geodezik gruppaga tomonidan bajariladi. Bunday tartib yirik inshootlar (shahar gidrotexnik, sanoat korxonalari) qurilishida uchraydi. Bunday qurilishda injener-quruvchini vazifasiga geodezik ishlarni bajarilishi, plan va smetasini tasdiqlash, hamda uning ustidan nazorat qilib turish kiradi.

2) Inshoot qurishda murakkab geodezik ishlari maxsus geodezik tashkilot, yoki qurilishdagi gruppaga tomonidan, ikkinchi darajali geodezik ishlari esa injener-quruvchi tomonidan bajariladi. Injener-geodezik ishni tashkil qilishni bunday tartibi shaxarlarda uy-joy qurilishida uchraydi.

3) Murakkab geodezik ishlari maxsus geodezik tashkilot yoki geodezik gurux ikkinchi darajali geodezik ishlarda esa, shu qurilishga yuborilgan injenyer yoki texnik-geodezist tomonidan bajariladi. Bunday tartib karkas-panel uy-joy qurilishida foydalaniadi.

4) Barcha geodezik ishlarni injener-quruvchi bajaradi. Bunday tartib uncha murakkab bo'limgan inshootlar, masalan, bir, ikki qavatlari uy-joy qurish, qishloq qurilishi, jamoat va madaniyat binolarini qurishda qo'llaniladi.

Injenyer quruvchi qanday vazifada ishlashiga ko'ra quyidagi geodezik ishlarni bajaradi:

- geodezik ishlari plani va smetasini tasdiqlash;
- tashkiliy ishlarni bajarish;
- bajarilgan geodezik ishlarni tekshirish va uni qabul qilib olish;
- inshoot qurilish uchun ajratilgan joyning planini olish;
- chiziqli inshoot trassasi bo'ylab niverlash ishini bajarish;
- boshqa kishilar tomonidan bajarilgan loyihami joyga ko'chirish ishlarni tekshirish;
- qurilish maydonida va chiziqli inshoot trassasida loyihami joyga ko'chirish;
- yer va beton ishlarni hajmini aniqlash.

### 5). Injener-geodezik izlanishlar.

Hozirgi ishlab chiqarish va fuqarolar qurilishlarida asosiy tashkiliy ishlardan biri geodezik ishlari bo'lib, u qurilish ishlarni montaj qilishdagi texnologik protsess hisoblanadi, Bular proektlash, qurilish va foydalanishga topshirish davrida barobar xizmat qiladi.

- birinchi (proektlash) bosqichda injener-geodezik ishlari bajarilishi talab qilinadi. Uning vazifasi karta, plan, profil sifatida ma'lumotlar yig'ish, loyihamanayotgan ob'ektlarga qurilish inshootlarini to'g'ri joylashtirish hamda qurilish maydonlarini joriy qilishdan iboratdir.

Izlanishlar ikki bosqichda bajariladi (taxminiy va haqiqiy) xomaki va butkul.Loyihalash ishi olib borilayotganda ko'pincha qurilish bo'ladigan uchastkaning injenerlik loyihasi tuziladi, bunda

plan va balandlik bo'yicha inshootlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan geodezik hisoblar bajariladi.

- ikkinchi bosqich - qurilish bosqichida loyiha joyga ko'chirilib, inshootlar joyi aniq ko'rsatiladi. Imorat qurilishi davomida qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida geodezik xizmatlar ko'rsatiladi.

Qurilishi tugallangan ob'ektni foydalanishga topshirish davomida ishlar bajarilishi plani, foydalanish davomida esa imorat va inshootlarni deformatsiyasi tekshirilib turiladi.

- 1) Injener-geodezik izlanishlarga quyidagilar kiradi:
- 2) Bo'lajak qurilish maydonini topografik sharoitini o'rganish;
- 3) Ilgari o'tkazilgan geodezik ma'lumotlar - triangulyasiya, poligonometriya, nivellirlash va plan olish shaxobchalari, topografik plan olish kabi ma'lumotlarni yig'ish va muhokama qilish.
- 4) YAngi planli va balandlik shaxobchalar barpo qilish.
- 5) Planga olish asosini tuzish.
- 6) Topografik plan olish.
- 7) Trassalash ishlari.
- 8) Boshqa izlanishlar: injenyer geologik, gidrologik va boshqalar davomida bo'laklarga bo'lish va plan olish.

### **9.3. Qidiruv paytida topografik s'jomkaning masshtabini va turlarini tanlash.**

Qurilishning har bir ob'ektiga injener-geodezik izlanish programmasi tuziladi. Bunda joyni topografo-geodezik o'rganish ma'lumotlaridan tashqari, qilinishi kerak bo'lgan geodezik va topografik ishlar asoslanib boriladi.

Programmaga joyni ko'rsatuvchi sxema va kartogrammalar, bajarilishi kerak bo'lgan topografik ishlar hajmi ko'rsatilgan ma'lumot biriktiriladi.

### **9.4.Bosh reja (generalnyy plan).**

Qurilish maydonida geodezik ishlar quyidagi hujjatlar asosida bajariladi.

- a) qurilish pasporti
- b) bosh plan
- v) loyihanening geodezik qismi asosida bajariladi.

#### **Qurilish pasporti**

Qurilish pasporti - uy-joy va grajdan binolarini qurish uchun ajratilgan yer uchastkasidan foydalanish huquqini beruvchi kompleks hujjatlar.

Qurilish pasportida yer uchastkasidan foydalanish huquqi, uchastka chegarasi, qurilish qizil chizig'i, loyihalash uchun kerakli ma'lumotlar, inshoot quriladigan joydagi tabiiy-geografik sharoitlar, hamda inshoot quruvchi tashkilotning vazifalari ko'rsatiladi.

Qurilish pasportini shahar, posyolka, rayon bosh arxitektori boshqarmasi tomonidan tuzilib, manfaatdor tashkilotlarga beriladi.

Loyihanening eng asosiy qismi - bosh plan hisoblanadi.

#### **Bosh plan**

Bosh plan - loyihalanayotgan ob'ektni qog'ozda ma'lum masshtabda tasvirlaydigan va shartli belgilari bilan ko'rsatilgan grafikaviy hamda yozuv-raqamli materiallarni o'z ichiga oladi. Unda ob'ekt chegarasi, yer usti binolari, yer osti va havo inshootlari, qurilmalar va simlar, loyihalanayotgan rel'ef va o'simliklar qo'rsatiladi. Bosh planlar yirik masshtablarda (1:500, 1:1000, 1:2000) tuziladi.

Bosh plan tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) tushuntirish xati;
- 2) ob'ekt joylashgan maydonni tafsilotlar plani (unda harakat yo'llari va shu ob'ektga xizmat qiladigan tashqi injenerlik kommunikatsiyalari trassasi ko'rsatilgan bo'ladi);

3) Ob'ektning bosh plani (unda barcha bino va inshootlar, transport qurilmalarining joylashishi, asosiy bino va inshootlar polarining balandliklari, temir yo'l rel'slarining boshlari va va rel'ssiz yo'llar yuzasining qoplamasi ko'rsatilgan bo'ladi).

4) Rejalash chizmasi (unda kapital binolar bosh va asosiy o'qlari, o'tish joylari o'qlarining kesishish nuqtalari, transport qurilmalrining burilish nuqtalari, yer osti va usti kommunikatsiyalari tarmoqlarining koordinatalari ko'rsatilgan bo'ladi).

5) Vertikal planirovka qilish plani (yer qazish ishlari kartogrammasi, tashqi, ichki temir yo'llar, rel'ssiz yo'llar profillari ilova qilingan bo'ladi).

6) Qurilish bosh plani. Joyda inshootlarning o'qlari va sirtqi o'chamlarini yasash uchun yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan rejalah chizmasi, qurilish bosh plani va vertikal planirovka qilish plani bo'lishi shart.

Qurilish maydonchasida bino va inshootlarni rejalah chizmalariga asosan joylashtirish uchun joyda planli va balandlik geodezik asos punktlari bo'lishi kerak.

Bosh plan masshtabida tuziladigan yuzani vertikal planirovka qilish planida barcha inshootlar xarakterli nuqtalarining otmetkalari, ularning o'zaro birlashishi, shuningdek, qurilmaydigan va ko'kalamzorlashtiriladigan maydonlar otmetkalari qo'rsatiladi. Loyihaviy rel'ef, odatda qizil gorizontallar bilan ifodalanadi.

YUZani vertikal planirovka qilish planida naturaga o'tishda loyihaviy otmetkasi berilgan nuqtani joyga ko'chirish masalalarini hal qilish, shuningdek berilgan loyihaviy qiyalikka asosan chiziq va tekisliklar yasashga to'g'ri keladi.

### **Loyihaning geodezik qismi**

Loyihaning geodezik qismiga quyidagilar kiradi:

- Bino va inshootlarning bosh va asosiy o'qlarini joyda yasash loyiha-sxemasi.
- O'qlar yasash aniqligining dastlabki hisobi, o'qlar yasashga doir instrumental va metodik ko'rsatmalar.
  - O'qiy stvor belgilarni joylashtirish loyiha-sxemasi.
  - Inshootlarning cho'kishi va deformatsiyasini kuzatishga oid ishlar loyihasi (bunga asosiy kuzatish hamda nazorat qilish reterlari va markalarini joylashtirish, kuzatish programasi kiradi).
  - Qurilish konstruksiyalarini montaj qilish uchun kundalik geodezik ishlar o'tkazish, montaj o'qlari va gorizontallarni tiklash va mahkamlash, vertikal konstruksiyalarni to'g'rilash, o'qiy nuqtalarini yuqoriga uzatishga doir, bu ishlarning aniqligi to'g'risida ko'rsatmalar.

### **Bino va inshootlar loyihasini joyga kuchirish uchun ma'lumotlarni tayyorlash usullari.**

Loyihani joyga ko'chirish uchun kerakli ma'lumotlar (qurilish pasporti, bosh plan, qurilish bosh plani...) grafik, analitik va grafo-analitik usullarda olib boriladi.

Loyihani joyga ko'chirishda asosan kerak bo'ladigan qiymatlar - chiziq uzunligi, gorizontal burchak va nuqtalar balandligidir.


1) **Grafik usul** - bosh plandan binoning ayrim nuqtalarini o'rni, chiziq uzunligi va yo'nalishi sirkul, transportir va ko'ndalang masshtab yordamida aniqlanadi. Lyokin bu usul, uncha aniq emas.

2) **Analitik usul** - bunda ayrim tayanch nuqta, bino burchaklari, ko'cha va kommunikatsiyalar kesishgan nuqta burilishlarining koordinatalari turli geodezik usulda aniqlanadi, bu qutbiy to'g'ri burchakli koordinata, kesishirish va boshqalar. Bu usulda kerakli ma'lumotlar juda aniq bo'ladi.

3) **Grafik va analitik usul** - yuqoridagi ikki usulni aralashmasidan iborat bo'lib, ko'proq sanoat qurilmalarida qo'llaniladi.

### **Gorizontal va qiya maydonlarni loyihalash.**

**Qiyaliklar.** Kvartal ichidagi territoriyalarni planirovka qilishda, texnologik asbob-uskunalar uchun qiya maydonchalar tayyorlashda va boshqa hollarda berilgan nishablik bo'yicha qiya yassiliklar loyihalanadi.



SHakl 9.4.1. Qiya tekislik loyihalashga doir sxema

Nivelir to‘ri kvadratlari uchlarining qora otmetkalarini, loyihaviy yassilik boshlang‘ich nuqtasining  $N_1$  otmetkasini ( SHakl 9.4.1) va loyihalanayotgan yuzaning ikkita o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishlari bo‘yicha berilgan  $i_1$  va  $i_2$  nishabliklarni bilgan holda nivelir to‘la kvadratlari uchlarining loyihaviy otmetkalari, so‘ngra ilgari ko‘rsatib o‘tilgan tartibda ish otmetkalari hisoblab topiladi.

Boshlang‘ich nuqtaning *loyihaviy otmetkasi*  $N_1$  bilan loyihaviy yassilikdagi  $N_2$  otmetkali ixtiyoriy nuqta o‘rtasidagi bog‘liqlik

$$H_2 = H_1 - d_1 i_1 - d_2 i_2$$

formula bilan ifodalanadi, bu erda  $i_1$  va  $i_2$  - gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda berilgan loyihaviy nishabliklar;  $d_1$  va  $d_2$  - boshlang‘ich nuqta bilan nishabliklar yo‘nalishlarida aniqlanayotgan nuqta orasidagi masofa.

Hisoblab topilgan loyihaviy va ish otmetkalari ish chizmasiga, kvadrtalarning tegishli uchlari yoniga yozib qo‘yiladi, ularga asoslanib planirovka qilish ishlari bajariladi va loyihaviy otmetkalar uchun yuzalar tozalanadi.

#### Nazorat savollari:

- 1.Bosh reja (generalnyi plan) deganda nimani tasovvur qilasiz?.
- 2.Bino va inshootlar loyihasini joyga kuchirish uchun ma’lumotlarni tayyorlash usullari qanaqa bo‘ladi?.
- 3.Gorizontal va qiya maydonlarni loyihalashni bilasizmi?.
1. Kurilish pasporti nima?
2. Bosh plan tarkibiga nimalar kiradi?
3. Loyihani geodezik kismini
4. Loyihani joyga kuchirish usullari
5. Injener-geodezik izlanishlarga nimalar kiradi?

#### Adabiyotlar:

1. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. T: TAKI, 2002
2. A.S.Suyunov. Geodeziya. O‘quv qo‘llanma Samarkand. SamGASI, 2006
3. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O‘qituvchi – 1984 y.

4. Internetdan olingan ma'lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

**M A ' R U Z A № 10**  
**BINO VA INSHOOTLAR LOYIHASINI JOYGA KO'CHIRISHDA**  
**BAJARILADIGAN GEODEZIK ISHLAR**  
**REJA**

1. Rejalash ishlarning mohiyati.
2. Loyihaviy gorizontal burchakni va chiziq uzunligini joyga kuchirish
3. Bino va inshootlar loyihasini joyga ko'chirish. Joyga ko'chirish usullari.
4. Loyihaviy otmetkani, chiziq va tekislikni berilgan nishablikda joyga ko'chirish.
5. Otmetkani kotlovan tubiga va binoning yuqori qismiga uzatish.
6. Joyda doiraviy qayrilmani rejlash.
7. Inshootning balandligini aniqlash.

**Tayanch so'zlar:** inshootni rejlash, planiy rejlash, balandlik bo'yicha rejlash, general plani, poydevor perpendikulyar yo'naliishlar, egrini batafsil rejlash, tugri burchakli koordinatalar, kutb koordinatalar, davom ettirilgan vatarlar usuli

**10.1. Rejalash ishlarning mohiyati**

Loyihadako'rsatilgan injenerlik inshootini quriladigan joyda shakl va o'lchami bo'yicha o'rnini belgilashda bajariladigan geodezik o'lhash ishlari majmui *inshootni rejlash* deyiladi. Rejalash planiy va balandlik bo'yicha bo'ladi.

**Planiy rejashda** inshootning o'mni gorizontal tekislikda belgilanadi.

**Balandlik bo'yicha rejashda** esa loyihadagi nuqta va chiziqlarning vertikal tekislikdagi o'rinnari belginaladi.

Loyihani joyga ko'chirishda quyidagi xujatlardan foydalilaniladi:

1. Joyning topografik plani va inshootning 1:5000 - 1:500 masshtabli general plani .
2. Inshootning bo'ylama va ko'ndalang profillari.
3. Inshoot loyihalangan joyning vertikal holatini tasvirlovchi vertikal planirovka plani.
4. Qurilishdagi geodezik tayanch punktlar vedomosti va ularning o'rashish sxemasi.
5. 1:500 – 1:1000 masshtabdagi ish chizmalar.

Bulardan tashqari, ishga chiqish oldidan har qaysi ish mohiyati va ishslash usulini aks ettiruvchi rejash chizmasi ham bo'lishi kerak.

Inshootlarni rejash ishlari berilgan burchaklar, chiziq uzunliklari, nuqtalar balandliklari, chiziq va tekisliklar nishabliklarini joyga ko'chirish ishlarini o'z ichiga oladi. Inshoot loyihasini joyga ko'chirish uchun kerakli qiyomatlar loyihalashda tuziladigan rejash chizmalarida ko'rsatiladi.


Texnik jihatdan loyihani joyga ko'chirish gorizontal va vertikal s'jomkalar uchun bajarilgan amallarni teskari tartibda olib borishdan iborat bo'ladi. Agar s'jomkada va plan tuzishda yer turlari va ularning chegaralari va boshqa tafsilot elementlari planga tushirilsa, loyihani joyga ko'chirishda esa bu chegara va tafsilot elementlari plandan joyga ko'chiriladi. Buning uchun kerakli bo'lgan chiziq uzunliklari va boshqa qiyomatlar plandan olinadi. Tafsilotni s'jomka qilish usullari aylanish usuli, chiziqda o'lhash, to'g'ri burchakli va qutb koordinatalar, burchakli va chiziqli kestirmalar usullari loyihani joyga ko'chirishda ham qo'llaniladi. Nuqtalar balandliklari va chiziqlar nishabliklarini joyga ko'chirish nisbiy balandliklarni joyda yasashdan iborat bo'ladi.

Loyihani joyga ko'chirishda inshootni qidiruv va loyihalash uchun barpo etilgan geodezik tayanch tarmokla-ri punktlaridan foydalilaniladi, zarur bo'lsa, ular aniqligi inshootni qurish uchun etarli zichlikkacha rivojlantiriladi.

## 10.2. Loyihaviy gorizontal burchakni va chiziq uzunligini joyga kuchirish

YOpiq, notekis katta maydonli erlarda inshootlar o‘qi siniq chiziqlardan iborat bo‘lganda loyio‘a geodezik asos yoki mavjud punktlarga nisbatan burchak va chiziq uzunliklarini yasash orqali joyga ko‘chiriladi./

Loyihaviy nuqtaning joyidagi o‘rnini ko‘pincha qutb koordinatalari usulida A nuqtada loyihaviy  $\beta$  burchakni va loyihaviy  $Aa = S$  masofasini yasashdan iborat.



*Shakl 10.2.1. Loyihaviy nuqta o'rnini joyida aniqlash sxemasi.*

*Shakl 10.2.2. Loyihaviy balandlikni joyiga ko'cherish sxemasi*

O‘ng  $\beta$  burchakni yasash uchun teodolit boshlang‘ich A nuqtaga o‘rnatalidi, alidada va limb nolinchi shtrixlari tutashtiriladi va limbni (alidada bilan) burash orqali ko‘rish trubasi boshlang‘ich yo‘nalish bo‘yicha V nuqtaga qaratiladi. Keyin alidada bo‘shatilib, uning shtrixi burchak kattaligini belgilovchi limb shtrixi bilan tutashguncha buraladi. Bunda ko‘rish trubasi № nuqtaga yo‘nalgan bo‘ladi.

## 10.3. Bino va inshootlar loyihasini joyga ko‘chirish. Joyga ko‘chirish usullari.

Agar chap  $\gamma$  burchak yasalayotgan bo‘lsa, unda alidada nolinchi shtrixi  $\gamma$  burchak kattaligini belgilovchi limb shtrixi bilan tutashtiriladi va limb (alidada bilan) burash orqali ko‘rish trubasi boshlang‘ich yo‘nalish bo‘yicha V nuqtaga yo‘naltiriladi. Keyin alidada bo‘shatilib, u alidada shtrixi limbning nolinchi shtrixi bilan tutashgunchaburaladi.

Bunday holatda truba qarash o‘qi loyihaviy  $N_2$  nuqtaniko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan yo‘nalishda S chiziq uzunligidan kattaroq bo‘lgan masofa o‘ng  $\beta$  va chap  $\gamma$  burchaklarni yasash natijasida teodolit bo‘yicha ikkita veva qo‘yiladi. Ularningikki holatidan o‘rtachasi N nuqta topiladi. Bu yo‘nalish bo‘yicha Anuqtadan gorizontal quyilishi  $S_{Aa}$  loyihaviyqiyatga teng bo‘lgan qiya  $D_{Aa} = S/\cos\gamma$  masofa lentada o‘lchanadi, teodolit bo‘yicha uning uchiga  $a$  nuqta holatini mahkamlaydigan belgi qo‘yiladi. CHiziquzunligiqayta o‘lhash orqali tekshiriladi.

## 10.4. Loyihaviy otmetkani, chiziq va tekislikni berilgan nishablikda joyga kuchirish.


Yo‘l, quvur, kanal va boshqa chiziqli inshootlarni qurishda qiya yo‘nalishni joyga ko‘chirishga to‘g‘ri keladi. Qiya yo‘nalish balandliklari ma’lum ikki nuqta yoki nishabligi va bir uchi balandligi berilgan chiziq bo‘yicha yasaladi.

Qiya yo‘nalish balandliklari ma’lum ikki nuqta orqali geodezik asboblar: teodolit va nivelir yordamida yoki ko‘z bilan chandalab o‘tkaziladi.

Teodolit yordamida qiya yo‘nalishni yasash uchun nuqtalarning biri A ga urnatilib (10.4.1., a-shakl), balandligi io‘lchanadi. Topilgan qiymat V nuqtadagi o‘rnatalgan reykada nishonga qaratilganda ko‘rish o‘qi AV chiziqqiyaligini undan i masofa yuqorida takrorlaydi. Ko‘chma reyka nishoni hosil bo‘lgan chiziqda yotqizilib, oraliq 1, 2, ... nuqtalarga usti AV chiziqda yotadigan qoziqlar qoqiladi.

Qiya yo‘nalishni niveler yordamida yasash niveler A nuqtaga ko‘targich vintlardan biri AV chiziqdagi, ikkita vintini tutashtiruvchi chiziq esa AV chiziqa tik yotadigan qilib o‘rnataladi (10.4.1, b - shakl). AVchiziqda joylashgan ko‘targich vintni burash orqali truba V nuqqadagi reyka asbob balandligi i ga teng bo‘lgan sanoqqa qaratiladi. SHundan keyin 1, 2 nuqtalarga reyka qo‘yilganda sanoqlar asbob balandligi i ga teng bo‘ladigan qilib ularga qoziqlar qoqiladi.

Ko‘z bilan chandalab qiya yo‘nalishini yasash uchun to‘g‘ri burchak ostida qoqilgan ikkita chizg‘ich — Tshakli ko‘rinishidagi nishonlar qo‘llaniladi. Ulardan ikkitasi chiziq uchlariga



r)

#### 10.4.1. Shakl. Berilgan nishablikni joyiga ko‘chirish sxemasi a — nivelirda, b — teodolitda


o‘rnataladi. Oraliq 1, 2 ..., nuqtalarga qoziqlar ko‘chma nishonlar ustki qirrasi va nishablik chizig‘ida yotadigan nishonlardan biridan 0,5—0,7 m narida turgan kuzatuvchi ko‘rsatmasiga binoan qoqiladi.

Nuqtalardan birining balandligi va chiziq nishabligi ma’lum bo‘lganda qiya yo‘nalish teodolit yoki niveler yordamida yasaladi. Teodolit boshlang‘ich nuqtaga o‘rnatilib, vertikal doira berilgan nishablikning daraja qiymati qo‘yilib, kiya nur hosil qilinadi. Oraliq nuqtalar truba ko‘rish o‘qi chizig‘i bo‘yicha aniqlanadi. Ko‘rish uqi chizig‘i xolatining to‘g‘riligi oxirgi nuqta balandligini yaqin reperdan aniqlash yo‘li bilan tekshiriladi.

Qiya tekisliklarni rejalah ham joyda planli va balandlik o‘rnlari aniqlangan yo‘nalishlar bo‘yicha yuqorida bayon etilgan usullar asosida o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

#### 10.5. Otmetkani kotlovan tubiga va binoning yuqori qismiga uzatish.


Berilgan loyihaviy  $N_v$  balandlikni joyga kuchirish uchun V nuktada ustki balandligi  $N_v$  teng bulgan kozik kokilishi kerak. Buning uchun balandligi  $N_A$  ma’lum bulgan A reper va V nukta



urtasiga niveler urnataliladi. Reperda urnatilgan reykadan a—sanok olinadi,

$v = N_l + a - N_v$  sanoq hisoblanadi va  $V$  nuqtadagi reykadan sanoq topilgan  $v$  kiymatga teng bo'lgunga qadar unga qoziq asta-syokin qoqladi.

M i s o l.  $V$  nuktada ustki kirkim balandligi  $N_v = 242,5$  m bulgan kozik kokish kerak. A repyerning balandligi  $N = 243,325$  m, sanok  $a = 0,676$  mm bulsa,  $v = 243,325 + 0,76 = 242,500 = 1501$  mm. Demak,  $V$  nuktada kozik uning ustiga reyka kuyilganda sanok 1500 mm bulguncha kokiladi



SHakl 10.5.2. Balandlikni inshoot poydevori chukuri tagiga va yuqori qismiga uzatish sxemalari

Agar poydevor chukurining tubiga va inshoot yuqori gorizontiga balandlik uzatiladigan bulsa, bunda reyka- dan tashkari pulat ruletka kullaniladi. Kuzatish ikki nivelirda bir vaktda olib boriladi. Ulardan biri yer sirtida, ikkinchisida esa chukurlik tagida yoki inshootning yuqori qismi ustiga urnatiladi.

Chuqurlik tubiga balandlik uzatish va inshoot yuqori qismiga balandlik uzatish sxemalari keltirilgan. Chuqurlik ustiga kronshteyn o'rnatilib, unga nolinchi uchida yuki bo'lgan ruletka ilinadi va undan bir vaqtda ikki nivelirdan  $v_1$ , va  $a_2$  sanoqlar olinadi. SHundan qeyin pastdagi niveler trubasi chuqurlikdagi  $V$  nuqtada o'rnatilgan reykaga qaratilib,  $v_2$  sanoq olinadi va  $V$  nuqtaning balandligi

$$Nv = Na^+ a_2 - (v_1 - a_2) - v_2$$

formula yordamida hisoblanadi.  $V$  nuqta balandligi loyi haviy balandlikka teng bo'lishi uchun chuqurlik tagidagi sanoq

$$v_2 = N_A + a - (v_1 - a_2) - N_v$$

bo'lishi kerak. Reykadagi sanoq hisoblangan  $v_2$  ga teng bo'lguncha chuqurlik tagida qozik, vertikal bo'yicha surilib turiladi.

A reperdan balandlikni inshoot yuqori qismidagi  $V$  reperga uzatish ham yuqorida ta'kidlangan tarzda amalga oshiriladi (15.3.3., -shakl). Bu holda  $V$  nuqta balandligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N_v = N_A + a_1 + (a_2 - v_1) - v_2$$

va inshoot devorida belgilanadi, undan loyi haviy balandlikkacha bo'lgan oraliq, o'lchanib, nuqta mahkamlanadi.


## 10.6. Joyda doiraviy qayrilmani rejalahsh.

CHiziqli inshootlarni qurishda doiraviy egrining joyda belgilangan bosh (*EB*, *EU*, *EO*) nuqtalari etarli bo'lmaydi. SHuning uchun ular oraligida egrining radiusiga qarab  $K$  yoya teng har 5, 10, 20 m da yotadigan  $P_v R_2$ ,  $R_3 \dots$  nuktalar belgilanadi. Bu masala *egrini batafsil rejalahsh* deyiladi, kelincha to'g'ri burchakli, kutbli koordinatalar va davom ettirilgan vatarlar usullarida echiladi.

*Tugri burchakli koordinatalar* (perpendikulyar) lar usulida *EB* yoki *EO* nuqtasiga urinma bo'lgan AV chiziqnn abssissa o'qi  $x_1$ , va *Rradiusni* ordinata o'qi  $u$  deb qabul qilinib, egrida yotgan  $R_g$ ,  $R_2$ ,  $R_3 \dots$  nuqtalarning o'rni to'g'ri burchakli koordinatalar bo'yicha aniklanadi. Bu holda berilgan

K yoyga teng bo'lgan markaziy burchak qiymati  $\gamma = 180^\circ K / \pi R$  formulada, koordinatalar qiyatlari

$$x_1 = / R \sin y_1 = 2 \sin 2y/2 \\ x_2 = R \sin 2y, u_2 = 2R \sin 2.2u/2$$



**SHakl - 10.6.1 . Doiraviy egrini batafsil rejalash usullari:**  
**a — perpendikulyar, b — burchaklar; v — vatarlar.**

$$x_p = R \sin 2y, y_2 = 2R \sin^2 \frac{u}{2}$$

formulalarda hisoblanadi.

Hisoblangan abssissa  $x_1$  va ordinata  $u_2$  EB va EO dan ular o'rtasi EO 'ga qarab urinma AV va unga perpendikulyar bo'yicha lenta yoki ruletka yordamida qo'yyilib egrida  $P_1, R_2, R_3, \dots$  nuqtalar belgilanadi.

*Kutb koordinatalar* (burchaklar) usuli aylananing biror A nuqtasidagi

Yoylari teng urinma va vatsil qilgan burchaklar tegishli markaziy burchaklarning yarmiga tengligiga asoslanadi. Vatar Sva R kiymatlari ma'lum bo'lganda  
 $\frac{\sin y}{2} = \frac{S}{2R}$

formuladan uqiymati topiladi.

A nuqtaga teodolit o'rnatilib, alidada va limb nollari tutashtiriladi, truba V nuqtaga karatiladi va AV yo'nalishdan alidadani burash orqali  $u/2$  burchak limbda qo'yilib, ko'rish o'qi yo'nalishida Skesma o'lchanib,  $R$  nuqta- ning egri chiziqdagi o'rni hosil qilinadi. Keyin alidada doirasasi AV yo'nalishdan  $u$  burchakka buraladi. Lenta boshlanishi  $R$  nuqta bilan tutashtirilib, u truba qarash o'qi tomonga tortiladi va  $R_1$  nuqtadan Smasofa o'lchanib,  $R_2$  nuqta topiladi.

Qolgan nuqtalar o'rni ham shu tartibda topilib,  $P_1, P_2, R_3$  nuqtalarga qoziqlar qoqiladi.

*Davom ettirilgan vatarlar usulida* egri chiziqning radiusi  $R_{VA}$


vatar Sberilgan uzunliklari bo'yicha  $\frac{\sin y}{2} = \frac{S}{2R}$  formulada  $u$  burchak hisoblanadi va quyidagi

$$x_1 = / R \sin y_1 = 2R \sin 2y/2$$

$$x_2 = R \sin 2y, u_2 = 2R \sin 2.2u/2$$

$$x_p = R \sin 2y, y_2 = 2R \sin^2 \frac{u}{2}$$

formuladan foydalanib,  $R_1$  nuqtaning o'rni, to'g'ri burchakli koordinatalar usulida rejalanadi




(10.6.1, e- shakl).

Uni mahkamlab  $AR$ , vatar yo'nalishida Skesma o'lchanadi va topiladi,  $R_2$  nuqta mahkamlanadi. Egri chiziqdagi  $R_2$  nuqtaning o'rni (lentada va ruletkada) kesmalarni chiziqli kesishtirish orqali topiladi. Teng yoqli  $P_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  va  $OR_1R_2$  uchburchaklar o'xshashligidan doimiy oraliq (siljish) deyiladigan dqiyamati  $d = S^2/R$  formulada hisoblanadi.

### 10.7. Inshootning balandligini aniqlash.

Inshoot balandligini, masalan, binoning (13.7.1., a- shakl) balandligini aniqlash uchun uning yaqinidagi A nuqtaga teodolit o'rnatiladi.



Inshoot yuqori va pastki nuqtalariga truba qaratilib, qiyalik  $v_1$  va  $v_2$  burchaklar o'lchanadi.  $AB=D$  qiya masofa lentada yoki ipli dalnomerda o'lchanib, uning gorizontal qo'yilishi tegishli ravishda  $S=D\cos v$  yoki

$S=D\cos^2 v$  formulalar yordamida hisoblanadi. U holda inshoot balandligi  $h=S(tg v_1 - tg v_2)$ .

Inshoot qurishda uning poydevori chuqurligi tubi balandligi loyiha-viy kiymatiga teng bo'lguncha muntazam ravishda uni kavlash jarayonida tekshirib tushiriladi.

CHuqurlik tubiga reyka o'rnatilibr, truba burchagi v hamda ipli dalnomerda qiya  $D$  masofa nisbatan pasayishi

$h = D/2 \sin 2v$   
formuladan hisoblanadi.

belgilangan nuqtaga qaratiladi, qiyalik o'lchanadi. CHuqurlik tubining reperga

### Nazorat savollari:

1. Rejalash ishlarining mohiyati nimada?
2. Loyihaviy gorizontal burchakni joyga kuchirishni tushintiring?
3. Loyihaviy chiziqni joyga kuchirishni ayting?
4. Bino va inshootlar loyihasini joyga kuchirishni ayting?
7. Otmetkani kotlovan tubiga va binoning yuqori qismiga uzatishni tushintiring?
8. Joyda doiraviy qayrilmani rejalahshi gapiring?.

### Adabiyotlar:

1. SH.K.Avchiev, S.AToshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. T: TAKI, 2002
2. A.S.Suyunov. Geodeziya. O‘quv qo‘llanma Samarkand. SamGASI, 2006
3. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O‘qituvchi – 1984 y.
4. Internetdan olingan ma’lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

## M A ‘ R U Z A № 11 QURILISH JARAYONIDA GEODEZIK ISHLAR

### REJA

1. Bino va inshootlarni mufassal rejalahsh, inshoot o‘qlarini ixotalarga chiqarish.
2. O‘qlarni mahkamlash. Kotlovan va fundamentlarni rejalahsh.
3. Boshlangich va montaj gorizontida rejalahsh asoslarini barpo etish.
4. Qurilish konstruksiyalarini montaj qilishda geodezik ishlar.
5. Kran osti yo‘llarini montaj qilishda geodezik ishlar.
6. Texnologik jixozlarni montaj qilishda geodezik ishlar. Qurilishda lazerli geodezik asboblarining qo‘llanilishi.
7. Ijroyaviy s‘yomka.

*Tayanch so‘zlar: bosh o‘q, asosiy o‘q, otmetka, kalka, grafoanalitik*


#### **Bino va inshootlarni mufassal rejalahsh, inshoot o‘qlarini ixotalarga chiqarish**

Ma‘lumki loyihani joyga ko‘chirishdagi asosiy ma’lumotlar - chiziq uzunligi, gorizontal burchak va nuqtalar balandligi grafik, analitik va grafo-analitik usulda olib borilishi ilgarigi darsda o‘tganimiz. YUqoridagi 3 usul asosan inshootlarning tayanch nuqtalari koordinatalarini aniq joyga ko‘chirishda xizmat qiladi. SHunga tayangan holda quyidagi ishlar bajariladi.

#### **O‘qlarni mahkamlash. Kotlovan va fundamentlarni rejalahsh.**

Injenerlik inshoot o‘qi uning geometrik sxemasini ko‘rsatuvchi chiziqdandan iboratdir. Bu o‘qlar bosh o‘q, asosiy o‘q va oraliq (qo‘sishimcha) o‘qlarga bo‘linadi.

**Bosh o‘q deb** - inshoot unga nisbatan simmetrik joylashuvchi va bir-biriga perpendikulyar bo‘lgan ikki o‘qqa aytildi. Bunday o‘qlardan juda katta maydonni egallovchi va murakkab inshootlar qurilishida foydalaniлади (I-I va II-II).



*Asosiy o'q deb* inshootni tashqi chizig'ini hosil qiluvchi o'qlarga aytildi. (A-A, V-V, 1-1, 4-4). Bunday ko'rinishdagi o'qlar aksari barcha qurilishda keng qo'llaniladi.

Qolgan barcha o'qlarga oraliq (qo'shimcha) o'qlar deyiladi (B-B, 2-2, 3-3).

#### *Inshootni joyga ko'chirish chizmasi*

Bunda bosh, asosiy va qo'shimcha o'qlar holati grafik ravishda ko'rsatiladi, o'zaro kesishuvchi o'qlarning kesishish nuqtalarining fazoviy holatlarini ko'rsatuvchi analitik ma'lumotlar (koor. X, Y va N) beriladi.


Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan o'qlarni bir-biriga nisbatan tutgan holatlarini bildiruvchi oraliq va balandlik masofalari ham chizmada batavsil ko'rsatiladi.

Loyihani joyga ko'chirishdan oldin u mukammal tekshirilishi shart. Inshootning umumiy o'lchami, alohida o'qlar orasidagi masofalar yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

#### **Boshlangich va montaj gorizontida rejalahash asoslarini barpo etish.**

Loyihalanayotgan imorat yoki inshootning ma'lum nuqtalarini plan li va balandlikdagi o'mini aniqlashda masofa, burchak va nuqtaning otmetkasi loyihalash elementlari hisoblanadi. Bularni planda aniqlash uchun har xil usullar qo'llaniladi.

##### *1. Qutbiy koordinata usuli:*



Faraz qilaylik 12 va 13 nuqtalar geodezik tayanch to'rlar bo'lsin. M - inshootning xarakterli nuqtasi A ni joyga ko'chirish uchun ma'lumot tayyorlash kerak bo'lsin. Bu holda biz 12 - 13 yo'nalishga asoslanib qutbiy usulda inshoot M ning A nuqtasini joyga ko'chirish uchun uning elementlari bo'l mish burchak  $\beta_1$ ,  $\beta_2$ , masofa  $d_1$ ,  $d_2$  larni o'lchash lozim. Bunda burchak  $\beta_2$  va masofa  $d_2$  tekshirish uchungina kerak bo'ladi.

$$\begin{aligned} \beta_1 &= 360^\circ - (\alpha_{12-13} - \alpha_{12-A}) \\ \text{CHizmadan ma'lumki } \beta_2 &= \alpha_{13-A} - \alpha_{13-12} \end{aligned}$$

Bu erda  $\alpha_{12-13}$  shu 12 va 13 nuqtalar orasidagi;  $\alpha_{12-A}$  esa shu 12 nuqta va A nuqtalar orasidagi yo'nalishlarni direkson burchagidir. Nuqtalarning koordinatalari ( $X_{12}Y_{12}X_BY_{13}$ ) va yo'nalishlar direksion burchaklarini punktlar koordinatalari katalogidan olish mumkin.

Grafik usulda genplandagi  $X_A$  va  $Y_A$  koordinatalar aniqlangach, teskari geodezik masala echish usuli bilan masofa d va direksion burchak  $\alpha_{12-A}$ , shuningdek gorizontal burchak  $\beta_1$  topiladi:

$$\operatorname{tg}\alpha = \frac{\Delta Y}{\Delta X}; d = \Delta X / \cos\alpha = \Delta Y / \sin\alpha$$

formulalariga binoan

$$\operatorname{tg}\alpha_{12-A} = \frac{Y_A - Y_{12}}{X_A - X_{12}}$$

$$d_1 = \frac{X_A - X_{12}}{\operatorname{Cos}\alpha_{12-A}} = \frac{Y_A - Y_{12}}{\operatorname{Sin}\alpha_{12-A}}$$

$d_2$  va  $\alpha_{13-A}$  lar qiymatlari ham xuddi yuqoridagi usulda echiladi.

### **Qurilish konstruksiyalarini montaj qilishda geodezik ishlar.**

YUqoridagi chizmadan inshoot M ning V nuqtasini joyga ko'chirish uchun ma'lumot kerak deylik. Buning uchun V nuqtadan 12-13 to'g'ri chizig'iga perpendikulyar tushiramiz. So'ngra V va E nuqtalarning koordinatlari aniqlanadi. Tekislikda teskari geodezik masala echish usuli bilan  $d_4d_4$  va  $d_5d_6$  masofalar aniqlanadi.  $D_4$  va  $d_6$  masofalar faqat kontrol uchun xizmat qiladi.

Inshoot nuqtalarini joyga ko'chirishni kesishtirish usulida olib borish bu qutbiy usulni kombinatsiyalashidir.

### **Kran osti yo'llarini montaj qilishda geodezik ishlar.**

Ishlab chiqarish korxonalarini ko'rishda eng keng tarqalgan geodezik ishlardan biri qurilish to'ridir. U o'z navbatida to'g'ri chiziq yoki kvadratlar uchlarida joylashgan tayanch punktlar hisoblanib, qurilish maydonini qoplagan bo'ladi.

Qurilish to'rining vazifasi u imorat yoki inshoot tomonlari va unga mos o'qlarga parallel bo'lishi kerak.

Qurilish to'rini loyihalashdan maqsad qurilish maydonini topografik planda punktlar o'rnini aniqlash, loyihalash usulini aniqlash, loyihalash usulini tanlash, qurilish to'ri punktlar o'rnini aniqlash belgilash va burchakli hamda chiziqli o'lchamlarini hisoblashdan iboratdir.

To'rni odatda qurilish genplanga tushirish qulaydir. Bunda geodezik ishlardan maksimal foydalanish uchun alohida tiklanadigan uylar qurilish to'ri shakllari ichiga joylanishi kerak.

To'rning tayanch nuqtalari tuproq ishlari bajariladigan joylarga to'g'ri kelmasligi kerak. Buning uchun qurilish to'ri oldin kalkaga chiziladi, so'ngra u qurilish genplanga qo'yilib, uning yo'nalishi qurilish inshooti tomonlari va o'qlari yo'nalishiga parallel holda u yoki bu tomoniga suriladi. Bunda ko'pgina nuqtalar shu qurilish maydoniga to'g'ri kelishi kerak. So'ngra to'r kalkadan qurilish genplanga tushiriladi.

Qurilish to'ri ko'pincha grafoanalitik usulda loyihalanadi. Avval qurilish genplanga inshootning asosiy o'qlari tushiriladi, ularni koordinatalari hisoblanib, inshoot o'qlarining o'rtacha direksion burchaklari hisoblab topiladi.


To'r yo'nalishlarining direksion burchaklari  $\alpha$  va  $\alpha=90^\circ$  qilib olish qabul qilingan.

### **Texnologik jixozlarni montaj qilishda geodezik ishlar. Qurilishda lazerli geodezik asboblarining qo'llanilishi.**

Loyihaviy chiziqni (qizil chiziq) profilga tushirishda ma'lum nuqtadan loyiha otmetkasi va berilgan nishablikka hamda inshootning texnikaviy ma'lumotlariga asoalanadi.

Ma'lum nuqtalarga loyiha chizig'ini tutashuvchi nuqtalari texnikaviy tomondan hisoblanilgan ko'priklar va hakozaqlarni otmetkalari kiradi.

Bizda profilning ma'lum uchastkasi AVS berilgan bo'lsin, shunda loyihaviy chiziq EF ning belgilangan nuqtasi E( $N_E$ ) va nishab  $i_1$  asosan V' va F nuqtalarni loyihaviy otmetkalarini quyidagicha topamiz:



#### **Nazorat savollari:**

- 1.Bosh o'q nima ?
- 2.Inshootlarniloyihalash elementlari qymatlarini aniqlash usullariqanaqa?
- 3.Loyihaviy chizik kandoy aniqladi ?

#### **Adabiyotlar:**

- 1.SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O'quv qo'llanma. T: TAKI, 2002
- 2.A.S.Suyunov. Geodeziya. O'quv qo'llanma Samarkand. SamGASI, 2006
- 3.Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O'qituvchi – 1984 y.
- 4.Internetdan olingan ma'lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).

**M A ‘ R U Z A № 12**  
**BINO VA INSHOOTLARNI EKSPLUATATSIYA QILISHDA**  
**GEODEZIK ISHLAR**  
**REJA**

1. Bino va inshootlar deformatsiyalari to‘g‘risida umumiylumotlar.
2. CHo‘kishni kuzatish uchun repyer va markalarini joylashtirish.
3. Bino va inshootlar cho‘kishini aniqlash usullari.
4. Bino va inshootlar gorizontal siljishini aniqlash usullari.
5. Bino va inshootlar og‘ishini va devorlaridagi yoriqlarni kuzatish.
6. Deformatsiyani aniqlashning fotogrammetrik usullari to‘g‘risida tushunchalar.
7. Geodezik ishlarni bajarishda texnika havfsizligi bo‘yicha asosiy talablar.

**Tayanch so‘zlar :**Deformatsiya, bo‘rtish, tabiiy faktor, texnogen faktor, cho‘kish voronikasi, aproksimatsiyalash, poydevor cho‘kishi, gidrostatik nivelirlash, vizir markasi.

Deformatsiya turlari. Inshootlar deformatsiyasi ularning poydevoriga va inshootning o‘ziga turli xil tabiiy va texnogen faktorlar ta’sir etishi natijasida yuzaga keladi. Asosan inshoot va binolar deformatsiyasi ular poydevoridagi tuproq qatlaming xarakatiga bog‘liq. Bu xarakatlar tik va gorizontal holatda yuzaga kelishi mumkin.

Poydevorlarning tik deformatsiyasi quyidagilarga bo‘linadi:

CHo‘kish-deformatsiyalar, poydevor tagidagi tuproqning tashqi ta’sir va alohida holatlarida tuproqning o‘z og‘irligi ta’sirida zichlanishi natijasida yuzaga keladi va bunda tuproq strukturasi tubdan o‘zgarmaydi;

Siqilish deformatsiyalari, tuproqning zichlanishi natijasida yuzaga keluvchi va tashqi ta’sir sababli tuproq strukturasi tubdan o‘zgarishiga olib keladi masalan, tuproqning namlanishi, muzlagan tuproqning erishi va hokazolar;

Bo‘rtish deformatsiyalari, tuproq qatlamiga turli ximiyaviy moddalar ta’sirida yoki uning namligi, harorati o‘zgarishi natijasida tuproq hajmeling o‘zgarishi;

O‘tirish deformatsiyalari, yer osti qazilma boyliklarini qazib olish, gidrogeologik sharoitning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Poydevor cho‘kishining matematik xarakteristikasi-poydevorning boshlang‘ich va cho‘kish sodir bo‘lgandan keyingi tekisliklari oraliq‘idagi tik kesma bilan ifodalanadi.

Agarda bu kesmalar inshoot poydevorining barcha burchaklarida teng bo‘lsa bunday cho‘kish bir tekisda cho‘kish deyiladi, agarda kesmalar teng bo‘lmasa notejis cho‘kish hisoblanadi. SHunday qilib bir tekisda cho‘kish inshootning barcha qismiga bo‘lgan tashqi muhit ta’siri bir xilda bo‘lgan, hamda poydevor tagidagi tog‘ jinslarining bir xilda siqilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu holat amalda kam uchraydi.

Notejis cho‘kishlar inshoot qismlariga turli xil ta’sir ko‘rsatilishi va tuproqning turlicha siqilishi natijasida yuzaga keladi va bu holat bino va inshootlarni og‘ishiga, egilishi va boshqa xil o‘zgarishlariga olib keladi. Bu o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lganda bino poydevorlari va devorlarida yorilishlar paydo bo‘lishi mumkin.

Inshootning o‘z og‘irligi natijasida sodir bo‘ladigan cho‘kishlar tuproq qatlaming siqilib borishi natijasida ma’lum vaqtadan keyin to‘xtaydi.

Bunda odatdagiday, qumli tuproqlarda cho‘kish katta tezlikda xarakatlanadi va tez to‘xtaydi. Loy tuproqli joylarda esa teskarholatda, ya’ni sezilarli bo‘lmagan tezlikda boshlanib, ko‘p yillar davomida tugamaydi.

Bir tomonlama kuch ta’sirida (masalan, suv bosimi) inshootlarning gorizontal siljishi sodir bo‘ladi.

Bino va poydevorlarning birgalikdagi siljishi quyidagi parametrlar orqali ifodalanadi:

- a) alohida poydevor yoki qurilish blokining to‘liq cho‘kishi S;
- b) bino va inshootlar poydevorining o‘rtacha cho‘kishi Sur ;

v) poydevor nuqtalarining notekis cho‘kishi  $\Delta S$ ;

$$\Delta S$$

g) nisbiy notekis cho‘kishi  $\frac{l}{l}$ , ya’ni poydevor ikki nuqtasi orasidagi cho‘kish farqini nuqtalar orasidagi masofaga nisbati;

d) poydevor nishabligi i, ya’ni cho‘kish farqi  $\Delta S$  ni poydevor eni yoki uzunligiga nisbati. Poydevor nishabligi inshootning og‘ishiga (kren) olib keladi.

e) inshootning burilish burchagi x;

j) inshootning gorizontal siljishi u.

Deformatsiyani kuzatish, inshoot qurilishi boshlangan vaqtdan, to undan foydalanishning birinchi yillarigacha davom ettiriladi. Bunda kuzatish bosqichlari bir oraliqlarda olib borilishiga xarakat qilinadi. Bino va inshootlar poydevorlari va konstruksiyalaring siljishi va cho‘kishini geodezik kuzatish maxsus texnikaviy vazifaga binoan bajariladi. U erda quyidagilar ko‘rsatiladi:

a) bino va inshootlarning kuzatilishi kerak bo‘lgan qismlari;

b) boshlang‘ich reperlar va cho‘kish markalarining joylashishi;

v) kuzatish davriyligi;

g) talab qilingan aniqligi;

d) hisobot hujjalarning ro‘yhati.

Poydevor va binolar deformatsiyasini kuzatish natijalari, bino va inshootlarning qanchalik mustahkamligini aniqlashga, hamda cho‘kish sodir bo‘lishini oldini olishga imkon beradi.

Deformatsiya sabablari. YUqorida ko‘rsatilgandek, poydevorlar deformatsiyasi unga tabiiy va texnogen faktorlar ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Tabiiy faktorlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1) tog‘ jinslarining turli xil injener-geologik va gidrogeologik hodisalarga moyilligi;

2) tog‘ jinslarining sovuqda muzlash va muzlangan jinslarning erishi;

3) gidrometrik sharoitning o‘zgarishi, ko‘p yillik harorat, namlik va yer osti suvi sathining o‘zgarishi.

Texnogen faktorlarga quyidagilar kiritiladi:

1) inshootning o‘z og‘irligi ta’siri;

2) yer osti suvlarining sun’iy ravishda ko‘tarilish va pasayishi sababli tog‘ jinslarining xususiyatini o‘zgartirishi;

3) yer osti ishlari natijasida poydevorning zaiflashishi;

4) binoga qo‘sishmcha qavat qurilishi yoki yonidan yangi bino barpo etilishi natijasida, poydevorga bo‘lgan bosim (kuch) o‘zgarishi;

5) turli xil agregatlar ishlashi, transportlar xarakati sababli poydevor tebranishi.

SHular bilan birga inshoot deformatsiyasiga poydevor shakli, o‘lchamlari va mustahkamligi ham ta’sir qiladi.

**CHo‘kishni kuzatishning geodezik aniqligi. CHo‘kishni bashorat qilish.** Kuzatish aniqligi. Qurilish me’yori va qoidalariga binoan bir xil andazadagi bino va inshootlar cho‘kishi aniqligining o‘rta kvadratik xatoligi ms quyidagidan oshmasligi kerak (boshlang‘ich reperga nisbatan):

1 mm – toshloq va yarim toshloq joylarda barpo etiladigan inshoot va binolar uchun;

2 mm – qumloq va boshqa siqiluvchan tuproqlarda barpo etiladigan bino va inshootlar uchun;

5 mm – ko‘mma va boshqa kuchli siqiluvchan tuproqli joylarda quriladigan bino va inshootlar uchun.

CHo‘kishni kuzatish davri. Qurilayotgan inshootlar cho‘kishini kuzatish poydevor qurilishidan boshlanadi.

Agarda birinchi kuzatish bosqichi kechiktirilib boshlansa, u holda keyingi kuzatishlar sezilarli darajada mohiyatini yo‘qotadi.

O‘lhash davri inshoot cho‘kishining vaqtga nisbatan o‘zgarishiga (tezlashish yoki sekinlashish) bog‘liq.

Kuzatishlar ko'rsatishicha, bino va inshootlar cho'kishining davom etishi (davri) tog' jinslarining litologik va fizik tuzilishiga bog'liq. CHo'kishlarning ko'pchilik qismi qurilish jarayonida tugaydi, lekin ba'zan oylar va yillar cho'zilishi mumkin. Toshloq va qumaloq joylarda cho'kish tez tugaydi. Aksincha, loy tuproq joylarda cho'kish jarayoni ko'p oylar va yillarga cho'ziladi.

CHo'kishning asosiy qismi inshoot qurilishi jarayonida, ya'ni uning 50% dan 85% gacha qurilgan vaqtiga to'g'ri keladi. SHuning uchun bino va inshootlar cho'kishini kuzatish bosqichlari soni, qurilish jarayonida poydevorga bo'lган og'irlilikning ortib borishiga qarab aniqlanadi. Birinchi bosqich kuzatish poydevor qurilgandan keyin, inshoot umumiyoq og'irlilikning 25% ni tashkil etganda boshlanadi. CHo'kishni kuzatishning keyingi bosqichlari unga bo'lган og'irlilik, inshoot to'liq og'irligining 50, 75, 100% ni tashkil etgan davrlarda amalga oshiriladi.

YUmshoq tuproqlarda quriladigan inshootlar uchun, cho'kish tezligiga bog'liq ravishda qo'shimcha kuzatish bosqichlari bajariladi. Inshootning to'liq og'irligiga erishilgandan keyin, cho'kish turg'unlashgunga qadar yiliga 2-3 marta o'lhash davom ettiriladi. CHo'kish qiymati 1-2 mm ni tashkil etgandan keyin kuzatish to'xtatiladi.

CHo'kishni bashorat qilish. Hozirgi kunda amalda cho'kishni o'lhash natijalari bilan mos keladigan natijalar beradigan hisoblash usullari qo'llanilmoqda. Ammo ayrim hollarda sezilarli farqlar ham kuzatiladi.

Hisoblar natijalarining ishonchlilagini tekshirish uchun turli xil formulalar yordamida maxsus kuzatishlar o'tkazilgan. Bu kuzatishlar shuni ko'rsatadi, barcha qo'llaniladigan formulalar qariyb bir xil natijalar beradi. Kuzatilgan farq qilish holatlarining asosiy sababi, nazariy formulalarning noto'g'ri tuzilganligida emas, balki hisoblarda foydalilanidigan tog' jinslarining barcha xossalari etarlicha aniq bilib olish qiyinligidadir. Gidrogeologik sharoitlar, inshoot turi va uni qurish usullarini hisobga olish katta ahamiyatga ega. SHu sababli inshootlar cho'kishini basharot qilishda empirik formulalarni joydag'i kuzatish natijalari bilan qo'shish usullari maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

**CHo'kishni gidrostatik va trigonometrik. Nivelirlash usulida aniqlash.** Gidrostatik nivelirlashni qo'llash. Poydevorlar cho'kishini kuzatish gidrostatik nivelirlash usulida amalga oshirilishi mumkin, bunda nivelirlash ikki xil tartibda: birinchisi – cho'kish markalarining otmetkalarini ko'chiriladigan gidrostatik asbob yordamida; ikkinchisi, poydevor perimetri bo'ylab qo'zg'almas gidrostatik tizimlarni o'rnatish.

Tajribalar ko'rsatadiki, gidrostatik nivelirlash asosan tor erto'la sharoitida, o'rnatish noqulay bo'lган yoki kuzatuvchi ishlashi qiyin yoki xavfli sharoitda joylashgan poydevor va qurilish konstruksiyalarini cho'kishini kuzatishda qo'llaniladi.

Gidrostatik nivelirlashda asosiy xatoliklar tashqi muhit ta'sirida yuzaga keladi. Bunday ta'sirlarni kamaytirish maqsadida o'lhashlar kechki yoki ertalabki vaqtarda bajarilishiga xarakat qilinadi.

Atmosfera bosimining o'zgarishi ham idishlarga suyuqlikning teng tarqalishiga ta'sir etadi. Buning oldini olish uchun idishlarga quyiladigan suyuqlikka 0,1% formalin qorishmasi qo'shiladi.

Poydevor cho'kishini kuzatishning trigonometrik nivelirlash usuli. Bino va inshootlar cho'kishini aniqlashda geometrik va gidrostatik nivelirlash usullarini qo'llash qiyin bo'lган sharoitlarda trigonometrik nivelirlash qo'llaniladi. Bunday holatlar asosan tog' sharoitlarida sodir bo'ladi.

Trigonometrik nivelirlash qisqa vizirlash nurida, (100 m gacha) reyka qo'llash orqali bajariladi.

Nisbiy balandlik qiymati quydagi ifoda yordamida hisoblanadi:

Kuzatishlar ko'rsatadiki, qulay sharoitda T1 teodoliti qo'llanilganda, nuqtalar orasidagi masofa 100 m gacha bo'lganda, nisbiy balandlik 0,2 – 0,4 mm aniqlikda topiladi. Trigonometrik nivelirlash usulida nisbiy balandlikni o'lhash aniqligiga tik (vertikal) refraksiya katta ta'sir ko'rsatadi. Buni kamaytirish maqsadida o'lhash turli xil vaqtarda, bir nechta sikllarda olib boriladi.

### Nazorat savollari:

1. Deformatsiya nima?
2. Deformatsiya qanaqa shakllarda yuzaga keladi?
3. Tabiiy faktorlarga nimalar kiradi?
4. Texnogen faktorlarga nimalarni kiritish mumkin?
5. Kotlovan tagi bo‘rtishi nima maqsadda kuzatiladi?
6. CHo‘kishni kuzatishda qanday reperlar qo‘llaniladi?
7. Geometrik niveler usulining mohiyatini tushuntirib bering?
8. CHo‘kishning o‘rtacha tezligi qanday ifodalanadi?
9. CHo‘kishni kuzatish davri nimaga bog‘liq?

### Adabiyotlar:

1. SH.K. Avchiev, S.A Toshpulatov. Injenerlik geodeziyasi. O‘quv qo‘llanma. T: TAKI, 2002
2. A.S.Suyunov. Geodeziya. O‘quv qo‘llanma Samarkand. SamGASI, 2006
3. Norxujaev K.N. Injenerlik geodeziyasi.- T.:O‘qituvchi – 1984 y.
4. Do‘stmuxamedov “Injenerlik geodeziyasi” Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti . 2003y.
5. Internetdan olingan ma’lumotlar [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [bolshe.ru](http://bolshe.ru).  
[www.arhibook.ru](http://www.arhibook.ru).

## M A ‘ R U Z A № 13 SHAHARLARNI PLANIROVKALASH VA QURISHDAGI GEODEZIK ISHLAR REJA

1. SHaxar hududini planirovkalash va loyihalashtirish.
2. Loyihaviy qizil chiziqni aniqlash va hisoblash qizil chiziqli yo‘laklar o‘qini bino va inshootlarni joyda ko‘chirish va mahkamlash.
3. Relefni planini tuzish.
4. Relef planini joyga ko‘chirish.

Sanoat va shahar qurilishlari maydonlarida ko‘rsatmaga binoan, maydon hajmiga bog‘liq ravishda 2 – 4 sinf davlat tarmoqlari, 1 va 2 darajali to‘ldiruvchi tarmoqlar, II – IV sinf niveler usulining tarmoqlari geodezik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yirik sanoat majmui barcha inshootlari bilan birga 30 – 50 km<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Bunday maydonni planga olish uchun bosh geodezik asos sifatida 4 – sinf triangulyasiya tarmog‘i barpo etiladi.

Uch bosqichli sxemada tuzilgan geodezik asos tarmoqlari aniqligiga qo‘yiladigan talablar quyidagidan iborat: a) geodezik asos -  $m_1 = 3,8$  sm; b) to‘ldiruvchi tarmoq -  $m_2 = 5,3$  sm; v) plan olish asosi -  $m_s = 7,8$  sm. Bu aniqliklarni punktlar o‘zaro holatining o‘rta kvadratik xatoligi deb qarash mumkin.

Geodezik asosdan foydalangan holda sanoat inshootlari bosh o‘qlarini joyga ko‘chirish aniqligi quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$m_1 = m_l \sqrt{\frac{L}{l}},$$


bu erda L – maydonning umumiyligi;

$l$  – texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan sanoat inshootlari maydonining o‘rtacha uzunligi;

$m_I$  – bosh o‘qlarni rejalahning o‘rta kvadratik xatoligi ( $2 - 3\text{sm}$  bo‘lishi mumkin).

Uzunligi  $L=8\text{km}$  maydon uchun,  $l= 2\text{km}$  va  $m_I=2,5 \text{ sm}$  bo‘lsa,  $m_I=2,5 \sqrt{8/2} = 5\text{sm}$  bo‘ladi.

Agarda maydon  $3 - 4 \text{ km}$  enlikdagi cho‘zinchoq polosadan iborat bo‘lsa, u holda geodezik asos, teng tomonli uchburchaklar ko‘rinishidan tashkil topsa maqsadga muvofiq bo‘ladi (16.1 – shakl).



13.1 shakl

Bazis tomon, shakl va azimut shartlari bo‘yicha tenglashtirilgan bunday qatorlar bog‘lovchi tomonlarining lagorifmik o‘rta kvadratik xatoligi quyidagicha ifodalanadi:

$$m_{\lg S_{n/2}}^2 = \frac{1}{2} m_{\lg e}^2 + \frac{3}{4} m_n''^2,$$


bu erda  $n$  – qatordagi barcha uchburchaklar soni,  $m''$  – o‘lchangan burchakning o‘rta kvadrat xatoligi,  $m_{\lg v}$  – bazis tomonining logorifmik o‘rta kvadrat xatoligi.

Misol:  $m_v/v=1/200000$ ,  $m=2''$ ,  $n=6$  bo‘lsa,  $m_{\lg S_{n/2}}=4,5$  logorifm birligining 6 – belgisi.

Nisbiy ko‘rinishda:

$$\frac{m_{S_{n/2}}}{S_{n/2}} = \frac{4,5}{0,434 \cdot 10^6} = \frac{1}{96000}$$

6 -8 km enlikdagi maydonlarda esa markaziy tizimlar qatorini tuzishga to‘g‘ri keladi




13.2-shakl

16.2-shaklda keltirilgan tarmoq uchun  $r=4$  va  $m_{v/v} = 1/200000$ ,  $m2''$ ,  $\delta_2=1,5$  bo‘lsa,  $m_{\lg S}=4,8$  logorifm birligi.

Nisbiy xatoligi

$$\frac{m_{Sr/2}}{S} = \frac{4,8}{0,434 \cdot 10^6} = \frac{1}{90000}$$

Triangulyasiya o‘rniga yopiq poligon ko‘rinishidagi poligonometriya tarmog‘i o‘tkazilishi ham mumkin (13.3 – shakl).



13.3-shakl

Markaziy bog‘lovchi nuqtaga nisbatan punktlar koordinatalari o‘rta kvadratik xatoliklari quyidagi ifoda yordamida hisoblanishi mumkin:

$$\left. \begin{aligned} m_{xi}^2 &= 0,65m_S^2 i_x + 0,57m_\beta^2 \frac{S^2}{\rho^2} i_y^2 \\ m_{yi}^2 &= 0,65m_S^2 i_y + 0,57m_\beta^2 \frac{S^2}{\rho^2} i_x^2 \end{aligned} \right\}$$

bu erda  $m_S$  – o‘lchangan tomonlar xatoligi;  $i_x$  va  $i_y$  – x va u o‘qlari bo‘ylab boshlang‘ichga nisbatan aniqlanayotgan punktning tartib nomeri,  $S$  – chiziq uzunligi,  $m_\beta$  - burchak o‘lchash xatoligi.

4 – sinf poligonometriya tarmog‘i uchun  $m_\beta=2''$ ,  $S=1,5$  km,  $m_S = 1\text{sm}$ ,  $i_x=2$ ,  $i_y=2$  bo‘lsa, uzoqroq joylashgan nuqta uchun:

$$m_x^2 = 1,3 + 4,8 = 6,1; m_x = 2,5\text{cm}$$

Xuddi shunday  $m_u=2,5\text{sm}$ . Punkt xolati xatoligi

$$m = \sqrt{m_x^2 + m_y^2} = 2,5\sqrt{2} = 3,5\text{cm}.$$

Hisobdan ko‘rinib turibdiki, 4 – sinf geodezik asoslash tarmog‘i asosiy rejalahsh ishlari talablarini to‘liq qoniqtiradi.

Nivelirlash tarmoqlari yirik sanoat maydonlardagi balandlik asosi, inshootlar maydoni perimetri bo‘ylab o‘tkaziladigan, III – sinf nivelirlash poligonlaridan tashkil topgan bo‘ladi. Plan olish va rejalahsh ishlari uchun to‘ldiruvchi balandlik tarmoq sifatida IV – sinf nivelirlash tarmog‘i xizmat qiladi.

Bu tarmoqlardan keyinchalik bino va inshootlardan foydalanish davrida ularning cho'kishini kuzatishda ham foydalilanadi.

### Nazorat savollari:

1. Sanoat maydonlarini tanlashda nimalarga ahamiyat beriladi?
2. Texnikaviy loyiha tuzish uchun qanday planlar olinadi? Bu planlarda nimalar tushiriladi?
3. Sanoat maydonlarida qanday tarmoqlar geodezik asos sifatida barpo etiladi?
4. Sanoat maydonidagi geodezik asos tarmoqlariga qanday talablar qo'yiladi?
5. Sanoat maydonlarida balandlik asosi sifatida qanday tarmoqdan foydalilanadi?

**Tanch so'zlar:** Sanoat maydoni, korxonaning texnikaviy loyihasi, sanoat majmui, injener-geologik plan, stereofotogrammetrik usul, to'ldiruvchi tarmoqlar bazis tomon, shakl va azimut shartlari, markaziy tizim.

### M A ' R U Z A № 14

#### YER OSTI KOMMUNIKATSIYALARINI QURISH VA ISHLATISHDAGI GEODEZIK ISHLAR REJA

1. Yer osti kommunikatsiyalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.
2. Yer osti kommunikatsiyalarini rejalashtirish va ularni yotkizishdagi geodezik ishlar.
3. Yer osti kommunikatsiyalarini s'jomka qilish.
4. Yer osti kommunikatsiyalarini qidirish.

**Tayanch so'zlar:** Yirik masshtabli planlar, maxsuslashtirilgan plan, kadastr plan, qidiruv planlari, ijroyaviy planlar, plan aniqligi, plan batafsilligi, plan zichligi, o'zi oqar quvuro 'tkazgichlar, bosimni quvuro 'tkazgichlar, induktivli qidirish asboblari, generator.

Yer osti kommunikatsiyalarining turlari. Hozirgi zamon sanoat va fuqaro inshootlari katta tarmoqli yer osti kommunikatsiyalari bilan xarakterlanadi. Yer osti kommunikatsiyalarini texnik ro'yhatga olishda, ya'ni joyning kadastrini barpo etishda ularni barcha o'zgarish va qo'shimchalari bilan aniq va to'liq tasvirlangan plani kerak bo'ladi.

Geodezik o'lhashlar nuqtai nazaridan barcha yer osti kommunikatsiyalarini uch turga bo'lish mumkin.

1.O'zioqar quvur o'tkazgichlar-ifloslangan suvlarni tozalash inshootlariga yuboradi.

Ular 600mm va undan katta diametrli quvurlardan quriladi. Bu turdag'i kommunikatsiyalarga drenajlarni ham kiritish mumkin.

O'zioqar quvur o'tkazgichlarni yotqizishda loyihaviy nishabliklarga katta ahamiyat beriladi, nishablikning eng kichik qiymati 200 mm diametrali quvur uchun 0,003-0,001 va 1250mm va katta diametrli quvurlar uchun 0,0005 ni tashkil etishi kerak.


2. Bosimli quvur o'tkazgichlar- metal quvurlardan yasalgan bo'lib, suyuq va gaz mahsulotlari bosim ostida oqiziladi.

3. Kabel tarmoqlari – elektr bilan ishlovchi transportlar va yoritish uchun ishlatiladigan yuqori va past kuchlanishli kabellar hamda telefon va telegraf aloqasi, radioeshittirish, signallashtirish uchun ishlatiladigan tarmoqlarga bo'linadi.

Plan olish usullari. Eng sodda va shu bilan birga eng aniq va ishonchli plan olish usullaridan biri, zovurlarga yotqizilgan yer osti kommunikatsiyalarini ijroiy planini olish hisoblanadi. Planda burilish burchak uchlari, quduqlar va boshqa xarakterli nuqtalar geodezik asos punktlariga yoki inshoot o'qlariga bog'lanadi. Balandlik hisobini aniqlash uchun quvur o'tkazgich nivelerlari bilan qaziladi.

Ijroiy hujjatlar mavjud bo'limgan shahar hududlarida, yer osti kommunikatsiyalar planini tuzish uchun, shurflash usuli qo'llaniladi, bir-biridan ma'lum masofalarda joylashgan chuqur bo'ylama zovurlar qaziladi. Zovurlar joyda quvur o'tkazgichlar va kabellar zarar etkazmagan holda ehtiyyotlik bilan qaziladi.

Induktiv qidirish asboblari. Yer osti kommunikatsiyalarini qidirishda ishlataladigan barcha asboblar bir xil prinsipda tuzilgan va faqat sxemalari va texnik xarakteristikasi bilan farq qiladi. Ular ikkita blokdan tuzilgan bo'ladi: uzatuvchi va qabul qiluvchi (14.1-shakl).



14.1-shakl.

Yer osti kommunikatsiyalarini qidirish usullari. Yer osti kommunikatsiyalari holatini induktiv asboblarda aniqlash bog'langan va bog'lanmagan usullarda bajarilishi mumkin.

Bog'langan usul nisbatan aniqroq hisoblanadi. Bu usulda generator bevosita quvurga ulanadi va uning atrofida elektromagnit maydoni tashkil etiladi.

Generator ta'minlash manbaiga ulanadi va qabul qiluvchi qurilma yordamida, tovush eshitish yo'li bilan yer osti kommunikatsiyalari o'qlarini qidirish boshlanadi.

Agarda generatorni quvur yoki kabel o'tkazgichga ulash imkoniyati bo'lmasa, u holda qidiruv bog'lanmagan usulda amalga oshirilishi mumkin. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, generator kamida ikkita nuqtada erga sim orqali ulanadi, natijada quvur yoki kabel atrofida elektromagnit maydoni hosil bo'ladi, bundan esa o'z navbatida qidirish uchun foydalananiladi.

Bog'lanmagan usulda eshitilish uzoqligi bog'langan usuldagidan 2-4 marta kam bo'ladi. Bu usulning aniqligi kam hisoblanadi, shuning uchun bog'lanmagan usul asosan kommunikatsiyalarning dastlabki holatini aniqlashda qo'llaniladi.

#### Nazorat savollari:

1. Qanday planlarga yirik masshtabli topografik planlar deyiladi?
2. Yirik masshtabli plan turlari?
3. Foydalanishga qarab planlar qanday turlarga bo'linadi?
4. Kadastr planlari nima?
5. Plan aniqligini ta'riflang?
6. Plan batafsilligi nima?
7. Plan to'liqligini ta'riflang?

**M A ‘ R U Z A № 15**  
**YO‘LLAR VA KO‘PRIKLARNI QURISHDAGI GEODEZIK ISHLAR**  
**REJA**

1. Kamerall trassalash. Dalada trassalash.
2. Yo‘l trassalarini tiklash va qayrilmalarni rejalash.
3. Yo‘lning ko‘tarmalarini rejalash.
4. Yo‘llarni ustki qismini rejalash ko‘priklarni rejalash asosini qurish.
5. Ko‘prik ustunlari qurish, prolyotkalarini (ustunlar oralig‘ini) rejalashtirish ishlari.

**Tarmoqlar turlari.** Ko‘prik quriladigan joyda, ko‘prik tayanchlarini rejalash usuli va joy sharoitiga bog‘liq ravishda triangulyasiya, poligonometriya va chiziqli burchak ko‘rinishidagi geodezik tarmoqlar barpo etiladi.

Ko‘prik asos punktlari holatining xatoligi o‘rtacha 10 mm atrofida, punkt koordinatalari xatoligi

$$m_x = m_y = 10 / \sqrt{2} = 7 \text{ mm}$$

bo‘ladi.

Ko‘prik asos punktlari geologik jihatdan mustahkam va rejalash ishlarini bajarish uchun qulay bo‘lgan joylarga mahkamlanadi.

O‘rtacha va kichik ko‘priklarni qurishda ko‘prik o‘qini belgilovchi punktlardan geodezik asos sifatida foydalanish mumkin. Bu punktlar orasidagi masofani o‘lchash nisbiy xatoligi quyidagicha ifodalanadi:


$$\frac{1}{T} = \frac{m_o}{\sqrt{2L'}}$$

bu erda,  $m_o$  - tayanch markazini aniqlash o‘rta kvadratik xatolik;

L - boshlang‘ich punktlar orasidagi masoфа.

Agarda  $m_o = 20 \text{ mm}$  va  $L=200 \text{ m}$  bo‘lsa,  $1/T=20/\sqrt{2}\cdot2000=1/4000$  bo‘ladi.

**Ko‘prik triangulsiyasi.** Ikkilangan geodezik to‘rburchak ko‘prik triangulyasiyasining namunaviy shakli hisoblanadi (18.1 – shakl). Bu erda AV tomon ko‘prikning bo‘ylama o‘qi bilan ustma-ust tushgan bo‘lib, SD va EF tomonlarni rejalashda bazis bo‘lib xizmat qiladi.



15.1 – shakl

Ba’zan noqulay sharoitlarda ko‘prik o‘qi triangulyasiya punktlari bilan qo‘shimcha tuzilmalar yordamida tutashtiriladi (18.1 – shakl).

Daryoda orolchalar mavjud bo‘lganda ko‘prik triangulyasiyasi markaziy tizim ko‘rinishidan iborat bo‘lishi mumkin.

Rejalash ishlari aniqligini oshirish maqsadida geodezik to'rtburchak chiziq shaklga ega bo'lishi, ya'ni enining bo'yiga nisbati  $\beta = \arctg 1/2 = 27^\circ$  bo'lishi kerak. Lekin, bunday o'tkir burchakda uchburchaklarning geometrik bog'lanish xatoligi ortib ketadi va burchak o'lhash aniqligini oshirishga to'g'ri keladi.

Ko'priki triangulyasiyasi loyihasining dastlabki hisobi shakl, azimut va bazis shartlari bo'yicha tenglashtirilgan qator elementlari aniqligini baholash ifodasi yordamida amalga oshiriladi.

SHartli tenglamalar tuzish uchun kerak bo'lgan burchak, tomon va koordinata qiymatlari tarmoq loyihasidan olinadi. Normal tenglamalar tizimini echish orqali tarmoq elementining teskari vazni  $1/R_F$  hisoblanadi, hamda elementni aniqlash o'rta kvadratik xatolik  $m_F$  ga ega bo'lgan holda, o'lchanagan burchak vazn birligi o'rta kvadratik xatoligini topish mumkin:

$$\mu = m_F / \sqrt{1/P_F}$$

Masalan,  $1/R_F = 9,6$  lagorifm oltinchi belgisining birligi va  $m_F = 10\text{mm}$  deb qabul qilsak,

$$\mu = 4,3 / \sqrt{9,6} = 1,4'' \text{ bo'ladi.}$$

Odatda ko'priki triangulyasiyasi punktlari erdan kuzatilganda ular orasidagi o'zaro ko'rinish ta'minlanadi. Punktlarga trigonometrik belgi sifatida 4 – 6 m balandlikdagi piramidalardan quriladi.


Tarmoqda 2 – 3 mm dan katta bo'limgan o'rta kvadratik xatolikda ikkita bazis tomon o'lchanadi.

Masofa o'lhashda svetodalnomyer qo'llanilganda bazis sifatida qarama-qarshi qirg'oqlarda joylashgan punktlar orasidagi uzun tomon tanlanadi. Invar lenta uchun qisqaroq, qirg'oqdagi tomonlar tanlanadi.

Burchak o'lhashlar T1 yoki T2 teodolitlari yordamida 1 - 2" aniqlikda o'lchanadi. Burchak o'lhashda yonlama refraksiya ta'siri kuchli bo'ladi, shuning uchun vizir chizig'i suv va erdan 2 – 3 m ko'tariladi, o'lhashlar ertalab va kechqurun olib boriladi.

Ko'priki triangulyasiyasi murakkab usulda tenglashtiriladi va mustaqil tarmoq sifatida hisoblanadi. Koordinata boshi sifatida odatda boshlang'ich punktlardan bittasi, absissa o'qi sifatida ko'priki o'qi qabul qilinadi.

**CHiziqli – burchak tarmoqlar.** Geodezik ishlab chiqarishda aniq svetodalnomerlar tadbiq etilishi munosabati bilan ko'priklarni rejalahda maxsus chiziqli – burchak tarmoqlari tavsiya etiladi (18.2 – shakl).



15.2 – shakl

Bunday tarmoqlarning namunaviy shakli keltirilgan bo'lib, to'rtta tomon  $S_1, S_2, S_3, S_4$  va to'rtta burchak  $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$  o'lchanadi. Qirg'oqdagi tomonlar va burchaklar o'lchanadi. 1 – 2 tomon ko'priki o'qi bilan ustma – ust tutashtiriladi, 3 – 4 va 5 – 6 tomonlar rejalah uchun bazis tomon hisoblanadi.

Bunday tarmoqlar qator afzallikkлага ega. Qirg'oq bo'ylab yo'nalishlar yo'qligi, bir xil sharoitda burchak o'lhash imkonini beradi, bu esa yonlama refraksiya ta'sirini kamaytiradi. Punktlar orasidagi o'zaro ko'rinish, baland belgilarni qurmasdan ta'minlanishi mumkin.

Nisbatan kichik hajmdagi burchak va masofa o'lchashlarda tarmoq etarli aniqlikni ta'minlaydi.

Bazaviy uchburchakda uchta – shakl, tomon va proeksiya shartlari mavjud. SHakl sharti kesishuvchi diagonallar orasidagi burchaklar tengligidan iborat:

$$180^\circ - (\beta_1 + \beta_2) = 180^\circ - (\beta_3 + \beta_4),$$

ya'ni burchaklar yig'indilari tengligidan:

$$\beta_1 + \beta_2 = \beta_3 + \beta_4$$

yoki

$$\vartheta_{\beta_1} + \vartheta_{\beta_2} - \vartheta_{\beta_3} - \vartheta_{\beta_4} + \omega_\beta = 0,$$

bu erda

$$\varpi_\beta = \beta_1 + \beta_2 - \beta_3 + \beta_4 .$$

Tomonlar shartining mohiyati quyidagidan iborat: ikkita qo'shni uchburchak uchun umumiy bo'lgan, o'lchanmaydigan tomon bilan shu uchburchakning o'lchanan elementlari orqali hisoblangan qiymat bir xil bo'lishi kerak.

Masalan 2 – 4 tomon uchun 2, 4, 3 va 2, 4, 1 uchburchaklardan

$$S_1^2 + S_2^2 - 2S_1S_2 \cos \beta_1 = S_3^2 + S_4^2 - 2S_3S_4 \cos \beta_4$$

proeksiyalar shartining mohiyati quyidagicha, ya'ni tayanch uchburchak tomonlarining ko'prik o'qiga proeksiyalari yig'indisi no'lga teng:

$$S_1(\cos \beta_1 - \cos \beta_4) - S_3 \cos \beta_3 + S_4 - S_2 \cos \beta_4 = 0 .$$

SHartli tenglamalar quyidagi shartga binoan echiladi:

$$[P_\beta \vartheta_\beta^2 + P_S \vartheta_S^2] = \min ,$$

bu erda  $R_\beta$  va  $R_S$  – o'lchanan burchak va tomonlar vazni,  $R_\beta = 1$  va  $R_S = m_\beta^2 / m_S^2$ .

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, tayanch uchburchak tarmoqlarida tomonlarning tenglashtirilgan direksion burchaklari xatoligi, o'lchanan burchaklar xatoligiga teng:

$$m_\alpha = m_\beta$$

Ko'prik uzunligi ortishi bilan koordinatalar xatoligi ortib boradi. Absissa va ordinata xatoliklarini quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$\left. \begin{array}{l} m_{x_4} = m_S K_{x_4} \\ m_{y_4} = m_S K_{y_4} \end{array} \right\}$$

bu erda  $K_{x4}$ ,  $K_{y4}$  koeffitsientlar quyidagi

$$K = S_{(km)} \frac{m_\beta}{m_{Scc}} \quad \text{ifoda yordamida hisoblanadi.}$$

Ularning qiymatlari 5 – jadvalda keltirilgan

5 – jadvaldan  $q = 0,5$  va  $K = 1,5$  argumentlar bo'yicha  $K_x = 0,75$  va  $K_y = 0,59$  topiladi,

$$m_{x_4} = 1,0 \cdot 0,75 = 0,75M; m_{y_4} = 1,0 \cdot 0,59 = 0,59M;$$


4 – punkt holatining umumiy xatoligi

$$m_4 = \sqrt{m_{x_4}^2 + m_{y_4}^2} = m_s \sqrt{K_x^2 + K_y^2} .$$

1- jadval

$q$	$K=0,2$		$K=1$		$K=3$		$K=5$	
0,1	0,63	0,08	0,84	0,35	0,86	1,03	0,87	1,71
0,5	0,47	0,24	0,68	0,43	0,45	1,07	1,11	1,68
1,0	0,41	0,40	0,65	0,56	1,22	1,12	1,64	1,59

**Polygonometriya.** Nisbatan quruq joylarda ko‘priq qurilishida rejalash tarmog‘i svetodalnomerli poligonometriya yo‘lini o‘tkazish bilan barpo etilishi mumkin (15.3 – shakl). Bunday yo‘llarning 3 – 5 va 6 – 8 bo‘ylama tomonlari o‘tish o‘qi 1 – 2 ga parallel qilib loyihalanadi va undan 100 m atrofidagi masofada joylashtiriladi.



15.3 – shakl

Bunday yo‘llarning tomonlari 2 – 3 mm dan katta bo‘limgan o‘rtalik kvadratik xatolikda o‘lchanadi, burchaklari esa 2 – 3" aniqlikda bo‘ladi. Koordinatalar hisoblangandan keyin, punktlar ordinata o‘qi bo‘yicha reduksiyanadi.

Katta ko‘priklar qurilishida geodezik rejalash asosi bir necha usullarni birga qo‘shish orqali tuziladi.

## M A ‘ R U Z A № 16 GIDROTEXNIK INSHOOTLARNI QURISHDAGI GEODEZIK ISHLAR

### REJA

1. Gidrotexnik inshootlar va ularni qurishdagi geodezik ishlarning tarkibi.
2. Suv omborlarining loyihasini joyga ko‘chirish.
3. Gidrotexnik inshootlarni qurishda geodezik asos barpo etish.
4. Gidrouzel maydonida rejalash ishlari.
5. Gidrouzelda montaj ishlarni geodezik ta’minoti.
6. Gidromeliorativ qurilishdagi geodezik ishlar.

**Tayanch so‘zlar:** *Gidrotexnikinshoot,daryo nishabligi,daryoning bo‘ylama profili,suv sadxini nivelerlash,suv omborlari,o‘zaklarni planga olish, Gidrouzellar, gidroelektrostansiya, murakkab inshootlar, platina, derivatsion, GES, planli tarmoq, balandlik tarmoq,gidroinshootlar*

Turli xil gidrotexnik inshootlarning loyihasini tuzishda daryoning bo‘ylama profili asosiy hujjat xisoblanadi.

Bo‘ylama profil tuzish uchun daryoning katta qismidagi xarakterli nuqtalarning suv sathlari aniqlanadi.

Bu sath doimo o‘zgarib turadi, nivelerlashni esa daryoning barcha qismlarida bir vaqtning o‘zida amalga oshirish mumkin emas. SHuning uchun alohida qismlardagi turli vaqlarda bajarilgan balandlik o‘chovlarini bir vaqtga keltirish masalasi vujudga keladi.

Bo‘ylama profil tuzish uchun daryoning bitta qirg‘og‘i bo‘ylab yuqori guruh aniqlikdagi nivelerlash yo‘li o‘tkaziladi. Bu yo‘l punktlaridan daryo o‘zani yaqinida joylashgan ishchi reperlarga balandliklaruzatiladi. Ishchi reperlardan daryoning suv sathi yuzasini nivelerlashda foydalaniadi.

Nishablik qiymati 0,001 dan katta bo‘lgan tog‘li joylardagi daryolar uchun trigonometrik nivelerlashni qo‘llash mumkin.

Daryo suv sathini nivelerlash. Daryoning suv uning xarakterli nuqtalarida taxminan 1 – 3 km oraliqda belgilab boriladi.

Suv sathini aniqlash uchun qoziqkoqib belgilangan bunday xarakterli nuqtalarni bir kunlik bog‘lovchi nuqtalar deb nomlanadi.

Daryo 30 – 50 km uzunlikdagi qismlarga bo‘linib, alohida bajaruvchilarga topshiriladi.


Qismlarning uzunligi asosan suv sathining o‘zgarishiga bog‘liq.

Qoziqlar motorli qayiqcha yordamida suv sathiga baravar qilib qoqladi. Nivelirlash 2 – 3 kun davom etishini e’tiborga olib, shu vaqt mobaynida qoziqlar balandligi o‘zgarmasligiga harakat qilinadi.

Ishchi qoziqlarni repyer bilan bog‘lash sxemasi 28 – rasmida ko‘rsatilgan

Doimiy temir – beton reperlar, imkon boricha daryoning xarakterli nuqtalariga yaqin bo‘lgan cho‘kmaydigan joylarga 5 – 7 km oraliqda o‘rnataladi. Vaqtincha o‘rnatilgan reperlar 2 – 3 km oraliqda mahkamlanadi.

Ishchi nivelerlash yo‘li osma shaklda to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda o‘tkaziladi. Ular aniqligini magistral yo‘l aniqligidan ikki baravar kichik bo‘ladi.



Daryo plotina barpo etishda suv sathi loyihaviy sath otmetkasigacha ko‘tariladi. Plotinadan suv omborining oxirgi qismigacha uzunligi quyidagi keltirilgan ifoda yordamida hisoblanishi mumkin

$$L = K \cdot H / j$$

bu erda  $L$  – suv bosimi balandligi,  $j$  – o‘rtacha bo‘ylama nishablik,  $K$  – koefitsient, plotina uchun  $1,5 - 2,2$ .

Tekislikdagi daryolar uchun  $H = 28m$ ,  $K=1,5$  va  $j = 0,000\ 15$  bo‘lsa,  $L= 280\ km$  bo‘ladi.

Plotina bilan to‘silgan daryo suvi notejis harakatga ega bo‘ladi va plotinaga yaqinlashgan sayin chuqurigi ortib boradi, oqim tezligi esa kamayib boradi.

Suv omborlarini loyihalashda quyidagi asosiy vazifalar echiladi:

- 1) suv ombori chegarasini aniqlash;
- 2) suv omboridagi suv hamisi va ko‘milish maydonini aniqlash;
- 3) suv bosish mumkin bo‘lgan aholi yashash punktlari, yo‘llar elektr uzatgich tarmoqlarini aniqlash zarar ko‘rish harajatlarini hasoblash yangi aholi yashash punktlari loyihasini tuzish;

4)shahar va turli aholi yashash punktlarini suv bosishdan muhfaza etuvchi injenerlik inshootlari loyihasini tuzish.

Suv omborlarini loyihalashda turli masshtabdagi topografik kartalar ishlatiladi. Boshlang'ich hisoblar 1:100000 – 1:50000 masshtabli kartalarda bajarilishi mumkin. Yirik suv omborlari uchun texnikaviy loyihalar tuzishda 1:25000 masshtabli karta ishlatiladi.

Suv omborlarini planga olish qo'shma yoki stereofotogrammetrik usulda amalga oshiriladi. Planga asoslov sifatida triangulyasiya yoki poligonometriya tarmog'i xizmat qiladi. Balandlik asoslovi III va IV guruh nivelirlash ko'rinishida barpo etiladi. Planga va balandlik tarmoqlarini loyihalashda ular faqat plan olish asoslovi emas, balki suv ombori loyihasini joyga ko'chirish uchun ham xizmat qilishi ko'zda joylarga mahkamlanishiga harakat qilinadi.


Gidroelektrostansiyalar (GES) gidrouzelning eng murakkab inshooti hisoblanadi. Uning joylashishiga bog'liq holda GES lar ikki turga plotina qoshidagi va derivatsion GES larga bo'linadi.

Plotina qoshidagi GES lar ikki sxemadan iborat:

- 1) GES binosi plotinaning bevosita davomi hisoblanadi va bosim hosil qilishda qatnashadi;
- 2) GES binosi plotina orqasida joylashadi va bosim hosil qilishda qatnashmaydi. Bunday turdag'i GES lar uchun suv quvuro'tkazgich orqali beriladi.

Birinchi sxemadagi gidrouzellalar tekis daryolarda qo'llaniladi.

Derivatsion sxemada bosim derivatsion inshootlar yordamida barpo etiladi. Daryoning biror qirg'og'ida ma'lum nishablikda kanal, quvuro'tkazgich yoki tunel quriladi va u yordamida GES binosiga suv yuboriladi (33-rasm).



Tekis relefli joylarda derivatsion inshootlar sifatida lotok yoki kanal ko'rinishidagi ochiq suv o'tkazgichlar ishlatiladi.

GES binosini, suv uzatuvchi kanallar, nasos stansiyalari va gidrouzelning boshqa inshootlarning ishchi chizmalarini tuzish uchun 1:500 – 1:1000 masshtabda plan olish ishlari amalga oshiriladi.

Gidrouzel maydonidagi geodezik ishlari loyihasi qurilayotgan gidrouzel maydoni orqali o'tadigan suv hajmini hisobga olgan holda tuziladi.

Gidrouzelning barcha inshootlari, loyihani joyga ko'chirishda qat'iy rivoja qilinadigan, o'zaro hisoblangan geometrik bog'lanish bilan birlashtirilgan. Inshoot, koordinatalar va azimut orqali berilgan, gidrouzelning bosh rejalash o'qi atrofida mujassamlashgan bo'ladi.

Gidrouzelning bosh o'qi planli asoslov punktlari orqali joyga ko'chiriladi. Gidrouzelning asosiy va yordamchi o'qlarining holatini aniqlash uchun yuqori aniqlikdagi rejalash asoslovi barpo etiladi.

Gidrouzel qurilish o'ziga xos bo'lib, geodezik ishlari bajarishda buni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Plotina asosi va truboagregatlar poydevori murakkab hidrogeologik sharoitga ega bo'lgan chuqur kotlovanlarda quriladi va rejalash ishlarni olib boirsh uchun u erda o'q tizimini barpo etish hamda mahkamlash talab etiladi. O'q belgilari doimiy ravishda kuzatib boriladi.

Gidrouzel bir necha navbatda quriladi va har bittasi o'zining alohida tarmog'ini barpo etishni talab etadi. Qurilgan inshoot plan va balandlik bo'yicha loyihaga qat'iy mos kelishi uchun bu tarmoqlar bitta koordinata va balandlik tizimigabog'langan bo'lishi kerak.

Gidrouzel inshootning ba'zi qismlari ishning boshlang'ich bosqichidanoq yuqori geodezik o'lchashlarni talab etadi.

SHunday qilib, gidrouzel qurish uchun inshoot bosh plani bilan bog'langan, punktlari qurilish boshlanishidan to tugagunga qadar saqlanib qoladigan, planli va balandlik geodezik asoslovi barpo etish kerak bo'ladi.


Planli tarmoqlar. Gidrouzel quriladigan maydonda qurilish – montaj ishlarini ta'minlash uchun asosiy rejalahs tarmog'i barpo etiladi. Bu tarmoqning birorta tomoni gidrouzelning bosh o'qi bilan ustma – ust tushishi kerak.

Rejalash tarmog'i triangulyasiya, poligonmetriya va chiziqli – burchak tarmog'i ko'rinishida tuziladi. Yirik gidrouzellarda bu tarmoq uzunligi 0,5 – 1,5 mm ni tashkil etadi, burchak o'lchash o'rta kvadratik xatoligi 1,0 – 1,5", nisbiy o'rta kvadratik xatolik 1/200000 – 1/50000 atrofidi bo'lishi talab etiladi. Tarmoq punktlarining bir – biriga nisbatan holati hatoligi o'rtacha 5 – 10 mm ni tashkil etadi.

Tarmoq alohida tuziladi va qurilish koordinatalar tizimida hisoblanadi, odatda abssissa o'qiga plotinaning rejalahs o'qi qabul qilinadi.

Rejalash tarmog'i punktlari odatda 1,2 m balandlikdagi belgilar bilan mahkamlanadi.

Loyiha aniqligini baholash punktlar koordinatalari va burchaklaridan (grafik usulda planda o'lchanadi) foydalanib parametrik yoki korrelat usulida amalga oshiriladi.



#### Nazorat savollari:

1. Gidrouzel nima? U qanady rejalanadi?
2. Gidrouzel qurishda giodezik ishini tarkibini ayting?
3. Geodezik qurilishini Qanday geodezik ta'minlaydi?
4. Yirik gidrouzel kuriishida balandlik asoslari kanday maksadda tuziladi?
5. Daryoni buylama profili qanday tuziladi?
6. Daryoni nishabligi kanday topiladi?
7. Suv omborida kanday geodezik ish bajariladi?
8. O'zan kanday planga tushiriladi?

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avchiev SH.K, Toshpulatov S.A, Amaliy geodeziya:Toshkent.T.:Toshkent kitob-jurnal fabrikasi.2002,88 bet. I,II qism
2. Klyushin E.B.i dr.Inenernaya geodeziya Moskva:M:, Vysshaya shkola.2000 .464str.
3. Levchuk G.P., Novak V.E,Lebedov N.N.Prikladnaya geodeziya:M.,Nedra,1983.386str.

**M A ‘ R U Z A № 17**  
**TONNELLAR QURILISHIDA GEODEZIK ISHLAR**  
**REJA**

1. Tonnellar qurilishi to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar va ularni barpo etish usullari.
2. Tonnel trassasining asosiy elementlari. Tonnel trassasini anometrik hisoblash.
3. Tonnel trassasini geodezik asosini qurish sxemasi.
4. Yer ostki qurish ishlari bajarishda geodezik orientirlash va koordinatani uzatish ishlari.
5. Yer ostiga otmetka uzatish. Yer ostki ishlarda geodezik asos.
6. Tonnelni shit bilan kavlashdagi geodezik ishlari.
7. Yer ostida qurilish ishlari bajarishdagi geodezik rejalah ishlari.

**Tayanch so‘zlar va iboralar:**

Gidrologik ko‘zatuv, gidrometrik o‘lchashlar, tavsilot plani, tayanch markazi, ko‘prik triogo‘lagiya, ko‘prik trilogeragiya, ko‘prik poligonometriyasi, tonnellar turi, kundalang , buylama hatolik.

**1. Ko‘prik utish joylarini qidiruvdagi geodezik ishlar.**

Ko‘prik utish joylarini loyhalarini ishlab chikishda joy haqidagi ma’lumotlar asosiy hisoblanib, ular muhandislik - geodezik kdairuv materiallarini tashkil qiladi. O‘z vaqtida qidiruv ishlari tarkibi, masshtabi, aniqligi va tasvir tushirishni hajmi loyha boskichlariga bog‘lik bo‘ladi.

SHunga karamay, ko‘prik utish joylarini loyhalashdagi hal qilinadigan geodezik masalalar majmuasiga ko‘ra barcha loyha boskichlarida qidiruv quydagi asosiy ish turlari bajariladi:

- Muhandislik- geodezik ishlar (ko‘prik utishjoy-larini trassalash, tasvir olish planlibalandlik asosini yaratish, topografik tasvir olish, buylama kesimlarni tasvirga olish va h.k.).

- Gidrologik ko‘zatuv (suv okimini rejimi hakidigi ma’lumotlarni tuplash, dare vodiysini morfometrik ko‘zatuv).

- Gidrometrik ishlar (dare o‘zanini tasvirga tushirish, okim tezligini va sarfini o‘lchash, suv yuzasini kiyaligini o‘lchash va h.k.).

- Muhandislik- geologik ishlar (gelogo-litologik qirqimlar tuzish, tuproq-gruntlarni gidrogeologik o‘zatuv, yo‘l qurilish materiallari zahiralarini qidiruv va h.k.).

- Mahsus alohida ishlar (ko‘prik utish joylarini bosk.a muhandislik inshootlar bilan o‘zarobog‘likligi, mo‘zlarni va o‘rmon darahtlarini, kemalarini utkazish holati bo‘yicha ko‘zatuvar vah.k.)

YUqorida k.ayd qilingan qidiruvishlarining turlari geodezik usullardan foydalani, mahsus gruhlar va hozirgi zomon geodezik askrkdarida olib boriladi.

Ko‘prik utish joylarini qidiruv uch: tayuorlov, dala va kameral boskichlarda amalga oshiriladi.

Tayuorlov davrida dalaga chikmasdan avval qidiruv utkaziladigan joyning mavjud topografo-geodezik, hidrologik, geologik, geomorfologik va iktisodiy materiallari o‘rganib chiqiladi. Kortografik va aerofototasvir materiallari tugshanadi. SHu bilan birga dastlabki trassalash utkazilib, dala qidiruv ishoarini hajmi belgilanib, qidiruv guruhini tarkibi tasdiklanib, kerakli asbobanjomlar tayuoranadi.

Dala davrida muhandislik-geodezik ishlar asosiy maksadi topografik tasvir olish bo‘lib, bu ishlar tafsilotli va topografik plan hamda joyning sonli modelini hosil qilishda iborat bo‘ladi. Ushbu material ko‘prik utish joyini tanlashda hamda kushimcha inshootlarni (ko‘prik,suv qaytarg‘ich inshootlari va h.k.) loyhalashda asos hisoblanadi. Tavsilot planini 1:10000 mashtabdan mayda bo‘lmagan, dare suv sathining eng yuqori qirgogida ikki tomoniga 200 m masofada kushib to‘ziladi. Dare vodiysini tasvirga olinautgan kismi tressa variantidan yuqoriga va pastga karab dare kengligini 1,5 barobaridan ko‘p etib belgilanadi. Batafsil topografik tasvir olish yirik mashtabda topografik plan olish uchun (katta khprik htish joylari uchun 1:2000 va boshkalar uchun 1:1000 mashtabida), yakuniy ko‘prik utish varianti bo‘yicha amalga oshiriladi.

Barcha, tavsiyoti va topografik tasvir olish uchun tasvir olish asoslari borki qilinib, burchaklar to‘lik priuomda, asoslarining tomonlar o‘zunliklari yer o‘lhash tasmalari o‘lchanadi. Tasvir olish nuqtalarini balandliklari.

Gemetrik nivnrlash usuli bilan aniqdanadi. Barcha o‘lhash ishlarida quyidagi holatlar qabul qilinadi: barcha hinchashlarda  $-1,5 \sqrt{n}$ . O‘zunliklar o‘lhashlarda -1:2000:

Nivelirlash ishlarida - 50  $\sqrt{lm}$

Planlarni tasvirga tushirishdan tashkari ko‘prik utish joilaridagi qidiruv geodezik ishlar tarkibi quyidagi:

- trassa variantini rejalash (chiziq utkazish, trassani belgilash, piketlash, trassa uqi bo‘yicha nivlirlash va h.k.)
- gidrometrik ko‘zatuvalar olib borish maksadida mordastur va gidrostvorlarni rejalash:
- dare buylama kesimini tasvirga olish:
- muhandislik geologik ishlar uchun geodezik asos barpo qilish:
- joyidagi muhandislik ishnoatlarini tekshiruvdagi geodezik ishlar qilish :
- kesib utuvchi komunikagiyalarini tasvirga olish ishlaridan iborat bo‘ladi.

## 2. Ko‘prik va yo‘l utkazuvchi inshootlar rejalash turlari va rejalash ishlari.

Rejalash turlari ko‘prik uoki yo‘l utkazuvchi kuvurlarni joyiga kuchirishni taminlash vazifasini bajaradi. Rejalash turlarining shohobchalaridan tayanch markazlari loyihadan joyiga kuchirilib, nazorat qilinadi sungra markazdan tayanch uqi, tayanch uqida tayanchdagi konsturkgiyalar rejalanadi.

Geodezik rejalash turlarini loyihalashda quyidagilar etiborga olinadi:

- tayanch markazlarini rejalash va nazoratini qo‘layligini:
- thr shohobchalarini qurilish dardida va undan sung saklanib to‘rashligi:
- rejalash turlarini bir necha boskichda barpo qilishdagi qurilish tehnologiyasi va ketma-ketligi :
- tur shohobchalarini bosh reja plani bilan bog‘lash kerakligi va uni foydalanish davrida saklanib kolishligi va h.k.

Davlat geodezik turlariga Karaganda ko‘priklarning rejalash turlarini tomonlari nisbatan kalta bo‘lib, 200-500 m dan 1-2 km o‘zunlikni tashkil qiladi. Biroq , o‘lhash aniqligiga quyilgan talablar yuqrri burchak o‘lhashlar hatoligi 1,5-2 teng bo‘ladi. Ko‘prik va yo‘l utkazuvchi inshootlarning rejalash turlari triangulyariya, trilateragiya, poligonometriya va joyning holatiga ko‘ra mahsus usullar bilan barpo kelinadi.

Ko‘prik triango‘lyagiyasi. Bunda ,ko‘prik uq.ini mustahkamlovchi uq. va rejalash bazisining uahobchalari rejalash turini tashkil etadi. Ko‘prik triango‘lyagiyasining shakli ikki bazis o‘lchanigan ( $V_1$ ) va ( $V_2$ ) ikki bir hil turtburchakdan iborat bo‘ladi.(25.2<sup>a</sup>-rasm). SHu bilan birga rejalash turi, ko‘prik uqi AV va tayanchlarni markazini rejashtirish uchun SD va eG bazislarini o‘z ichiga oladi. Ko‘prik triango‘lyagiyasida ikki masalani hal qilish ko‘zda tutiladi.

- tayanchlarni markazini va qirrokdagi usullarini rejalash:

- A va V shahobchalarida utuvchi ko‘prik utish masofasini aniq, aniqlash. KyJipjiKjrpaHiyimFiiHjCH. Bu usul burchak o‘lhashlar kiyin hollarda qo‘lanilib shakli huiddi yuk.oridagi kurnishg‘a ega bo‘lib, bunda turtburchaklarni barcha tomonlarini o‘zunliklari o‘lchanadi. (25.2<sup>b</sup>-rasm).

Mazkur usulning asosiy shakli ikki asosli uchburchakdan iborat bo‘lib, uning barcha  $A_1, A_2, A_3, A_4, A_5, A_6, A_7$  va  $A_8$  burchaklari va  $S_1, S_2, S_3, S_4, S_5, S_6$  va  $S_7$  tomonlari o‘lchanadi (25.2<sup>v</sup>-rasm).

Bu turlar ko‘prik utish joylarini rejalashda burchaklar va tomonlar o‘lchovi asosida maqo‘l sharoit yaratiladi.

Ko‘priklarni tayanch markazlarini rejalash shartli koordinatalar tizimida bajariladi, bunda ko‘prik uqi abegissa va ordinata uqi abegissaga normal buyagan, hamda eng kichik paketani miqdorlari bo‘lgan to‘rtta koordinataga boshlang‘ich nuqd-asi deb qabul qilinadi.

Rejalash turlarining turlariga, asboblarni mavjudligiga va ho ga ko'ra, quyidagi: burchaklar tutashtirish usuli; kugbiy koordinatalar usuli; uq. bo'yicha o'lhash usuli; tug'ri burchakli koordinatalar usullaridan birini kHllash mumkin.

Tushunish oddiy bo'lishi uchun rejalah asoslari ko'prik uqiga parallel holatlarini kurib chikamiz.

Ma'lumki, rejalah turlarini koordinatalar bilamiz. Tayanch markazini koordinatalari loyshadan olinadi. Ko'priklarni tayanch markazlarini joyiga kuchirish uchun bir qator hisoblab bajariladi.

Tug'ri burchaklar tutashtirish usuli 25.3<sup>a</sup>- rasmga ko'ra, 5-6 rejalah ba'zisi uchun hisobni bajaramiz. Quyidagi uqlarni parallelilik sharti bo'yicha  $Y_1 Y_5 Y_6$ , unda

$$\beta_{05} = \operatorname{arctg} \frac{Y_1}{X_6 - X_0} \quad \beta_{06} = \operatorname{arctg} \frac{Y_1}{X_0 - X_5}$$

huddi shunday Hisobni h;isobiy asos 3-4 uchun bajariladi va ayni Holda tayanch markazini rejalahsi nazorat qilinadi. Rejalash teodolit uordamida amalga oshiriladi

Qutbiy.koordinatalar usuli. Rejalash asoslarini kugifik o'qiga paralleliga shartiga asosan (25.3<sup>b</sup>-rasm). K,uyidagi Hisoblar bajariladi.

Rejalash svetodelnometr va teodolit uoki elektron teheometrlarda olib boriladi. Uq bo'yicha tug'ri o'lhash usuli. Bunda 1 shahobchadan tayanchni markazigacha masofa Hisoblanadi. (25.Z<sup>v</sup>-rasm). O'lhash svetodalknamerda bajariladi.

$$H=H_0$$

#### Tug'ri burchakli koordinatalar usuli.

Mazkur usulda  $H_1$  va  $H_2$  (25.3<sup>2</sup>-rasm) hisoblanadi. O'lhashlar svetodalknomerda bajariladi.

$$H_1=(H_0-H_5); U_1; \quad (25.8) \quad H_2=(H_0-H_3); U_2; \quad )$$

### 3. Tonnellarni qurishdagi geodezik ishlari.

Tonnellar yer yuzasidan ma'lum chuqurlikda joylashg'an Nouob inshoot hisoblanib, qirib-chikish joylari peshtakiga ega bo'lib barcha qurilish ishlari ana shu joylarda boshlanadi.

Tonnellar vazifalari bo'yicha quyidagi turlarga ajra-tiladi;

- yo'l transporti tonnellari;
- gidrotehnik tonnellar;
- komunal tonnellar;
- mahsus tonnellar;

Tonellar qurilishidagi asosiy geodezik ishlarning asosiy maksadi yer ostida karama-karshi kelauotgan tonnel uqlarini minimal hatolik bilan tuq.nashtirishg'a erishish; tonnel o'zunligini aniq, masofani aniqlashda oralik. kutarilmalar va shaht holatlarini aniqlashlardan iboratdir. Tonnellar qurilishida huddi ko'priklar va yo'l utkazuvchi inshootlarini qurilishdagi kabi rejalah turlari barpo etiladi.

Amaliuotda tonellar qurilishida qator uchburchaklardan iborat bo'lgan tonell triango'lyagiyasi keng tarkalgan

Tonnellarni loyihalashda quyidagilarga alohida ahamiyat beriladi;

Uchburchchakning Aa tomonidan Vv tomoniga dirikgion burchakni aniq; o'zatish;  $\beta$  nuqtani harakatini aniqdashda kundalang va buylama hatoliklarini hisobga olish va h..o.

Bunda direktron burchak hatoligi va nuqtaning kundalang hatoligi tonnel uqlarini bir-biriga tuqnashishdagi hatolikka ta'sir etsa, buylama hatolik tonnelning o'zilishi aniqlashda ta'sir k.iladi.

Rejalashdagi keyingi asosiy masalalardan biri tonnellni uq; yo'nalishini yer ostiga o'zatish uisoblanadi.

**Tonnell** ichkarisida qurilish ishlarni olib borish uchun tonnel yer usti trango'lyagiya bilan bog'langan yer osti trigonometriya turlar tizimi barpo qilinadi. Yer osti rejalah turi tokning u"k;ining chuqnashishdagi h.atolikni kamaytirishi ta'minlaydi. Bu h.atolik mahsus kursatmalarda  $>=50$  mm deb qabul qilingan.

TOGLI joylarda avtomobil yo'llari uchun quriladigan tonnellarda bu hatolik shunday qabul qilinadiki, bunda qurilish

ishlariga, avtomobilk harakatiga ziuon etkazmaslik kerak bo'ladi. Buning uchun, tuqnashish oddi masofasida ikkita karama-karshi katta radiusli egrilar ( $R=3000\text{m}$ -I darajali yo'l uchun va  $R=2000\text{m}$ -II-IV darajali yo'llar uchun) loyihalanib tonnellar uqdari birlashtiriladi.

SHunga ko'ra, chekli kundalang hatolik  $1H/2=70$  m tonnel uchastkasi uchun quyidagi miqdorga ega bo'ladi;

I- darajali yo'l uchun -  $\Delta = 0,40\text{m}$  II-IV- darajali yo'llar uchun- $\Delta = 0,60\text{m}$ . Tonnellar qurilishsa lazerli tehnikalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

### Nazorat savollari

1. Ko'pri utish joylardagi geodezik qidiruv ishlarining tarkibi nimalarga bog'lik; bo'ladi?
2. Qidiruv ishlarida bajariladigan ish turlarining bauonini keltiring.
3. Geodezik qidiruvlar boskichlarida bajariladigan ishlar tarkibini so'zlab bering.
4. Tafsilot plani va topografik planlar qaysi mashtabda va ularni tushirishdagi o'lchash hatoliklari qanday bo'ladi?
5. Geodezik rejalah turlarini loyihalashda nimalarga e'tibor beriladi?
6. Ko'priklar rejalah turlarini turi va ularni barpo k. ilish usullarini tushuntiring.
7. Ko'priklarni tayanch markazlarini rejalah usullarini su"zlang.
8. Tonnel tringulyatsiyasi haqida nimalarni bilasiz va ularni vazifalari nimalardan iborat?

## M A ' R U Z A № 18

### ELEKTR UZATGICHLARNI, ALOQA LINIYALARINI VA MAGISTRAL

### QUVURLARINI QURISHDAGI GEODEZIK TA'MINOT. TARIXIY VA ARXITEKTURA

### OBIDALARI REKONSTRUKSIYASIDAGI GEODEZIK ISHLAR

#### REJA

1. Elektr uzatgichlar va aloqa liniyalarini havodan tortish.
2. Magistral quvurlar.
3. Obidalarning deformatsiyasini aniqlash usullari.
4. Tarixiy va arxitektura obidalarini rekonstruksiyalashda geodezik asos yaratish.
5. Arxitekturaviy obida elementlarining o'lchamlarini aniqlashning geodezik usullari.

**Trassa tanlashning texnikaviy shartlari.** Elektr uzatkich tarmoqlari yer ostidan yoki ustidan o'tuvchi bo'lishi mumkin. Yer osti tarmoqlari qimmatbaho hisoblanib, aholi yashash punktlarida qo'llaniladi. YUqori kuchlanishli elektr tokini uzoq masofalarga uzatishda yer ustidan o'tuvchi tarmoqlardan foydalaniladi. Tayanchlar, sim, izolyatorlar yer ustidan o'tuvchi tarmoqlarning asosiy elementlari hisoblanadi. Tayanchlar ankerli va oraliq turlarga bo'linadi. Sim tortilishidagi barcha kuchni o'ziga oluvchi tayanch, ankerli hisoblanadi. Ular orasiga, simni faqat ko'tarib turish uchun oraliq tayanchlar o'rnatiladi.

Ikkita tayanch orasidagi masofa, esa 5-7 kmga teng qilib qabul qilinadi.

110 – 150 kVt kuchlanishli tarmoqlar uchun 200 – 300 m;

220 – 500 kVt kuchlanishli tarmoqlar uchun 300 – 400 m;

750 kVt kuchlanishda 340 – 450 m.

Ankerli tayanch orasidagi masofa kuchlanishga bog'liq ravishda quyidagicha belgilanadi:

Elektr uzatgich tarmoqlarini qidiruv ishlari bosqichida, uning eng pastki nuqtasi bilan yer yuzasi yoki inshootgacha bo'lgan oraliq masofaga ahamiyat beriladi. 220 – 500 kVt kuchlanishli tarmoqlar uchun bu masofaning yo'l qo'yarli qiymati quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) aholi yashash joylarida 7 – 8 m;

b) borish qiyin bo‘lgan joylarda 6 – 7 m. 750 kVt bo‘lgan tarmoqlar uchun 12 – 10 m.

O‘zaro parallel joylashgan yuqori kuchlanishli tarmoqlar orasidagi masofa, shu tarmoqlar tayanchi balandligidan kichik bo‘lmasligi kerak. 500 – 750 kVt kuchlanishli tarmoqlar uchun bu masofa 50 – 100 m dan kichik bo‘lmasligi talab etiladi.

YUqori kuchlanishli tarmoqlar temir yo‘llar bilan kesishgan yoki unga yaqinlashgan holatlarda, tayanch asosidan yo‘l o‘qigacha bo‘lgan masofa tayanch balandligidan 1,5 baravar katta bo‘lishi kerak.

Avtomobil yo‘llari bilan kesishgan holda esa bu masofa shu tarmoq tayanchi balandligidan kichik bo‘lmasligi talab etiladi.

**Elektr o‘tkazgich tarmog‘i yo‘nalishini tanlash.** Yer ustidan o‘tkazilgan tarmoq trassasi joyning topografik, injenyer – geologik va gidrometrik sharoitlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Odatda gidrotexnik, issiqlik va atom elektrstansiyalari elektr o‘tkazgich tarmog‘ining boshlang‘ich punkti, yirik sanoat majmuasi esa oxirgi punkti hisoblanadi. Bu punktlar oralig‘ida elektr uzatgich tarmog‘i trassasi imkon boricha qisqa masofada, qulay topografik va injenyer – geologik sharoitga ega bo‘lgan joylardan o‘tishi kerak. Lekin, shu bilan birga yer va suv qonunchiligi asoslari talablarini e‘tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Elektr uzatgich tarmog‘i trassasi aerodrom, aholi yashash punktlarini, sanoat korxonalari, zapovedniklar, kurort maydonlaridan aylantirib o‘tkaziladi. Trassa qanchalik kam suv xavzalari, injenerlik inshootlarini kesib o‘tsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Daryo bo‘ylab trassa o‘tkazilganda, tanyachlarni iloji boricha suv qoplamaydigan joylarga o‘rnatishga xarakat qilinadi. Tog‘li joylarda esa tayanchlar mustahkam qoyalarga o‘rnatiladi, bu bilan shamol va muzlash ta’siri kamaytiriladi.

Trassaning bir necha varianti yirik masshtabli topografik kartada loyihalanadi va eng qulay hisoblangan varianti tanlab olinadi.

Plan olish asosi sifatida taxeometrik yo‘ldan foydalaniladi. Taxeometrik yo‘l o‘tkazishda masofa va nisbiy balandliklar to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlarda o‘lchanadi. Ba‘zi hollarda avval tomonlari 500 – 1000 m ga teng bo‘lgan asosiy yo‘l o‘tkaziladi. Tomon o‘lhash nisbiy xatoligi 1/500. Plan olish yo‘llari asosiy yo‘lga tayanadi. Trassa bo‘ylab yo‘llarni planli – balandlik bog‘lash 15 – 20 km oraliqda amalga oshiriladi.

Ishchi plan va trassa tarmog‘i profili tayanch markazlarini rejalah loyihasining asosiy hujjati hisoblanadi.

Tanyachlarni rejalah, piketlash qiymatlari bo‘yicha yaqin joydagisi mahkamlangan nuqtadan teodolit yordamida amalga oshiriladi.

Tayanchlar noqulay joylarga to‘g‘ri kelib qolgan holatda, uni tarmoq o‘qi bo‘ylab 3 m gacha siljitchish mumkin.

Yer ostidan o‘tuvchi tarmoqni ijroiy planga tushirishda tayanchlar orasidagi masofalar va ularning tikligi o‘lchanadi.

**Quvur o‘tkazgichlar tarkibi.** Neft, gaz va neft mahsulotarini uzoq masofalarga tashish uchun mo‘ljallangan inshootlarga magistral quvuro‘tkazgichlar deyiladi. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) konlardan tortib oluvchi quvuro‘tkazgichlar;
- 2) nasos stansiyadan tarkib topgan bosh inshootlar;
- 3) trassa bo‘ylab 80 – 100 km oraliqlarda joylashgan oraliq stansiyalar;
- 4) 500 – 1420 mm diametrli quvuro‘tkazichlardan iborat bo‘lgan chiziqli inshootlar.

Foydalanishga qulay bo‘lishi uchun quvuro‘tkazgich trassasi bo‘ylab telefon tarmog‘i va tuproq yo‘l o‘tkaziladi.

**Loyihalashga bo‘lgan talablar.** Magistral quvuro‘tkazgichlar 0,8 m dan kam bo‘magan chuqurlikda, suv to‘sig‘idan kesib o‘tganda suv tagidan 0,5 m chuqurlikda erga ko‘miladi. Kichik diametrli quvuro‘tkazgichlar nishabligi joy relefiga parallel holda loyihalanadi. Bo‘ylama profil nishab masofa bo‘ylab tuziladi.

Trassa plani esa masofaning gorizontal qo‘yilishi bo‘yicha tuziladi.

Katta diametrli quvuro‘tkazgichlar planda va profilda hisob bo‘yicha loyihalanadi. SHuning uchun bu erda piketlarni rejalash chiziqni gorizontal qo‘yilishi bo‘yicha olib boriladi.

Murakkab sharoitlarda (doimiy muz bilan qoplangan, botqoqli, tog‘li, o‘piriladigan joylar) magistral quvuro‘tkazgichlar yer ostidan o‘tkaziladi.

**Texnikaviy loyiha tuzish uchun bajariladigan qidiruv ishlari.** Bosh inshoot maydoni quvuro‘tkazgichning boshlang‘ich punkti, zavod, baza yoki tarqatish maydonchasi esa oxirgi punkt hisoblanadi. Mana shu punktlar oralig‘ida barcha texnikaviy shatrlarga javob beradigan va kam xarajat talab qiladigan quvuro‘tkazgich trassasi tanlanadi.

Trassa variantlari eng qisqa yo‘nalishni tanlagan holda topografik kartada belgilanadi. Imkoniyat boricha trassa qurilishida foydalanish maqsadida ular temir va avtomobil yo‘llariga yaqinroq loyihalanadi.

Tanlangan trassa yo‘nalishi bo‘ylab 1:10000, 1:12000 masshtabda samolyotdan plan olish bajariladi. Joyda geodezik asos barpo etiladi va aerosuratlarni geodezik bog‘lash amalga oshiriladi.

Trassani aholi yashash punktlariga 200 – 300 m dan yaqin o‘tishga ruxsat etilmaydi.

SHu bilan birga neft o‘tkazgichlar aholi yashash punktlaridan past otmetkadan, gaz o‘tkazgichlar baland otmetkadan o‘tkaziladi.


**Quvuro‘tkazgichlarni trassalash.** Ishchi chizmalarni tuzish uchun quvuro‘tkazgichlarni trassalash amalga oshiriladi. Bunda burilish burchaklari o‘lchanadi va mahkamlanadi, piketajlar rejalanadi va nivelerlanadi, kesishish va o‘tish joylari planga tushiriladi. Ishni qidiruv guruhi bajaradi. Uning tarkibiga geodezist, geolog, qazuvchi master, hamda ishchilar kiritiladi. Trassa bo‘ylab 2 – 3 km da reperlar o‘rnatalidi.

Trassa 50 km oraliqda geodezik punktlarga bog‘lab boriladi.

**Quvur o‘tkazgichlarni qurishdagi rejalash ishlari** Quvuro‘tkazgichlarni qurishdan oldin burilish burchakari tiklanadi va mahkamlanadi, qayrilmalar batafsil rejalanadi.

Yer ishlarini amalga oshirish uchun handaklarni batafsil rejalash kerak.

Yer usti quvuro‘tkazgichlari 100 – 120 m oraliqda joylashtirilgan tayanchlarga montaj qilinadi. Qayrilish uchlari tayanchlarga nisbatan to‘g‘ri burchakli koordinatalar usulida bajariladi



Koordinatalar x va u quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$x = v \cos \beta; \quad y = v \sin \beta$$

bu erda  $v$  – tayanchdan burilish uchigacha bo‘lgan masofa ( 50 – 60m);

Quvuro‘tkazgichning A va V nuqtalaridagi  $2\beta$  burchakka qarashli joylari kichik radiusdagি gorizontal qayrima shaklida amalga oshiriladi.

Quvuro‘tkazgichlarni suv ostidan o‘tkazishda skrepyer yordamida suv tagidan 0,8 – 1 m chuqurlikda handak qaziladi.

Tog‘li joylardagi daryolardan, soyliklardan, chuqur jarliklardan trassa kesib o‘tishda osma o‘tish inshootlari quriladi va ularga quvuro‘tkazgich mahkamlanadi. Bu erda tayanchlarni rejalash murakkab jarayon hisoblanadi, chunki ular ko‘prik orqali o‘tishdagi kabi tartibda amalga oshiriladi.

Quvurlarni joylashtirib bo‘lgandan keyin, ijroiylan plan olish bajariladi. Bunda asosan quvurlarning ulangan joylariga, diametrulariga, dyukerlarning boshi va oxiriga ahamiyat beriladi. Bir vaqtning o‘zida nivelerlash bajariladi va quvurning ustki qismi balandligi, handakning qosh qismlari balandliklari aniqlanadi.

O‘lhash natijalariga binoan bo‘ylama profil tuziladi. Bu profilda quvurlarning diametrлари va otmetkasi, hamda ko‘mmaning ustki qismi balandligi ko‘rsatiladi.

Murakkab sharoitga ega bo'lgan tuproqlarda joylashgan katta diametrlı quvuro'tkazgichlarda, ichki bosim ta'sirida bo'ylama va ko'ndalang siljishlar sodir bo'lishi mumkin. SHuning uchun quvuro'tkazgichlarning murakkab uchastkalarda joylashgan qismlarini o'zgarishini sistematik ravishda kuzatib borish kerak bo'ladi.

Ulcham olish ishlarini bajarishning odatdagи naturali usullari kup vakg va mablaglarni talab etadi, ayniksa, murakkab inshootlarning ulchamlarini olish uchun narvonlar va xavozalar kurishga tugri keladi.

Geodezik va fotogrammetrik ulchashlar nafakat xud ud ni xaritalashgirishda, balki bir kancha muxandislik masalalarini echishda keng kullaniladi. Geodeziya va fotogrammetriya tarixiy-kurilish ulcham olish ishlarini bajarishda muxim rol uynaydi.

Mamlakatimizda joyda bsvosita bajariladigan tarixiy-kurilish ulcham olish ishlariga kuplab mablaglar ajratilmokda.

Muxandislik inshootlarining rang-barangligi va muxandis-geodezik ishlarning xilma-xil maksadlari turli usullarni kullash zaruriyatini ksltirib chikaradi. Ms'morchilikda kullaniladigan s'yomka kilish usullarini uch guruxga ajratish mumkin:

1. Bevosita - oddiy asboblar (chizgichlar, ruletkalar, reykalar, shovunlar va boshkalar) va murakkab asboblar (gidrostatik nivelirlar, progibomerlar, klinometrlar, tenzometrlar, komparatorlar, nivelirlar va x-k.) yordamida ulcham olish.

2. CHizikli va burchak ulchash asboblari kullaniladigan geodezik usullar.

3. Fototeodolitlar, fogokameralar va videokameralar kullaniladigan fotogrammetrik usullar.

Bevosita va geodezik usullar kup xollarda anik usullar xisoblanadi, ammo bevosita ulchashlar, bir vaktning uzida sanok olishning kiyinligi yoki vaktning uzida sanok olishning kiyinligi yoki kup asboblarni urnatish imkoniyatining yukligi olinadigan informatsiyalarning tulikligiga monelik kiladi, usullarning kup mexdat talab kiladigan, xatto k i xavfli bulishiga xam olib keladi. Bu usul-larning kamchiligi sifatida bita optik asbob yordamida fazoviy ulchashlarni amalga oshirishning iloji yukligini kursatish mumkin. Bu erda zamonaviy elektron geodezik asboblarni kullash ushbu kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

SHu yoki boshka usullarni kullash kuyidagi omillar orkali aniklanadi: ishning maksadi, engilik darajasi va sharoitlari, inshootning murakkabligi va ulchamlari, bajarish uchun berilgan muddatlar, ulchashlar anikligi, bajarish vakti, narxi, xavflilik darajasi va x.,k.

Xozirgi vaktda me'morchilikda geodeziya va fotogrammetriyani kullash masalalariga kuprok e'tibor berilmokda. Ammo ulcham olishni bajarishda ularning samaradorligiga karamasdan, ushbu usullarni kullash keng kulamda tadbik etilmayapti. Buning sababi esa ulcham olish va ta'mirlash ishlarining loyixalarini ishlab chikishga kompleks yondashuvning etishmasligi xmda normativ xujatlarning yukligidan iborat.

Xorijiy mamlakatlarda tarixiy s'yomkalarni uch asosiy toifaga ajratish kabul kilingan: yakinlashtirilgan (taxminiy), anik va yukori aniklikdagi.

YAkinlashtirilgan s'yomkalar tarixiy yodgorliklarni inventarlash, ta'mirlashda ularning x,olatini taxdil kilish va kayta tiklash maksadlarida bajariladi. Bunda inshootlar va ular fragmentlarning 1:200 dan 1:50 gacha bulgan mashtabdagi obzorli sxematik rejasi tuziladi.

Anik s'yomkalar aloxida yoki bir gurux, binolar xmda intererlarning 1:20 va 1:10 mashtabli reja va fasadlarini chizish uchun muljallangan.

YUkori aniklikdagi s'yomkalar (xatoligi reja mashtabida 0,1 mm dan katta bulmagan) muzey- lardagi skulptura va xdykalchalarini, devoriy raem va mozaikali yodgorliklarning freskalari va muxsm soxdalarini urganish uchun bajariladi; xujjalarning mashtabi 1:5 dan 1:1 gacha.

Tarixiy geodezik s'yomkalarning vazifalari yodgorliklarning geometrik shakllari, ulchamlari va kursatkichlarini aniklashdan iborat. Bunda s'yomkalarning mazmuni kuyidagi iste'molchilarning talablariga javob berishi kerak:

- tarixiy yodgorliklarning shakllari va ushbu uslubga xos bulgan xususiyatlarni taxlil kiluvchi tarixchilarining;

- yodgorliklarni konservatsiyalash va ta'mirlash bilan boglik bulgan tadkikotlarni utkazuvchi va kayta tiklash uchun sarflanadigan xarajatlarni aniklovchi me'morlarning va x.k.

Geodezik va fotogrammetrik usullar fototopografik planlarni tuzish, fotografik material- lar buyicha loyixdash, loyixdni joyga kuchirish, ijroiy s'jomkalar, bino va inshootlarning deformasiyalarini aniklash, tarixiy ulcham olish, xdykallarni s'yomka kilish, tarixiy yodgorliklarni muxofaza kilish, ta'mirlash ishlarining xdjmi va yuzalarini aniklash, inshootlar elementlarini tekislikka yoyishni amalga oshirish va boshkalar uchun kullash zarur.

Xorijiy adabiyotlarda chop etilgan tadkikotlar, tarixiy inshootlarning egri chizik shaklidagi elementlarini aniklash nazariyasi va texnologiyasini kam ifoda etadi.

Dstallarning bitta ukda joylashuvini, shakllarning simmstrikligini aniklash, tarixiy shakllarning xatoligini topish aloxsda ilmiy axdmiyatga ega [16].

Rejada aylana shakliga ega bulgan tarixiy inshootlarga minoralar, gumbazlar va xokazolar kirdi. Ularni urganishda aylana shaklidagi inshootlar markazi va kesimlari radiusini aniklash aloxsda axamiyat kasb etadi.

SHaxrisabz shaxridagi Oksaroy tarixiy yodgorliksi kurilmalarining deformatsiya xolatini kompleks tadkikot kilish ishlari professorlar B.A. Askarov, K.S.Abdurashidov, dotsent N.M.Nishonboev va boshkalar tomonidan amalga oshirilgan. SHikastlanish va deformatsiyalarning son- li xarakteristikalarini aniklangan va ularni mustaxkamlash usullari tavsiya etilgan.

M.M.Nishanboevning ishlarida [12, 13] tarixiy yodgorliklar devorlari yuzalarining rejali- ni tuzish uchun bajarilgan geodezik ishlar kurib chikilgan va taxlil kilinayotgan nuktalarning fazo- viy koordinatalarini topish anikligini bax, oslash amalga oshirilgan, devor yuzasining tenglamasi keltirilgan. Bundan tashkari, minoralarning ogishini aniklash, tarixiy yodgorliklarni ta'mirlashda fotogrammetrik ishlarini bajarish anikligi va texnologiyasi, konussimon va silindrik yuzalarni tekislikka yoyish, gumbazeimon yuzalarni tekislikka yoyishning ikki variangi va boshka masalalar keltirilgan.

E.X.Isakovning ishlarida muallif birinchi bulib Leyka firmasining elektron-lazerli as- boblari komplektining ish jarayoniga atmosfera omillarining ta'sir etishini taxlil kilgan. Kuyidagi tadkikotlar olib borilgan: teodolit va dalnomyer kurish trubalarining uklarining paral- lelligi tekshirilgan; lazyer nuri ukining DIOR 3002 dalnomerining ukiga parallelligi taxlil kilingan; inshoot yuzasini s'yomka kilishda perpendikulyardan chekli burchak ogishini anikdash uchun DIOR 3002 elektron dalnomeri taxdil kilingan; masofalarni ulhash anikligiga kuyosh radiatsiyasining ta'siri aniklangan va x.k. SHuningdek minoralarning ogishi va kiyshayishini ularning buralishini xisobga olgan xolda anikdash, SHoxi-Zinda ansamblidagi Kusam ibn Abbas makbarasi devorlari va gumbazlarining frontal rejalarini stereofotogrammetrik va geodezik usullarda barpo etish masa- lalari kurib chikilgan. Tarixiy yodgorliklarni s'yomka kilish usullari va Leyka firmasining elektron lazerli asboblarining kullanish imkoniyatlari taxdil kilingan. Ta'mirlash ishlarini bajarish maksadida zaruriy chizmalar, profillar va kirkimlar chizilgan.

### **Tarixiy yodgorliklarning xolatini urganishda geodezik usullarni kullash**

Kadimiylar tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va kayta tiklash maksadida, muxandisona va tarixiy taxdilini zamonaviy geodezik usullarni ullab, ularning xolatini chukur tekshirgan xolda amal- ga oshirish mumkin. Tarixiy yodgorliklarning xolatini tekshirish, ulchamlarini, ta'mirlash va rekonstruksiya chizmalarini tayyorlash uchun geodezik usullarda kuzatish ishlari olib borilib, ularning natijalari asosida zaruriy me'yoriy xujjatlar ishlab chikiladi.

Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va rekonstruksiya kilish uchun ulcham olish chizmalarini tu- zish buyicha amalga oshiriladigan ishlarning kupchiligidagi geodezik va fotogrammegrik usullar kulla- niladi. Ammo, tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash maksadida ularning xolatini tekshirishda echilishi lozim bulgan kuyidagi muammolar paydo buladi.

- tarixiy yodgorliklarning parametrlarini geodezik usulda aniklash: planli-balandlik geodezik gayanch tarmogini barpo etish, inshoogda nul ish chizigini rejalaish va belgilash; tarixiy yodgorliklarning gorizontal, vertikal va kiya xolatda joylashgan elementlarining ulchamlarini aniklash; borib bulmas masofalarni aniklash; inshootning borib bulmas balandligini aniklash; rejada aylana shakliga ega bulgan inshootlarning radiusi va markaz koordinatalarini aniklash va boshkalar.

## **Ulcham olish chizmalarini chizish uchun kullaniladigan asboblar**

Tarixiy ulcham olish ishlarining natijalari buyicha inshootlarning ulcham olish chizmalari chiziladi: planlar, fasadlar, kirkimlar, fragmentlar, nakshlar, bezaklar va devorlardagi yozuvlar va x.k.

X'ozirgi vaktda, chizikli ulchashlarni 1/1000 - 1/3000 nisbiy xatolik bilan amalga oshirish uchun amaldagi me'yoriy xujjalarga asosan OPKZ-20 ANT/10, OPKZ-ZO ANT/10 va OPKZ-50 ANT/10 pulat rulegkalar ishlatiladi, anikligi yukori (1/500) bulgan ulchashlarda esa OPK2-50 ANT/1, OPKZ-50 BUL/1 - millimetrik bulakli ikkinchi klass aniklikdagi rulegkalardan foydalaniladi.

Tarixiy s'jomkalarni bajarishda burchaklarni ulchash uchun T15, 2T15, 2T30, 2T30P va boshka texnik tsodolitlar kullaniladi.

Planli geodezik va fotogrammegrik asoslarni barno etishda, inshootlarning ogishi va boshka deformatsiyalarini kuzagishda ZT2KP, ZT5KP, T5, T5K, «Teo-020» markali anik teodolitlardan foydalaniladi. Ammo shuni yodda tutmok zarurki, agar boshka ulchashlar, masalan, kompleks ulchashlar tar-kibiga kiradigan chizikli ulchashlar (avvalgi darajada kolsa) anikligi yukori bulmagan asboblar yor-damida bajarilsa, anik asboblarni ishlatishning xojati yuk SHuning uchun chizikli ulchashlarga mos bulgan asboblar (svetodalnomerlar) dan yoki zamonaviy elektron taxeomegлardan foydalanish zarur.

Geometrik nivelerlashni bajarishda NZ va NYU nivelerlарини ishlatish mumkin. Inshootlarning chukishi va boshka deformatsiyalarini aniklashda NO,5, N1, NA1, N, 004 va boshka nivelerlар kullaniladi.

Inshootlarda nul ish chizigini joyda rejlash va otmetka uzatish uchun, ta'mirlovchilar texnik nivelerlardan foydalaniladi. Ammo bu asbobdan xamma vakt xam foydalanib bulmaydi. Masalan, nul ish chizigini xonalarning ichida rejashda, yoruglik etarli bulmagan joylarda, shtativ va reykalarini urnatish imkoniyati bulmagan xollarda. Bu xolatlarda gidrostatik nivelerlash usulini kullash maksadga muvofik buladi. Xozirgi vaktda xorijiy firmalar tomonidan kuplab turli xil elektron, lazerli va avto-matlashtirilgan geodezik asboblar ishlab chikarilmokda.

Geodezik ulchash ishlarini avtomatlashtirish va ularni bajarishni jadallashtirish uchun zamonaviy lazerli elektron asboblarni kullash maksadga muvofik.


## **Tarixiy yodgorliklarning geometrik parametrlarini geodezik usulda aniklash texnologiyasi**

Ulcham olish ishlari amaliyotida tarixiy yodgorliklarning bir kator asosiy parametrlarini aniklash muammosi paydo buladi. Tarixiy ansambllarning geometrik parametrlarini geodezik usulda aniklash texnologiyasini bir necha boskichlarga ajratish mumkin.

### **Optimal nlanli-balanslik geodezik tarmoklarini barpo etish**

Ma'lumki tarixiy ulchamlarni olishdan maksad tarixiy yodgorliklarning ulcham olish chizmala-rini tuzishdan iborat. Agar ulcham olish ishlari inshootning ichida yoki atrofida joylashgan duch kel-gan nuktalaridan boshlab ulchansa, ulcham olishning anik chizmasini tuzishning imkon bulmaydi. SHu-ning uchun s'jomka kilish nuktalari bir-biri bilan uzaro boglangan bulishi zarur: joyda tarixiy yodgorliklarning ulchamlarini olishda bu bogliklik inshootning ichki va tashki tomonlarida, turli usullar orkali belglangan shartli nul va vertikal chiziklar orkali amalga oshiriladi.

Geodezik usulda tarixiy yodgorliklarning geometrik ulchamlarini olishda geodezik tayanch gar-moklari sifatida yodgorlikning atrofidan, agar sharoig gakozo etsa, ichkarisidan x,am utkaziladigan teodolit-nivelir yuli xizmat kiladi Juda katta bulmagan inshootlarni s'jomka kilishda uchburchak yoki turburchak shaklidagi teodolit yuli bilan chegaralanish mumkin. Ayrim xollarda, alox,ida fasad yoki kurinishlarni s'jomka kilish paytida ishlarni bitta yoki ikkiga stansiyadan turib



bajarish kifoya kiladi. Bunda orientirlash bussol yordamida amalga oshiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Quvuro'tkazgichlar deb nimaga aytildi? Ularning tarkibi?
2. Quvuro'tkazgichlarni loyihalashda qanday talablar qo'yiladi?
3. Quvuro'tkazgich trassasi qanday tanlanadi?
4. Quvuro'tkazgichlarni trassalashda qanday geodezik ishlar bajariladi?
5. Elektr uzatkich trassasi qanday tanlanadi?
6. Elektr uzatkich trassasiga qanday talablar qo'yiladi?
7. Elektr uzatkich trassasini barpo etishda plan olish asosi sifatida qanday tarmoqdan foydalilanadi?

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Schofield W., Breach M. Engineering surveying. Sixth edition, 2012 // [www.books.elsevier.com](http://www.books.elsevier.com)
2. Avchiyev Sh.K., TashpoTatov S.A. Ingenerlik geodeziyasi. - Toshkent: Yosh kuch press matbuoti MChJ, 2014. - 397 b.
3. Avchiev SH.K., Tashpulatov C.A. Injenerlik geodeziyasi. - Toshkent: Yosh kuch press matbuoti MChJ, 2014.-430 6.
4. Klyushin E.B. i dr. Injernaya geodeziya. - Moskva: Akademiya, 2006. - 479 s.
5. Oxunov 3. Geodeziyadan praktikum. - Toshkent: Universitet, 2009. - 200 b.
6. Lukyanov V.F., i dr. Laboratornyy praktikum po injernoy geodezii. - Moskva: Nedra, 1990. - 334 s.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob halqimiz bilan birga quramiz . - T.: Uzbekistan, 2016. - 486 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.
3. - T.: Uzbekistan, 2017. - 102 b.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt tarakkiyoti va halq farovonligining garovi. - T.: Uzbekistan, 2017. - 47 b.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>UMUMIY MA'LUMOTLAR</b>	
<i>“Injenerlik geodeziyasi” fani va uning vazifalari</i>	
<i>So‘z boshi o‘rnida.....</i>	<b>4</b>
<i>Geodeziya to‘g‘risida umumiy ma’lumot.....</i>	<b>5</b>
<i>Joylardagi chiziqlarni orientirlash.....</i>	<b>16</b>
<i>O‘lhash xatolar nazariyasining elementlari.....</i>	<b>21</b>
<i>Topografik plan va kartalar.....</i>	<b>23</b>
<i>Geodezik to‘rlar.....</i>	<b>34</b>
<i>Burchak o‘lhash. Masofa o‘lhash.....</i>	<b>43</b>
<i>Geometrik nivelirlash.....</i>	<b>53</b>
<i>Teodolitli s’yomka. Topografik s’yomkalar.....</i>	<b>71</b>
<i>Qurilish uchun injenyer qidiruv ishlari. Loyihalashda geodezik ishlari .....</i>	<b>81</b>
<i>Bino va inshootlar loyihasini joyga ko‘chirishda bajariladigan geodezik ishlari.....</i>	<b>86</b>
<i>Qurilish jarayonida geodezik ishlari.....</i>	<b>92</b>
<i>Bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilishda geodezik ishlari.....</i>	<b>96</b>
<i>SHaharlarni planirovkalash va qurishdagi geodezik ishlari.....</i>	<b>99</b>
<i>Yer osti kommunikatsiyalarini qurish va ishlatishdagi geodezik ishlari.....</i>	<b>102</b>
<i>Yo‘llar va ko‘priklarni qurishdagi geodezik ishlari.....</i>	<b>104</b>
<i>Gidrotexnik inshootlarni qurishdagi geodezik ishlari.....</i>	<b>107</b>
<i>Tonnellar qurilishida geodezik ishlari.....</i>	<b>111</b>
<i>Elektr uzatgichlarni, aloqa liniyalarini va magistral quvurlarini qurishdagi geodezik ta’midot. Tarixiy va arxitektura obidalari rekonstruksiyasidagi geodezik ishlari.....</i>	<b>114</b>
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....</i>	<b>121</b>

**N.J.Xudaykulov, U.A.Karabekov**

**“INJENERLIK GEODEZIYASI” FANIDAN  
(ma’ruzalar matni)**

